E.Sariqov, B.Xaydarov

IQTISODIY BILIM ASOSLARI

9

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

To'rtinchi nashri

Toshkent — 2019

UO‘K 37.015.6(075)
BBK 65.01ya7
S-32

Taqrizchilar:

A.N.Sattarov – Respublika ta’lim markazi «Iqtisodiy bilim asoslari» fani metodisti;
X.T.Jumanov – Nizomiy nomidagi TDPU «Iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijara uchun chop etildi.

© **«Huquq va Jamiyat» MCHJ** shaklidagi nashriyot, 2019

ISBN 978-9943-5874-1-0

M U N D A R I J A

Darslikdan foydalanish bo‘yicha umumiy ko‘rsatmalar 5

I bob. Tadbirkorlik va ishlab chiqarish

1- mavzu. Tadbirkorlik..... 8
2- mavzu. Firma va uning turlari 12
3- mavzu. Aksiyadorlar jamiyati 16
4- mavzu. Firma tashkil qilish.....21
5- mavzu. Firma mablag‘lari va xarajatlari 25
6- mavzu. Yalpi daromad, foyda va zarar 29
7- mavzu. Iqtisodiy faoliyat tahlili 33
8- mavzu. Firmani boshqarish — menejment 37
9- mavzu. Marketing 41
10- mavzu. Ishlab chiqarish va ekologiya 45
I bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar 49

II bob. Davlat va iqtisodiyot

11- mavzu. Davlatning iqtisodiy vazifalari 56
12- mavzu. Davlat budjeti 60
13- mavzu. Bank tizimi 64
14- mavzu. Davlatning iqtisodiyotdagi roli 68
II bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar 72

III bob. Soliq turlari

15- mavzu. Daromad solig‘i 78
16- mavzu. Mol-mulk solig‘i..... 82
17- mavzu. Yer solig‘i 86
18- mavzu. Aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i.....90
III bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar 94

IV bob. Iqtisodiy o‘sish

19- mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar 98
20- mavzu. Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish 102
21- mavzu. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyati 106
IV bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar 110

V bob. Inflatsiya va ishsizlik

22- mavzu. Inflatsiya va uning turlari 114
23- mavzu. Inflatsiya oqibatlari 118
24- mavzu. Ishchi kuchi bozori va ishsizlik 122
25- mavzu. Ijtimoiy himoya vositalari 126
V bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar 130

VI bob. Jahon iqtisodiyoti

26- mavzu. Xalqaro savdo 134
27- mavzu. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar 138
28- mavzu. Valuta kursi 142
29- mavzu. Jahon iqtisodiyoti muammolari 146
30- mavzu. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi 150
VI bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar 154
9-sinfda o‘tilganlarni takrorlash uchun test topshiriqlari 156

DARSLIKDAN FOYDALANISH BO‘YICHA UMUMIY KO‘RSATMALAR

Har bir mavzuga oid materiallar quyidagi bandlarga bo‘lingan va ma’lum tartib asosida darslik sahifalarida joylashtirilgan, ba’zi bandlar esa muayyan belgi ostida ajratib ko‘rsatilgan:

1. Darsning tartib raqami va mavzu nomi.
2. Dars mavzusini yoritishga yordam beruvchi muammoli vaziyatga oid ko‘rgazmali ma’lumot, rasm, jadval, diagramma va boshqa materiallar.
3. Mavzuga oid, asosan uyda mutolaa qilishga mo‘ljallangan asosiy matn.
4. O‘quvchilarni faollashtiruvchi hamda muzokaraga chorlovchi savol va topshiriqlar.
5. Dars davomida qo‘llaniladigan tayanch atamalarning ta’rifi.
6. O‘zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish, takrorlash va o‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.
7. Hisob-kitob ishlarini va iqtisodiy tafakkurni talab qiladigan, amaliyot bilan bog‘liq topshiriq va mashqlar.
8. Izlanish va kichik tadqiqot olib borish uchun o‘quvchilarga alohida-alohida beriladigan mustaqil ish topshiriqlari.
9. O‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash yoki guruhda ishlash uchun berilgan topshiriqlar.
10. Mavzudagi yodda saqlash lozim bo‘lgan o‘zak g‘oya va fikrlar.
11. Yurtimizga xos sharqona qadriyatlar, fan tarixiga oid asarlardan iqtiboslar, ularga oid savol va topshiriqlar.
12. Iqtisodiy tafakkurni o‘stirishga, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga va dunyoqarashni kengaytirishga mo‘ljallangan qo‘shimcha ma’lumotlar.
13. Iqtiboslar.
14. Iqtisodiy tushunchalarni o‘zaro bog‘laydigan formulalar.
15. “Mustaqil faoliyat” rukni ostidagi qo‘shimcha materiallar.

Darslikda Iqtisodiy bilim asoslari fanining 9- sinf kursi 30 ta mavzuga bo‘lib berilgan. Har bir mavzuga oid materiallarni bitta dars davomida va uyda o‘rganish lozim.

Yangi mavzuni yoritishda asosan yuqorida tushuntirilangan 2 – 5- band materiallari bilan ishlash kerak.

3- bandda berilgan materiallardan asosan uyda o‘qish va o‘rganish uchun foydalanish lozim.

Dars mavzusini mustahkamlashni 6- banddagi savol va topshiriqlar hamda 7- banddagi topshiriqlar va mashqlar yordamida amalga oshirgan ma’qul.

8- banddagi topshiriqlar kichik izlanish va tadqiqot sifatida o‘quvchilarga mustaqil ish qilib berishga mo‘ljallangan. Bunda, zarur hollarda o‘quvchi kattalar bilan hamkorlik qilishi ham lozim bo‘ladi.

9 – 12- banddagi savollar, o‘zak jumlalar va qadriyatlar mustaqil mushohada yuritish, bilimlarni boyitish, amaliyotda qo‘llab ko‘rish va o‘z-o‘zini tekshirish maqsadida ishlatilgani ma’qul.

O‘quvchilar diqqati 4- banddagi kalit atamalar va 10- banddagi mavzuning o‘zak jumlalariga qaratilishi lozim.

Uyga vazifalar dars davomida foydalanilmagan 9 – 10- band savol va topshiriqlari asosida berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Har bir bob oxirida berilgan takrorlash uchun savol va topshiriqlardan o‘tilganlarni mustaqil ravishda takrorlab borish hamda oraliq nazorat ishlariga tayyorlanish maqsadida foydalanish tavsiya etiladi. Berilgan testlar esa oraliq nazoratni amalga oshirishga uchun testlar tayyorlashda namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Darslikdan, shuningdek, “Mustaqil faoliyat” rukni ostidagi materiallar ham o‘rin olgan. Bu materiallarni o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida o‘rganishlari maqsadga muvofiq. Ular o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, izlanish, tadqiqotga undaydi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar haqida ma’lumot beradi. Ular bilan ishlashda, albatta, ustozlarning hamda ota-onalarning yordami va maslahatlaridan foydalanish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlar jadal davom ettiriladi.

Shavkat Mirziyoyev

I bob. Tadbirkorlik va ishlab chiqarish

1- MAVZU TADBIRKORLIK

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlardagi odamlar tadbirkorlikning qanday turlari bilan shug‘ullanadilar? Bu odamlarning qanday umumiy va o‘ziga xos fazilatlari bor deb o‘ylaysiz?
2. Siz tadbirkor kishilardan kimlarni bilasiz? Ular qanday faoliyat bilan shug‘ullanadilar? Ular qanday kishilar?

Tadbirkorlik deganda kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida o‘z mablag‘lari, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati tushuniladi. Tadbirkorlik, boshqacha qilib aytganda, ishbilarmonlik yoki biznes deb ham yuritiladi. Bunday faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladigan insonlarni *tadbirkorlik layoqati bor kishilar* yoki *tadbirkor*, *ishbilarmon* yoki *biznesmenlar* deb atashadi.

Tadbirkorlik — kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida, o‘z mablag‘i, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

Tadbirkorlar – foyda olish maqsadida tovar va xizmatlar yaratish uchun tavakkalchilikni zimmasiga oladigan kishilar.

Tadbirkorlik layoqati bor kishi:
– boshlang‘ich mulk va mablag‘ topib, uni ishga sola olishi;
– erkin iqtisodiy faoliyat yurita olishi;
– foyda olishga intilishi va tavakkal qila olishi;
– mehnatsevar, g‘ayratli va tashabbuskor bo‘lishi;
– mas’uliyatdan qochmasligi;
– qonunlarga rioya qilgan holda ish yuritishi;
– halol raqobat tarafdori bo‘lishi lozim.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri xususiy mulkchilikka asoslangan erkin raqobat muhiti yaratilishidir.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan faoliyatdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlarning tadbirkorlik layoqati – tabiiy, kapital va mehnat omillari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanadi. Chunki ishlab chiqarishning xuddi shu omili qolgan uch omilni birlashtirish imkonini beradi. Tadbirkorlik jamiyat uchun kerak, chunki bu faoliyat natijasida yangi, qo‘shimcha ish joylari yaratiladi. Tadbirkorlik nafaqat iste’molchilar uchun, balki davlat uchun ham zarur va foydali faoliyatdir. Davlat tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berishi bilan aholini ishga joylash, keng iste’mol tovarlari va xizmatlar bilan ta’minlash vazifasini, ma’lum ma’noda, o‘zidan soqit qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlardan olinadigan soliqlar hisobiga davlat xazinasi boyiydi. Shu bois, davlat tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Qadriyatlar

Sohibqiron Amir Temurning “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir” degan o‘gitini sharhlang.

Tadbirkorlik *biznes-g‘oya*dan boshlanadi. Biznes g‘oyaning qanchalik to‘g‘ri tanlangani — biznes muvaffaqiyatining eng asosiy va boshlang‘ich omillaridan biri hisoblanadi. Lekin biznes-g‘oyaning o‘zi muvaffaqiyatli biznes uchun yetarli emas. Uning uchun aniq hisob-kitoblarga asoslangan reja tuzish kerak bo‘ladi. *Biznes-reja* — biznes-g‘oyani amalga oshirish maqsadida bajarish zarur bo‘lgan, o‘zaro muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar dasturidan iborat hujjat. Aytaylik, xayolingizga juda zo‘r biznes-g‘oya kelib qoldi. Uni amalga oshirish uchun sizga mablag‘ kerak. Mablag‘ni bankdan yoki tanishlaringizni sherik qilib topishingiz mumkin. Ular mablag‘larini “quruq” so‘zga berishmaydi. Siz o‘z g‘oyangizni qog‘ozga tushirib, hisob-kitob qilib, haqiqatan foydali ekanligini isbotlashingiz kerak bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, biznes reja tuzishingiz, uning muvaffaqiyatli bo‘lishiga, avvalo, o‘zingiz ishonch hosil qilishingiz va sheriklaringizni ham ishontirishingiz lozim. Biznes-reja, birinchi navbatda, tadbirkorning o‘zi uchun muhim.

Odatda, biznes reja:

– korxonaning qisqacha tavsifi;

– ishlab chiqariladigan tovar yoki xizmatning tavsifi;

– ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish tamoyillari;

– ishlab chiqarish xarajatlari, tushum, rejalashtirilgan foyda va uning taqsimoti;

– ishlab chiqariladigan tovar yoki xizmat bozorining tahlili;

— yakuniy xulosalar kabi ma'lumotlardan tashkil topadi.

Biznes reja — biznes-g'oyani amalga oshirish maqsadida qilinishi zarur bo'lgan, o'zaro muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar dasturi.

Ulardan ba'zilari bilan tanishib chiqamiz.

Ishlab chiqarish faoliyatiga asoslangan tadbirkorlikda ishlab chiqarishning tabiiy, kapital va mehnat omillari birlashib harakatga keladi. Tadbirkor ishlab chiqarish vositalari — yer, bino, inshoot, asbob-uskunalar, xom ashyoni sotib oladi, ishchi xodimlarni yollaydi. Turli xildagi tovarlar ishlab chiqaradi va iste'molchilarga sotadi. Odatda, tadbirkorlikning bunday turi bilan salohiyatli, biznesda yaxshigina mavqega ega bo'lgan, uzoqni o'ylab ish yuritadigan tadbirkorlar shug'ullanishadi.

Tadbirkorlikning tijorat turi bilan shug'ullanuvchilar tovarlarni sotib olishadi, so'ng esa boshqalarga sotishadi. Albatta, bu holda tovarning sotilish narxi, uning xarid narxidan yuqori bo'ladi. Narxlar o'rtasidagi farq tadbirkorlik foydasi sifatida tadbirkor tomonidan o'zlashtiriladi.

Tijorat — tovarni muayyan narxda sotib olib, so'ng boshqaga o'z foydasini ko'zlab qimmatroq narxda sotishdan iborat tadbirkorlik faoliyati.



1.1- chizma



1.2- chizma

Tadbirkorlikning tijorat turi iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Tijoratchilar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi bog'lanishlarni osonlashtiradi, oldi-sotdi munosabatlarini tezlashtiradi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi, 1.1- chizmada tijoratchisiz, 1.2- chizmada esa tijoratchi yordamidagi bog'lanishlar sxemasi buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Chizmalarda ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar soni to'rttagina bo'lgan hol tasvirlangan. Endi ularning soni o'nta, yuzta yoki undan ham ko'p bo'lgan hollarni tasavvur qilib ko'ring-chi!

Moliyaviy tadbirkorlik tijoratga o'xshab ketadi. Faqat moliyaviy tadbirkorlikda tovar oldi-sotdisi o'rniga pul va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Pul mablag'lari qarzga beriladi. Chet el

valutalari, aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar sotib olinadi va sotiladi. Moliyaviy tadbirkorlikda qarz berilganda foiz (protsent) ko‘rinishida, qimmatbaho qog‘ozlar oldi-sotdi jarayonida esa ularning xarid va sotish narxlari orasidagi farq ko‘rinishidagi foyda o‘zlashtiriladi.

Moliyaviy tadbirkorlik — pul va qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyati.

Tadbirkorlikning sug‘urta turi hozirda keng tarqalgan. Bunday faoliyat bilan yuqori mavqega ega bo‘lgan tadbirkorlar shug‘ullanishadi. Chunki u katta boshlang‘ich mablag‘ni talab qiladi. Tadbirkor turli xil kutilmagan holatlarda ko‘riladigan zararni qoplashga ma’lum haq evaziga kafolat beradigan shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Hozirda qarz sug‘urtasi, mulk sug‘urtasi, hayot sug‘urtasi, tibbiyot sug‘urtasi kabi sug‘urta shakllari bor. Bunday sug‘urta turlarida muttasil to‘lab boriladigan sug‘urta badallari evaziga, biror falokat yuz berganda yetkazilgan zarar yoki yo‘qotishning o‘rni qoplanadi.

Sug‘urta — turli xil kutilmagan holatlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy muammolardan muhofaza qilish faoliyati.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Tadbirkorlik layoqati bor insonni tavsiflab bering.
3. Tadbirkorlar soni ko‘payib borayotganining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
4. Tadbirkorlik hamma vaqt ham foyda olib keladimi?
5. Tadbirkorlik faoliyati turlarini sanab bering.
6. Tijorat va moliyaviy tadbirkorlikning qanday o‘xshash va farqli tomonlari bor?
7. Sug‘urta nima va uning hayotimizdagi o‘rni qanday?
8. Tadbirkorlik faoliyatining qaysi turini jamiyatimiz uchun muhim deb hisoblaysiz?
9. Tadbirkorlik faoliyatidan davlat, tadbirkorning o‘zi va iste’molchilar qanday manfaat ko‘rishini sanab o‘ting.

Buni yodda tuting!

- Tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan bo‘lib, u tavakkalchilikni taqozo qiladi.

2- MAVZU FIRMA VA UNING TURLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlarda tasvirlangan tadbirkorlik faoliyatlaridan qaysilarini tashkil qilish qiyinroq? Nima sababdan?
2. Ularning qaysilarini bitta odam o‘zi tashkil qilishi va yuritishi unchalik qiyin emas?
3. Qaysilarini sherik bilan hamkorlikda tashkil qilgan ma’qul?
4. Rasmlardagi korxonalarni yuritish uchun qanday tashkiliy ishlarni amalga oshirish zarur, deb o‘ylaysiz?

Ma’lumki, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni *korxona*larda amalga oshiriladi. Davlat mulki asosida tashkil qilingan korxonalar — *davlat korxonalari*, xususiy mulk asosida tashkil qilingan korxonalar esa *xususiy korxonalar* deb yuritiladi. Shuningdek, davlat va xususiy mulkka asoslangan aralash turdagi korxonalar ham bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan korxona *firma* deb ataladi. Firma turli xil tovar va xizmatlarni foyda olish uchun ishlab chiqaradi. Firmalar, ko‘pincha, xususiy mulk asosida tashkil qilinadi. Firmalar qanday mulk asosida tashkil qilinishi, kim tomonidan qanday boshqarilishi, firma foydasi qanday taqsimlanishi va firma faoliyatining natijasiga kim va qanday javob berishiga qarab turli shakllarda bo‘ladi.

*Xususiy firma*ning mulkdori yakka shaxs bo‘lib, firma uning mulki va mablag‘i asosida tashkil qilinadi va bevosita shu mulkdor tomonidan boshqariladi. Firma faoliyatidan olingan foyda ham, zarar ham faqat firma egasiga taalluqli. Firma egasi firma faoliyatining natijasiga to‘la javobgar bo‘ladi.

Korxona – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladigan xo‘jalik tashkiloti.

Firma – tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan korxona.

Xususiy firma – yakka shaxs mulki asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan firma.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973 – 1048)

Buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning ko‘p sonli asarlarida uning iqtisodiy qarashlari o‘z aksini topgan. U iqtisodiy faoliyat — mehnat, bunyodkorlik, yaratuvchanlik asosida odamning ehtiyojini qondirishga bo‘lgan intilishi yotadi, deb hisoblagan. U o‘zining asarlarida jismoniy mehnat bilan bir paytda aqliy mehnat ham muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha ish haqi mehnatning og‘irligiga va unumdorligiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Olimning asarlaridan mehnat taqsimotiga oid fikrlar ham joy olgan. Olim o‘sha davrdayoq iqtisodiyot sohasidagi inson omilining ahamiyati haqida qimmatli fikrlarni bildirgan.

Ikki va undan ortiq kishilar mulki asosida, birgalikda faoliyat ko‘rsatish maqsadida tashkil qilingan firma — *shirkat* deb ataladi. Shirkat uning a’zolari manfaatlariga xizmat qiladi. Shirkatda uni ta’sis etgan a’zolarning ishlashlari shart bo‘lib, umumiy faoliyat natijasi — foyda ular orasida o‘zaro kelishuvga ko‘ra taqsimlanadi. Shu bilan birga, shirkat a’zolari shirkat majburiyatlariga to‘liq javobgar bo‘ladilar. Bu, agar shirkat ishi yurishmay, qarzga botib *sinsa*, qarzni shirkat a’zolari uni tashkil qilish

uchun qo‘shgan mol-mulki va mablag‘i evaziga, u ham yetmasa, o‘z shaxsiy mulki evaziga qoplashga majbur deganidir. Shirkatga qishloq xo‘jaligidagi *fermer xo‘jaliklari*ni misol qilib keltirish mumkin.

Shirkat – birgalikda faoliyat ko‘rsatish maqsadida ikki va undan ortiq kishilarning mulki asosida tashkil qilingan va faoliyat natijasiga birgalikda to‘la javob beriladigan firma.

Ma’lumki, kattaroq miqyosdagi tadbirkorlikni tashkil qilish katta boshlang‘ich mablag‘ni talab qiladi. Buning uchun bir necha shaxslar yoki korxonalarning sherikchilikda ish ko‘rib, mol-mulklarini birlashtirishlariga to‘g‘ri keladi. Shu maqsadda *sherikchilik firmalari* tashkil qilinadi. Sherikchilik asosida tuzilgan firmaning tashkilotchilari uning *ta’sischilari* deb ataladi. Ta’sischilar firmaning boshlang‘ich kapitaliga — *nizom jamg‘armasiga* o‘z pul mablag‘i va mol-mulki bilan hissa qo‘shadilar. Ta’sischilar firmaning egalari hisoblanib, firmaning kundalik faoliyatida va uni boshqarishda bevosita qatnashmasliklari ham mumkin. Bunday faoliyat natijasidan olinadigan foyda ham, ko‘riladigan zarar ham ta’sischilar o‘rtasida *ta’sis shartnomasi*da ko‘zda tutilgan, ma’lum kelishilgan qoidaga ko‘ra taqsimlanadi.

Sherikchilik asosida tuzilgan firmalar faoliyatidan ko‘rilgan zarar ta’sischilar tomonidan qanday qoplanishiga qarab turli xil nomlar bilan yuritiladi. Bunday firmalarning eng ko‘p tarqalgan turi – bu mas’uliyati cheklangan jamiyat ko‘rinishidagi sherikchilik firmasidir. Agar ta’sischilar ko‘rilgan zararni faqat firmani tashkil qilishda qo‘shgan hissalari hajmidagina qoplasalar, bunday firma – *mas’uliyati cheklangan jamiyat* deb ataladi. “Ltd” qo‘shimchasi, inglizcha “limited” (cheklangan) so‘zining qisqartmasi bo‘lib, odatda, mas’uliyati cheklangan *jamiyat* nomiga qo‘shib yuritiladi. *Mas’uliyati cheklanmagan jamiyat*ning ta’sischilari esa ko‘rilgan zararni to‘la hajmda birgalashib qoplashadi. Hatto zarurat tug‘ilganida, o‘z shaxsiy mulklarini sotib bo‘lsa-da, firma zararini qoplaydilar.

Sherikchilik firmasi – ikki va undan ortiq shaxslarning (odam yoki korxonalarning) mablag‘lari asosida tashkil qilingan va ma’lum kelishuv shartlari asosida egalik qilinadigan, boshqariladigan va faoliyat natijasiga javob beriladigan firma.

Firmaning nizom jamg‘armasi — firma faoliyatini yuritish uchun uning tashkilotchilari tomonidan qo‘shiladigan hissa — mol-mulk va mablag‘.

Tadbirkorlik faoliyati bilan firma ochmasdan turib ham shug‘ullanish mumkin. Buning uchun “*Yakka tartibdagi xususiy tadbirkor*” degan maqomni olish va belgilangan tartibda soliqlarni to‘lab turish kifoya.

Mamlakat iqtisodiyotida boshqa turdagi firmalar ham bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib firma turlari takomillashib, iqtisodiyotga moslashib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra mamlakatimizda 2019- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 323 mingtani tashkil qiladi. Ulardan 72,4 mingtasi xususiy korxonalar, 15,5 mingtasi oilaviy korxonalar, 170,2 mingtasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va 64,9 mingtasi boshqa korxona va tashkilotlardir.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Firmalar qaysi xususiyatlariga qarab turlarga bo‘linadi?
2. Firmaning har bir turiga yashayotgan hududingizdan misol keltiring.
3. Har bir firma turining afzallik va kamchilik tomonlarini sanang.
4. Shirkat va sherikchilik firmasining qanday o‘xshashlik va farqli tomonlari bor?
5. Davlat korxonalari va xususiy firmalar nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
6. Mas’uliyati cheklangan va cheklanmagan firmalar o‘rtasidagi farqni ayting.

Topshiriq

Firma haqida savollar	Xususiy firma	Shirkat	Sherikchilik firmasi
a) kim egalik qiladi?			
b) mulki qanday shakllanadi?			
d) qanday boshqariladi?			
e) foyda qanday taqsimlanadi?			
f) faoliyat natijasiga javobgarlik mas’uliyati qanday?			

1. Jadvalni daftaringizga ko‘chiring va uning birinchi ustunidagi savollarga javoblar asosida jadvalning bo‘sh kataklarini to‘ldiring.
2. a) do‘kon; b) kichik novvoyxona; d) katta qandolat sexi; e) katta un zavodini ochmoqchi bo‘lsangiz, firmaning qaysi turini tanlagan bo‘lar edingiz?

3- MAVZU AKSIYADORLIK JAMIYATI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1- rasmda aksiyalar tasvirlangan. Ular qanday qog‘ozlar? Bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.
2. 2- rasmdagi fond indekslari haqida televideniye orqali berilgan ma’lumotlarni eslay olasizmi? Ularning qaysi birini bilasiz va u haqida nimalarni ayta olasiz?
3. 3- rasmdagi zavod, 4- rasmdagi bank kabi yirik kompaniyalar faoliyatini tashkil qilish va boshqarishda tadbirkorlar qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin deb o‘ylaysiz?

Mas’uliyati cheklangan firmalar yirik korxonalar miqyosida — *aksiyadorlik jamiyati* ko‘rinishida tashkil qilinadi. Aksiyadorlik jamiyati boshlang‘ich nizom jamg‘armasi hajmiga teng miqdorda o‘z *aksiya*larini chiqaradi va sotadi. Bu aksiyani sotib olgan har bir kishi jamiyatning *aksiyador*iga aylanadi. Jamiyat aksiyadorga har yilgi foydasidan sotib olgan aksiyasiga mos ravishda haq — *dividend* to‘laydi. Aksiyadorlik jamiyatini chet ellarda *aksiyadorlik kompaniyasi* yoki *korporatsiyalar* deb ham atashadi. Agar aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari istalgan shaxsga sotilsa, bunday jamiyat *ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati* deb, agar faqat oldindan belgilab qo‘yilgan shaxslar guruhiga (masalan, jamiyatning

ta'sischilari yoki xodimlariga) sotilsa, u *yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati* deb ataladi.

Birinchi aksiyadorlik jamiyati XVI asrda Niderlandiyada tashkil qilingan "Ost-Ind" kompaniyasi bo'lib, u Hindiston bilan Yevropa o'rtasida savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Aksiyador sotib olgan aksiyalari soniga qarab, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ovoz berish yo'li bilan qatnashishi mumkin. U qancha aksiya sotib olgan bo'lsa, aksiyadorlik jamiyati umumiy majlisida shuncha ovozga ega bo'lib, u yoki bu qarorni qabul qilishda, jamiyat rahbarlarini saylashda o'z ovozi bilan ta'sir etishi mumkin. Shu sabab, aksiyadorda aksiya qancha ko'p bo'lsa, u korxonani boshqarish masalalariga shuncha ko'proq ta'sir o'tkaza oladi. Agar aksiyador aksiyalarning yarmidan ko'pini, ya'ni aksiyalar *nazorat paketi*ni qo'lga kiritsa, u korxonaning yakka xo'jayiniga aylanadi. Chunki, aksiyadorlar umumiy majlisida har qanday qarorning qabul qilinishida uning fikri — ovozi hal qiluvchi bo'lib qoladi.

Aksiyadorlik jamiyati — nizom jamg'armasi aksiyalarini sotish yo'li bilan shakllanadigan, mas'uliyati cheklangan yirik firma.

Aksiya — firma nizom jamg'armasiga hissa qo'shilganini tasdiqlovchi va egasiga firma foydasidan ma'lum daromad olish huquqini beruvchi hujjat — qimmatbaho qog'oz.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati — aksiyalari istalgan shaxsga sotiladigan jamiyat.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati — aksiyalari faqat oldindan belgilab qo'yilgan shaxslar guruhiga sotiladigan jamiyat.

Aksiyalar ikki xil — oddiy va imtiyozli bo'ladi. *Oddiy aksiyalar* ulardan keladigan daromad — dividendni kafolatlamaydi. Lekin aksiyadorlik jamiyati umumiy majlisida ovoz berish huquqini, ya'ni boshqaruvda qatnashish huquqini beradi. *Imtiyozli aksiyalar* esa ulardan keladigan har yilgi dividendni aksiya narxining ma'lum foizi miqdorida kafolatlaydi. Imtiyozli aksiya egasi aksiyadorlar jamiyatini boshqarishda qatnasha olmaydi, chunki u aksiyadorlar umumiy majlisida ovozga ega bo'lmaydi. Aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog'liq muhim masalalarni aksiyadorlarning umumiy majlisida saylanadigan *direktorlar kengashi* hal qiladi. Jamiyatni boshqarish esa yollangan *menejerlar* tomonidan amalga oshiriladi.

Aksiya — qimmatli qog'oz bo'lib, uning ustiga bahosi — *nominal qiymati* yozib qo'yilgan bo'ladi. Aksiyani aksiyador boshqa kishiga

sotishi yoki hadya qilishi mumkin. Odatda, aksiyalar *fond birja*larida sotiladi va sotib olinadi. Aksiyadan uning egasiga kelayotgan daromad — dividendning ko‘p yoki kamligiga qarab, aksiyaning fond birjasidagi bozor narxi — *aksiyaning kursi* o‘zgarib turadi. Masalan, aksiyaning nominal qiymati 10 000 so‘m bo‘lgani holda, aksiya 12 000 so‘mga yoki 9 000 so‘mga sotilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyaning kursi ko‘tarilganligi yoki pasayganligi haqida gapiriladi. Aksiya kursining o‘zgarishi uning bozor narxi nominal qiymatiga nisbatan foiz miqdori bilan aniqlanadi. Yuqoridagi misolda birinchi holatda aksiya kursi 120% ni, ikkinchi holatda esa 90% ni tashkil qilganini ko‘rish mumkin.

Aksiyaning nominal qiymati — aksiya ustiga yozib qo‘yilgan baho.
Aksiya kursi — aksiyaning bozordagi narxi.
Dividend — aksiya egasining firma foydasidan oladigan ulushi.

Mashq

Abdullayev aksiyadorlik jamiyatining 16 ta oddiy aksiyasi sohibi. Yil yakuniga ko‘ra, jamiyat 20 000 000 so‘m foyda ko‘rdi va uning yarmini dividend sifatida taqsimlamoqchi. Agar jamiyatning jami 2000 dona oddiy aksiya sotgani ma’lum bo‘lsa, Abdullayev aksiyalaridan qancha dividend oladi?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Aksiyadorlik jamiyatini tavsiflab bering.
2. Ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining bir-biridan farqi nimada?
3. Oddiy va imtiyozli aksiyalarning qanday afzallik va kamchilik tomonlari bor?
4. Aksiyadorlik jamiyatining mas’uliyati cheklangan sherikchilik firmasidan qanday afzalliklari va kamchiliklari bor?
5. Hududingizdagi qanday aksiyadorlik jamiyatlarini bilasiz?
6. Aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini davlat yoki chet el firmalari sotib olishi mumkinmi?
7. Aksiyador jamiyatni boshqarishga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
8. Aksiyadorlik jamiyatining katta foyda ko‘rishidan kim ko‘proq manfaatdor: oddiy aksiya egasimi yoki imtiyozli aksiya egasimi?
9. Aksiyadorlik jamiyatining sinishidan kim ko‘proq zarar ko‘radi: oddiy aksiya egasimi yoki imtiyozli aksiya egasimi?

Topshiriq

“Ziyo” aksiyadorlik jamiyati

Nizom jamg‘armasi	– 40 000 000 000 so‘m.
Aksiyalar turi	– oddiy.
Aksiyalar nominal qiymati	– 10 000 so‘m.
Aksiyalar soni	– 4 000 000 dona.
Aksiyadorlari:	
– Dilorom	– 10 % aksiya egasi;
– Dilshod	– 20 % aksiya egasi;
– Botir	– 35 % aksiya egasi;
– boshqalar (20 kishi)	– 35 % aksiya egasi.
Bir yillik sof foyda	– 5 000 000 000 so‘m.

“Ziyo” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari yillik sof foydani taqsimlash masalasini muhokama qilishmoqda. Diloromning fikricha, foydaning hammasini dividend sifatida taqsimlash kerak. Dilshod ham shu fikrda. Botirning fikricha, foydaning yarmini ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirib, yarmini esa aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash kerak.

1. Sizningcha, kimning fikri muhimroq deb o‘ylaysiz? Nega?
2. Foydaning hammasi taqsimlansa, jamiyat asosiy aksiyadorlarining har biri qanchadan dividend oladi?
3. Har bir aksiya qanchadan dividend ko‘rinishdagi daromadni olib keladi?
4. Bu korxona aksiyalarining bozor narxi haqida nima deya olasiz?

Buni yodda tuting!

- Aksiyadorlik jamiyati — nizom jamg‘armasi aksiyalar sotishdan shakllanadigan, mas’uliyati cheklangan yirik firma bo‘lib, u ochiq yoki yopiq turda tashkil qilinadi.
- Aksiyadorlik jamiyati aksiya egasi — aksiyadorga o‘z foydasidan dividend to‘laydi.
- Aksiyalar fond birjasida erkin sotilishi mumkin.
- Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend foyda ko‘rilgan holdagina to‘lanadi.
- Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha muayyan miqdordagi dividend kafolatlanadi.

MUSTAQIL FAOLIYAT | FOND BOZORI INDEKSLARI

Fond bozori (ingl. *“stock market”*) – bu moliya bozorining qimmatli qog‘ozlar sotiladigan turi bo‘lib, bunday qimmatli qog‘ozlarning eng ko‘p tarqalgani aksiyalardir.

Fond bozorining eng muhim institutlari – fond birjalaridir.

Ommaviy axborot vositalaridan “Nyu-York fond birjasida indekslar keskin ko‘tarildi”, yoki aksincha, *“tushdi”* degan xabarlarni eshitganmiz. Bunda ko‘pincha Dou-Jons, Nikkey, Daks, Xang Seng kabi indekslar nomlari tilga olinadi. Bu indekslar nimani ifodalaydi?

Birinchi indeksni amerikalik Edvard Jons va Charlz Dou o‘ylab topishgan. Ular Nyu-York fond birjasida AQSHning eng yirik 12 ta korxonasi aksiyalari narxlarining o‘rta arifmetik qiymatidan indeks hisoblab chiqarishgan va buni Dou Jons (Dow Jones) indeksi deb atashgan. O‘shandan buyon bu indeksni hisoblash tartibi ancha o‘zgardi, mukammallashdi. Hozir bu indeksga kiradigan korxonalar soni 30 taga yetdi. Bu indeksga eng mashhur Coca-Cola, IBM, Intel, General Motors kabi kompaniyalar kiradi.

Iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish uchun birja indeksi ko‘rsatkichining o‘zi muhim emas, balki bu ko‘rsatkichning o‘zgarishi muhimdir.

Masalan, birja indeksi o‘sayotgan bo‘lsa, demak, bu indeksga taalluqli korxonalar aksiyalari qimmatlashayotgan, ya’ni iqtisodiyotning shu sohasida o‘sish ro‘y berayotgan bo‘ladi. Agar, aksincha, indeks pasaysa, ushbu sohada ham pasayish yuz berayotgan bo‘ladi. Shunday indekslar borki, ular nafaqat iqtisodiyotning muayyan sohasini, balki butun mamlakat iqtisodiyotining ahvolini aks ettirib turadi. Masalan, S&P 500 indeksiga AQSHning eng yirik 500 ta kompaniyalari kiradi va ular iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olgan. Demak, bu indeksning o‘zgarishi butun AQSH iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Internetdan: 1. Muayyan kompaniya aksiyalarining joriy qiymatini va uning kunlik o‘zgarishini aniqlang.

2. Yuqorida nomlari aytilgan indekslarning joriy qiymatini va bir kunlik o‘zgarishini aniqlang.

3. Toshkent Respublika fond birjasida muayyan korxona aksiyasining joriy qiymatini va uning kunlik o‘zgarishini aniqlang.

4- MAVZU FIRMA TASHKIL QILISH

Yakka tartibdagi tadbirkorlik

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Aksiyadorlik jamiyati

Xususiy firma

Shirkat

Mas'uliyati cheklanmagan jamiyat

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. "Firma mavjudligi va faoliyat yuritayotganligi, albatta, qandaydir hujjatlarda aks etib turishi shart" degan fikrga o'z munosabatingizni bildiring.
2. Aks holda qanday salbiy oqibatlar yuz berishi mumkin?
3. Sizningcha, yuqoridagi firmalarning qaysi birini tashkil qilish, hujjatlarini rasmiylashtirish qiyinroq? Qaysilariniki, aksincha, nisbatan osonroq?

Firma ochish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Eng avvalo, firmaning nizomi va ta'sis shartnomasini tayyorlash zarur. Firma nizomida firmaning nomi, manzili, firma ochishdan ko'zlangan maqsad, firmaning qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanishi, firma kimlar — qaysi ta'sischilar tomonidan tashkil qilinayotgani, firmaning

tashkiliy shakli, firma faoliyatini yuritish uchun dastlab qancha miqdorda boshlang‘ich mablag‘ — nizom jamg‘armasi safarbar qilinayotgani, firma ta’sischilarining nizom jamg‘armasiga qo‘shgan hissasi, firma mol-mulklarining tarkibi va uni hosil qilish tartiblari kabi ma’lumotlar o‘z aksini topishi zarur. Firmaning nizomida ko‘zda tutilgan har bir band tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha amaldagi qonunlarga zid bo‘lmasligi lozim. Firma nizomi, odatda, tadbirkorlikning shu firmaga xos yo‘l-yo‘riq va qonun-qoidalari majmuidan iborat bo‘lib, kelajakda firma unga rioya qilgan holda faoliyat yuritishi shart bo‘ladi.

Firma nizomi — firmaning ichki va tashqi faoliyatini tartibga soluvchi, huquqiy kuchga ega bo‘lgan me’yoriy hujjat.

Ta’sis shartnomasi firma ta’sischilari ikki yoki undan ortiq shaxsdan iborat bo‘lganda tuziladi. Firmaning ta’sis shartnomasida firmani tashkil qilish, faoliyat yurgizish, firmani boshqarish tamoyili va mexanizmlari, nizom jamg‘armasining tarkibi va unga qo‘shiladigan ulushlar, firma foydasini ta’sischilar o‘rtasida taqsimlash qoidalari, firmaning ichki boshqaruv tuzilmalari, firma maqomini o‘zgartirish va uni tugatish bilan bog‘liq yo‘l-yo‘riqlar va o‘zaro kelishuvlar o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak.

Firmaning ta’sis shartnomasi – firma ta’sischilari o‘rtasida o‘zaro faoliyat yuritish bo‘yicha tuziladigan kelishuv hujjati.

Firmaning o‘z nomi, muhri belgilari bo‘lib, ular firmani davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi va firmaga iqtisodiy faoliyat qatnashchisi sifatida *yuridik shaxs* maqomi beriladi. Firma nomi tushirilgan dumaloq va burchakli muhrlari, ish qog‘ozlarini tayyorlatib, to‘la ma’noda o‘z faoliyatini amalga oshirishga kirishadi. Firmaning pul bilan bog‘liq barcha ishlari bank orqali amalga oshiriladi. Prezident farmoniga muvofiq, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha “yagona darcha” markazlari 2018- yil 1- yanvardan boshlab Davlat xizmatlari markazlariga aylantirildi.

Firmalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha xizmatlar ham mana shu markaz orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi.

2017- yil 1- apreldan boshlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali tadbirkorlik subyektlarini onlayn tarzda ro‘yxatga olish

xizmati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu xizmat vositasida tadbirkorlarni ro‘yxatga olish vaqti 30 minut deb belgilandi.

Firmaning nomi, tamg‘asi yoki tovar belgisi uning *taniqlilik belgilari* hisoblanadi. Ularni tanlashda firmaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Firmaning tamg‘asi yoki tovar belgisi uning mahsulotlari boshqa firma mahsulotlaridan ajralib turishi uchun xizmat qiladi. Firmaning tovar belgisi iste’molchilar uchun ham qulaylik yaratadi. Ular peshtaxtalardan, reklama va e’lonlardan u yoki bu firmaning mahsulotlarini tovar belgilariga qarab tezda ajratib olishadi. Shuningdek, firma o‘z nomi, tovar belgisini ham belgilangan tartibda tegishli tashkilotlarda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim. Chunki boshqa mavjud firmalarning nomini qo‘yish, tovar belgilaridan foydalanish dunyo bo‘yicha taqiqlangan.

Firma ochmoqchi bo‘lgan shaxs Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy saytiga kirib o‘zi tanlagan firma nomini zaxiralashtirishi mumkin.

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan. Xususan, Konstitutsiyamizning 53- moddasida “Davlat iste’molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi” deb ta’kidlangan.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlarga yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadida mamlaktimizda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda bu borada qator qonunlar, Prezidentimizning o‘nlab farmon va qarorlari qabul qilindi. Bular ham tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bilasizmi?

Respublikamizda ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, qariyb 323.5 mingtani tashkil qildi. Bu o‘tgan yilga nisbatan 38 mingtaga (13.3 % ga) ko‘pdir. Shuningdek, mamlakatimizdagi chet el kapitali qatnashuvi bilan tashkil qilingan korxonalar soni bir yilda 39,3% ga ko‘paygan va 7,8 mingtani tashkil qilgan. Bunda eng ko‘p korxonalar Rossiya, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va Qozog‘iston mamlakatlari kapitali qatnashuvida tashkil qilingan.

Topshiriq

FIRMA OCHAMIZ

1. Biror yangi biznes g‘oya o‘ylab toping. U asosida firma shakllaridan birini tanlab, yakka o‘zingiz yoki o‘rtoqlaringiz bilan birgalikda shartli firma tashkil qiling.
2. Firmaga mos nom qo‘ying.
3. Firma nizomini tuzing. Nizomda firmani ochishdan ko‘zlangan maqsad, tashkiliy-huquqiy shakli, ta’sischilari nima bilan shug‘ullanishi, nizom jamg‘armasi miqdori, joylashgan manzil kabi ma’lumotlarni keltiring.
4. Firma tashkilotchilari o‘rtasida ta’sis shartnomasi tuzing va imzolang. Buning uchun, avval kim nima bilan shug‘ullanishi, firmani kim boshqarishi, nizom jamg‘armasining miqdori va unga kim qancha ulush qo‘shishi, foyda qanday taqsimlanishi kabi masalalarni o‘zaro muhokama qiling va shartnomada ko‘rsating.
5. Firmaning tovar belgisini chizing va sharhlang.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Firma ochish tartibini tushuntirib bering.
2. Firma nizomi nima uchun kerak va nizomda nimalar aks ettiriladi?
3. Firma nizomida ko‘rsatilmagan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkinmi?
4. Firmaning ta’sis shartnomasi nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Firma qayerda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi?
6. Firmaga tovar belgisi nima uchun kerak?
7. Nima sababdan firmalarga bir-birining taniqlilik belgilaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi?

Buni yodda tuting!

- Firma ochish uning turi va nomini tanlashdan boshlanadi.
- Firma nizomida uning faoliyat turi, firma ochishdan maqsad, uning manzili, ta’sischilari va nizom jamg‘armasi haqida ma’lumotlar keltiriladi.
- Ta’sis shartnomasi ta’sischilarning munosabatlarini aniqlashtiradi.
- Taniqlilik belgilari firmaning nomi va uning tovar belgisi kabilardir.

5- MAVZU FIRMA MABLAG‘LARI VA XARAJATLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuqoridagi rasmda firma mablag‘larining aylanishi tasvirlangan. Uni diqqat bilan ko‘zdan kechiring va sharhlang.
2. Firmaning mablag‘lari aylanish bosqichlarining har birida qanday ko‘rinishda bo‘lishini tahlil qiling va o‘z fikringizni bildiring.

Ma’lumki, har qanday firma uchun iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda mablag‘ kerak bo‘ladi. Odatda, firmaning mablag‘i firma egalarining pul mablag‘laridan tarkib topadi.

Firma mablag‘lari ishlatilishiga, nimalar sotib olinishiga qarab ikki turga bo‘linadi. Bino va inshootlar, asbob va uskunalar sotib olishga sarflangan mablag‘lar *asosiy mablag‘lar* (asosiy kapital) deb yuritiladi. Asosiy mablag‘ — ishlab chiqarishda uzoq yil va ko‘p marta ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga mo‘ljallangan mablag‘. Masalan, fermerning traktor, kombayn sotib olish uchun yoki dala shiyponi qurish uchun ajratgan mablag‘lari asosiy mablag‘larga misol bo‘la oladi.

Xom ashyo, yoqilg‘i, energiya, har xil materiallar sotib olishga va ishchi kuchini yollashga sarflanadigan mablag‘lar *aylanma mablag‘lar* (aylanma kapital) deb yuritiladi. Aylanma mablag‘ ishlab chiqarishda ishlatiladigan resurslar sotib olish uchun mo‘ljallangan mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Firma aylanma mablag‘iga resurslar bozoridan xom ashyo, turli xil materiallar sotib oladi va ishchi kuchini yollaydi. Bu bilan firmaning aylanma mablag‘i pul ko‘rinishidagi shakldan moddiy

ko‘rinishdagi shaklga o‘tadi. Bu resurslardan firmada tovarlar ishlab chiqariladi. Ular sotilgach, yana pul shaklidagi mablag‘ga aylanib, firmaga qaytib keladi.

Shu tariqa firmaning aylanma mablag‘lari iqtisodiy faoliyat natijasida aylanib turadi. Shu xususiyati bois, bu mablag‘lar *aylanma mablag‘lar* deb ataladi. Firmaning aylanma mablag‘lariga misol qilib fermerning urug‘, mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i va moylovchi mahsulotlarni keltirish mumkin.

Asosiy mablag‘ — ishlab chiqarishda uzoq yil va ko‘p marta ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga mo‘ljallangan mablag‘.

Aylanma mablag‘ — xom ashyo, har xil materiallarni sotib olishga va ishchi kuchini yollashga sarflanadigan mablag‘lar.

Asosiy mablag‘lar ham “aylanadi”. Ularning aylanish davri asosiy ishlab chiqarish vositalarining qancha vaqt ishlatilishiga, xizmat ko‘rsatish muddatiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, bino va inshootlarning ishlatilish muddati 20 yil, asbob-uskunalarniki esa 5—7 yil qilib belgilanadi. Bu muddat davomida ular eskirib, har yili boshlang‘ich narxining ma’lum bir qismi yaratilgan mahsulot narxiga o‘tib, arzonlashib boradi. Mana shu arzonlashish qiymati *amortizatsiya qiymati* deb ataladi. Mana shu arzonlashish qiymati mahsulot sotilgach, firmaga pul kirimi tarkibida qaytadi va firmadagi maxsus jamg‘armaga – *amortizatsiya jamg‘armasiga* yo‘naltiriladi. Firmaning umumiy pul kirimidan amortizatsiya jamg‘armasiga yo‘naltirilgan pul *amortizatsiya ajratmasi* deb ataladi. Odatda, yillik amortizatsiya ajratmasi bino yoki dastgohlar narxining ularni ishlatilish muddatiga bo‘lib topiladi.

$$A = \frac{p}{n}$$

A – yillik amortizatsiya ajratmasi;
p – asosiy ishlab chiqarish vositasi narxi;
n – foydalanish muddati.

Amortizatsiya ajratmasi — asosiy ishlab chiqarish vositalarining eskirishi natijasida ular narxining ishlab chiqarilgan mahsulot narxiga o‘tgan qismi.

Masalan, korxona binosining narxi 160 mln so‘m bo‘lib, undan foydalanish muddati 20 yil qilib belgilangan. Demak, har yili bino narxi 160 mln : 20 = 8 mln so‘mga arzonlashib, bu pul mahsulot narxiga o‘tadi va mahsulot sotilgach, amortizatsiya jamg‘armasida jamlab boriladi.

Firma faoliyati uchun pul mablag‘larini jalb etish *biznesni moliyalashtirish* deb ham ataladi. Firmaning *ichki va tashqi moliyaviy mablag‘ manbalari* bo‘ladi. Ichki moliyaviy mablag‘ manbalari:

1. **Firmaning sof foydasi.** Firma foydasining barcha soliq va to‘lovlar to‘langanidan so‘ng qolgan qismi firmaning *sof foydasi* deb ataladi. Firmaning sof foydasi, odatda, uning ta’sischilari o‘rtasida taqsimlanadi. Lekin firma ta’sischilari sof foydaning hammasini o‘zaro taqsimlamasdan, uning ma’lum qismini firmaning keyingi faoliyatini pul mablag‘lari bilan ta’minlashga sarflashi mumkin.

2. **Amortizatsiya jamg‘armasi.** Bu jamg‘arma mablag‘lari faqat asosiy vositalar sotib olishga sarflanadi.

3. **Nizom jamg‘armasi.** U firma faoliyatining boshlang‘ich davrida ishlatiladi.

Firmaning ichki mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda, tashqi moliyaviy mablag‘larni topish kerak bo‘ladi. Tashqi manbalarga quyidagilar kiradi:

1. **Firma egalarining firmaning ustav kapitalini ko‘paytirish uchun ajratgan qo‘shimcha mablag‘lari.**

2. **Bankdan yoki boshqa firmalardan olingan qarz mablag‘lari.**

3. **Firmaning qimmatli qog‘ozlar chiqarib sotishdan tushgan pul tushumlari.**

Tashqi moliyaviy manbalar ichki manbalardan shunisi bilan farqlanadiki, ularni, albatta, qaytarish kerak bo‘ladi.

Firmaning ma’lum davr ichida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflagan xarajatlari *umumiy xarajatlar* deb yuritiladi va *TC* — inglizcha “total costs” (umumiy xarajat) so‘zlarining bosh harflari bilan belgilanadi. O‘z navbatida, umumiy xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarga *doimiy xarajatlar* (inglizcha — fixed costs) deyiladi va *FC* harflari bilan belgilanadi. Doimiy xarajatlarga ijara haqi, qarz foizi, sug‘urta haqi, amortizatsiya ajratmasi, ma’muriy xarajatlar kabi xarajatlar kiradi. Bu turdagi xarajatlarni, mahsulot ko‘p yoki kam miqdorda ishlab chiqarilishidan qat’i nazar, hatto mahsulot ishlab chiqarilmagan taqdirda ham firma qoplashi zarur bo‘ladi.

O‘zgaruvchan xarajatlarga (inglizcha — variable costs) mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiritiladi va *VC* harflari bilan belgilanadi. Bu turdagi xarajatlarga xom ashyo, ish haqi, yoqilg‘i, energiya manbalari, turli xil materiallarni sotib olish xarajatlari kiradi. Qancha ko‘p mahsulot ishlab chiqarilsa, bu xarajatlar miqdori ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi umumiy xarajatlardan iborat bo‘ladi.

Umumiy xarajat: $TC = FC + VC$ *TC* — umumiy xarajat; *FC* — doimiy xarajat; *VC* — o‘zgaruvchan xarajat.

Ko‘pchilik hollarda, ishlab chiqaruvchini, tadbirkorni ma’lum vaqt davomida ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy miqdori emas, balki bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan *o‘rtacha xarajat* (inglizcha — average cost) qiziqtiradi va u *AC* harflari bilan belgilanadi. Bu miqdorni ba’zida *mahsulotning tannarxi* deb ham atashadi.

O‘rtacha xarajat miqdori umumiy xarajat miqdorini jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo‘lib topiladi:

O‘rtacha xarajat: $AC = TC : q$ *AC* — o‘rtacha xarajat; *q* — mahsulot miqdori.

Masalan, firma bir oy davomida 5000 dona mahsulot ishlab chiqarish uchun 350 000 000 so‘m miqdorida umumiy xarajat qilishni rejalashtirgan bo‘lsin. Unda bir dona mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan o‘rtacha umumiy xarajat 70 000 so‘mni tashkil qiladi.(AC = TC : q = 350 000 000 so‘m : 5000 dona = 70 000 so‘m) Bu ko‘rsatkich tadbirkorga, mazkur holatda mahsulotini 70 000 so‘mdan kam bo‘lmagan narxda sotgan taqdirdagina foyda olib kelishi mumkinligini ko‘rsatib turadi. Ya’ni mahsulotning shartli, *ishlab chiqarish narxi* 70 000 so‘mga muayyan foyda qo‘shilgandan hosil bo‘lgan miqdorga teng bo‘ladi.

Ba’zi hollarda birlik mahsulotga sarflangan o‘rtacha xarajatni, ko‘proq miqdorda mahsulot ishlab chiqarish hisobiga kamaytirishning imkoni topiladi. Lekin mahsulot ishlab chiqarish hajmi ma’lum miqdordan oshgandan so‘ng, har qancha ko‘p ishlab chiqarilmasin, o‘rtacha xarajat pasayish o‘rniga yana orta boradi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining xuddi shu miqdori firma uchun eng ma’qul ko‘rsatkich hisoblanadi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Firmaning asosiy va aylanma mablag‘larini ta’riflang.
2. Firmaning ichki va tashqi moliyalashtirish manbalarini sanang.
3. Amortizatsiya ajratmasi nima?
4. Xarajat qanday xususiyatiga ko‘ra doimiy yoki o‘zgaruvchan deb ataladi?
5. Novvoyxonaning qanday o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlari bor?
6. O‘rtacha xarajat qanday hisoblanadi?
7. Masala: Korxona 400 000 000 so‘m umumiy xarajat qilgan. Uning 38%i o‘zgaruvchan xarajatlardir. Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarini toping.

Buni yodda tuting!

- Firmaning asosiy va aylanma mablag‘lari mavjud.
- Firma mablag‘larining ichki va tashqi manbalari bor.
- Firma asosiy vositalarni yangilash va asosiy mablag‘larni to‘ldirish uchun firma amortizatsiya jamg‘armasini tashkil qiladi.

6- MAVZU YALPI DAROMAD, FOYDA VA ZARAR



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Anvar aka va Jamila opa shug‘ullanish uchun tadbirkorlik turini tanlash maqsadida tadbirkorlik shoxobchalarining faoliyat natijalarini o‘rganib chiqdilar va ularni o‘zaro taqqoslamoqdalar.

Anvar aka: “Fotostudiya kamroq daromad keltiribdi, lekin olgan foydasi ancha yaxshi, qandolatchilik sexining daromadi ancha ko‘p, lekin shunga yarasha xarajatlari ham ko‘p ekan” dedi. Jamila opa esa: “To‘y liboslari salonining xarajatlari ko‘p, lekin daromadi ham shunga yarasha ko‘p bo‘lar ekan. Go‘zallik salonining xarajati kam, lekin foydasi ancha yaxshi” deb muhokamaga qo‘shildi.

1. Siz ularning suhbatidan nimani tushundingiz? Daromadi ko‘p, lekin xarajati ham katta tadbirkorlik turi yaxshimi yoki xarajati kam, lekin daromadi ham kichikroq tadbirkorlik turimi?
2. Nima uchun ular ayrim tadbirkorlik turlarini daromadliroq, ayrimlarini esa foydaliroq deb ta’kidlamoqdalar?
3. Ayrim tadbirkorlik turlari haqida odamlar “egasiga zarar keltirdi” deb ta’kidlashlari nimani anglatishini bilasizmi?
4. O‘zingiz yashaydigan joyning sharoitidan kelib chiqib, Anvar aka va Jamila opaga qanday maslahat bergan bo‘lar edingiz?

Korxonaning yoki biror shaxsning ma'lum vaqt davomida tovar va xizmatlarini sotishdan qo'lga kiritgan jami pul tushumi — *yalpi daromad* deb yuritiladi va *TR* harflari (inglizcha "total revenue" (yalpi daromad) iborasining bosh harflari) bilan belgilanadi. Agar sotilgan tovar miqdori (*q*) va bitta tovarning o'rtacha sotuv narxi (*p*) ma'lum bo'lsa, yalpi daromad quyidagicha topiladi:

Yalpi daromad = **Tovarning o'rtacha sotuv narxi** × **Sotilgan tovar miqdori**

Masalan, qandolatchilik firmasi bir oyda 8000 ta tort tayyorlab, ularni 45000 so'mdan sotgan bo'lsa, firmaning oylik daromadi 360000000 so'mga teng bo'ladi. Ya'ni yalpi daromad - 45000·8000=360000000 so'm.

Foyda — korxonaning ma'lum vaqt davomidagi yalpi daromadi bilan umumiy xarajatlari orasidagi farq bo'lib, *P* harfi (inglizcha "profit" (foyda) so'zining bosh harfi) bilan belgilanadi. Agar bu ayirma manfiy bo'lsa, u holda foyda emas, *zarar* haqida gapiriladi.

Foyda = **Yalpi daromad** − **Umumiy xarajat**

Yuqorida keltirilgan qandolatchilik firmasining o'sha oyda qilgan xarajatlari 240000000 so'mga teng bo'lsa, firma bir oyda 120000000 so'm foyda ko'rgan bo'ladi. Ya'ni *foyda*=360000000 so'm - 240000000 so'm=120000000 so'mga teng.

Yalpi daromad — tovarni sotishdan tushgan pul tushumi.

Foyda — korxonaning ma'lum vaqt davomidagi yalpi daromadi bilan umumiy xarajatlari orasidagi musbat farq.

Masalan, yuqoridagi firmaning keltirilgan oydagi xarajatlari 240000000 so'm emas, 390000000 so'm bo'lsin. U holda *Yalpi daromad - Umumiy xarajat* =360000000 - 390000000= - 30000000 so'mga teng manfiy natijaga ega bo'lamiz. Bu esa firma o'sha oyda 30000000 so'm zarar ko'rganligini anglatadi.

Zarar — korxonaning ma'lum vaqt davomidagi yalpi daromadi bilan umumiy xarajatlari orasidagi manfiy farq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda firma faoliyatini baholovchi va o'lchovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanishning asosiy maqsadlaridan biri — bu foyda olish ekanligini eslatishning o'zi kifoya. Foydani tadbirkorning tavakkalchilik qilib, o'z mablag'ini ishga solgani uchun berilgan mukofot deb atash mumkin. Ikkinchi tomondan, foyda korxonaning o'ziga xos "termometri" vazifasini o'taydi. Korxona katta miqdorda foyda olyaptimi, demak, korxona "sog'lom", yaxshi ishlayapti. Korxona zarar ko'ryaptimi, demak,

Formula

Yalpi daromad

$$TR = p \cdot q$$

Foyda

$$P = TR - TC$$

"ishlar chatoq". Uchinchi tomondan, foyda nimani, qancha va qanday ishlab chiqarish kerakligini ham ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida nima ko'proq foyda keltirsa, shu narsa ko'proq ishlab chiqariladi va aksincha. Iqtisodchilar biror sohani rivojlantirishga mablag' sarflashni *investitsiya qilish* yoki *sarmoyalash* deb atashadi.

Ikkita fotostudiyaning avgust oyidagi pul tushumlari jadvali

1- fotostudiya		Mahsulot nomi	2- fotostudiya	
Soni, dona	Narxi, so'm		Soni, dona	Narxi, so'm
280	1 200	Hujjat uchun foto	350	1 000
480	800	Badiiy foto	200	700
120	3 000	Portret (30x40 sm)	80	3 000
4	250 000	To'y fotoalbomi	10	150 000
80	20 000	Bitiruvchilar vinetkasi	120	12 000
20	50 000	Marosimlarda xizmat (soat)	30	35 000
_____ so'm		**Jami**	_____ so'm	

Fotostudiyalarning avgust oyidagi xarajatlari jadvali

Miqdori, so'm	Xarajat nomi	Miqdori, so'm
1 500 000	Ijara haqi	800 000
1 200 000	Materiallar	1 650 000
180 000	Kommunal to'lovlar	160 000
1 500 000	Xodimlarga ish haqi	1 250 000
100 000	Reklama	250 000
450 000	Boshqa xarajatlar	350 000
_____ so'm	**Jami xarajatlar**	_____ so'm

Birinchi fotostudiya shaharning markazida, ikkinchisi esa chekkarog'ida joylashgan.

1. Fotostudiyalarning yalpi daromadlari va xarajatlarini hisoblang. Ularni taqqoslang.
2. Fotostudiyalarning mahsulotlari tarkibini, narxlarini taqqoslang. Ularning farqlanish sabablarini izohlab bering.
3. Fotostudiyalarning xarajatlari tarkibini tahlil qiling.
4. Har qaysi fotostudiya o'z faoliyati natijalarini yaxshilash uchun nimalar qilishi kerak deb o'ylaysiz?
5. Har bir fotostudiyaning foydasini hisoblang va o'zaro taqqoslang.

http://eduportal.uz

Har bir firmaning maqsadi shunchaki foyda olish emas, balki imkoni boricha ko‘proq foyda olish, ya’ni foydani maksimallashtirishdan iborat. Foydani esa ikki xil usulda ko‘paytirish mumkin. Birinchisi, yalpi daromadni ko‘paytirish evaziga, ikkinchisi esa umumiy xarajatni kamaytirish hisobiga.

Investitsiya qilish (sarmoyalash) — mablag‘ni ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflash.

Firmaning foydasi quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

— foydaning tegishli qismi davlatga soliq tariqasida to‘lanadi;

— firma faoliyatini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni sotib olishga, yangi bino va inshootlar qurishga sarflanadi;

— foydaning qolgan qismi esa korxona egalarining foydasi sifatida o‘zlashtiriladi, aksiyadorlarga dividend sifatida taqsimlab beriladi.

Mashq

Firma hafta davomida 2000 dona mahsulotining 25% ini 1000 so‘mdan, 45% ini 1200 so‘mdan, qolganini esa 900 so‘mdan sotdi. Firmaning bu haftadagi daromadi qanchani tashkil qildi? Firma har bir tovarini o‘rtacha necha so‘mdan sotgan? Firma bu haftada 560 000 so‘m foyda olgan bo‘lsa, uning bir haftalik umumiy xarajatlari necha so‘mni tashkil qilgan? Firmaning bir dona tovar uchun sarflangan o‘rtacha sarf-xarajati necha so‘mni tashkil qilgan?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Foyda bilan daromadning qanday farqi bor?
2. Foydaning tadbirkorlik uchun muhimligini asoslab bering.
3. Daromadning ortishi har doim ham foydaning ortishini anglatadimi?
4. Firmaning iqtisodiy ahvolini nimadan bilish mumkin?
5. Tovar narxini tushirib ham foydani ko‘paytirish mumkinmi? Qanday qilib?
6. Firmaning foydasi qanday maqsadlarda ishlatiladi?

Buni yodda tuting!

- Foyda tadbirkorlarni biznesdagi yo‘qotishlarga va tavakkalchilik orqali zarar ko‘rishlari xavfiga qaramasdan faoliyat yuritishga majbur etadigan eng asosiy rag‘bat sanaladi.
- Firma egasi uchun ko‘proq daromad qilish emas, balki ko‘proq foyda olish muhimroq.

http://eduportal.uz

7- MAVZU IQTISODIY FAOLIYAT TAHLILI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Poyabzal sexi 2012- yilda 20 mln so‘m foyda olgan edi. U 2015- yilda 23 mln so‘m, 2018- yilda esa 30 mln so‘m foyda oldi.

Narxlar 2012- yilga nisbatan 2015- yilda 18 % ga, 2018- yilda esa 30 % ga qimmatlashgan.

1. 2015- yilda 23 mln so‘m pulga tadbirkor 2012- yilda 20 mln so‘m pulga olganchalik tovar va xizmatlar sotib ola oladimi? Nega bunday?
2. 2018- yilda 30 mln so‘m pulga 2012- yilda 20 mln so‘m pulga olganchalik tovar va xizmatlar sotib ola oladimi? 2015- yilda 23 mln so‘mga olganchalik tovar va xizmatlarni-chi?
3. Shularni e’tiborga olgan holda, 2015- yilda firma foydasi haqiqatan ham ko‘paygan deb ayta olamizmi? 2018- yilda-chi?

Firmaning tovarni sotishdan olgan kirimini hisoblashda sotilgan tovar miqdori tovar sotilayotgan paytdagi bozor narxiga ko‘paytiriladi. Firmaning yillik daromadi esa uning mana shunday kirimlarining yig‘indisidan iboratdir. Firmaning joriy yildagi daromadini uning oldingi yillardagi daromadlari bilan solishtirmoqchi bo‘lsak, biz qanday yo‘l tutishimiz kerak bo‘ladi? Inflatsiya natijasida tovarning narxi o‘zgargan. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarilgan tovar miqdori o‘zgarmagan taqdirda ham firma daromadining o‘zgarishiga olib keladi. Natijada firma foydasining ham o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham real daromad va real foyda tushunchalarini kiritishimizga to‘g‘ri keladi. Firmaning joriy narxlardagi daromadi yoki foydasi firmaning *nominal daromadi* yoki *nominal foydasi* deb ataladi. Firma daromadi yoki foydasining narxlar o‘zgarishini inobatga olgandagi qiymatlari firmaning, mos ravishda, *real daromadi* yoki *real foydasi* bo‘ladi. Narxlarning o‘zgarishi darajasini aniqlovchi ko‘rsatkich — bu *narxlarning o‘zgarish indeksi*dir. Bu indeks joriy yildagi o‘rtacha narxlarning taqqoslash uchun olingan yildagi o‘rtacha narxlarga

nisbatini ifodalovchi maxsus koeffitsientdir. Firma foydasining real miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$P_r = \frac{P_n}{I}$$

Bu yerda: P_r — foydaning real miqdori;
P_n — foydaning nominal miqdori;
I — narxlarning o‘zgarish indeksi.

Firmaning ma’lum davr mobaynidagi faoliyatini ko‘rsatuvchi o‘lchovlar bor. Ulardan biri *samaradorlik* (rentabellik) tushunchasidir. Firma umumiy faoliyatining samaradorligi (rentabellik) deb uning muayyan davrda olgan foydasi miqdorining, shu davrda sarflangan jami xarajatlari nisbatiga aytiladi.

Foydaning nominal miqdori — foydaning joriy narxlarda ifodalangan qiymati.

Foydaning real miqdori — foydaning biror yildagi narxlarga nisbatan xarid qilish quvvati.

Masalan, “Sherdor” firmasi bir oy davomida 30 000 000 so‘m xarajat qilib, 7 500 000 so‘m foyda oldi. Demak, firma faoliyatining bu oydagi foydalilik darajasi $R = Pr : TC = 7\,500\,000 : 30\,000\,000 = 0{,}25$ yoki 25% ga teng bo‘ladi. Odatda, samaradorlik foizlarda ko‘rsatiladi. Korxona faoliyatining foydalilik ko‘rsatkichi 25% ga teng bo‘lishi yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi.

$$R = \frac{Pr}{TC} \cdot 100\ \%$$

Bu yerda: R — samaradorlik;
Pr — foyda miqdori;
TC — xarajatlar miqdori.

Mashq

Firma birinchi oyda 20 000 000 so‘m xarajat qilib, 25 000 000 so‘m daromad qildi. Ikkinchi oyda esa 25 000 000 so‘m xarajat qilib, 30 000 000 so‘m daromad qildi. Qaysi oyda firma faoliyatining samaradorligi yuqoriroq bo‘lgan?

Firmaning ma’lum muddatdagi iqtisodiy faoliyatining natijalari uning foyda va zarari haqidagi hisobotida o‘z aksini topadi.

Korxona ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishida aylanma mablag‘larning bir maromda aylanib turishi muhim ahamiyatga ega. Bu mahsulotni ishlab chiqarishdan tortib, uni sotishgacha bo‘lgan jarayonni oqilona boshqarishni taqozo etadi. Aylanma mablag‘ miqdorining kamayib ketishi ishlab chiqarish hajmining kamayib ketishiga olib keladi. Aylanma mablag‘ qancha tez aylansa, korxona shuncha ko‘p foyda ko‘radi.

http://eduportal.uz

Shunday qilib, har bir tadbirkorning eng katta muammosi aylanma mablag‘ning bir maromda aylanib turishini ta’minlashdan, imkon bo‘lsa, uning miqdorini ko‘paytirish va aylanishini tezlatishdan iborat, deyish mumkin. Lekin, ko‘p hollarda, uzoqni ko‘zlab ish tutmaslik oqibatida korxona o‘z aylanma mablag‘idan ajralib qoladi. Bunday holatlarda keskin chora-tadbirlar ko‘rilmasa, boshqa moliyaviy manbalar ishga solinmasa, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati to‘xtab qolishi mumkin.

Firma faoliyatining samaradorligi — firmaning muayyan davrda olgan foydasi miqdorining shu davrda sarflangan jami xarajatlari miqdoriga nisbati.

Ma’lumki, korxona mahsulot ishlab chiqaradimi, yo‘qmi, u ma’lum xarajatlar uchun mablag‘ sarflashga majbur. Shu bois, korxonada ishlab chiqarish jarayonining to‘xtashi vaqt o‘tgan sari uning qarzga botishiga olib keladi. Qarzlar o‘sib shu darajaga boradiki, natijada, korxona bu qarzlarni to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmay qoladi. Bunday holatlarda korxona *bankrot* (“sindi”) deb e’lon qilinadi. Korxonaga tegishli mol-mulk sotuvga, odatda, kimoshdi savdosiga qo‘yiladi. Sotishdan tushgan pullar davlat va boshqa firmalar oldidagi qarzlarni qoplashga ishlatiladi.

Respublikamizda “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonun 1994- yilda qabul qilingan va unga bir necha marta o‘zgartirishlar kiritilgan. Unda qarzlarini to‘lashga qodir bo‘lmagan korxonalarni “bankrot” deb e’lon qilish yo‘l-yo‘riqlari belgilangan.

Korxonalar, firmalar ta’sischilar kengashi qaroriga ko‘ra yoki bankrot deb e’lon qilingan taqdirda tugatilishi mumkin. Firmalarni tugatish firma nizomida va amaldagi qonunlarda ko‘zda tutilgan yo‘l-yo‘riqlar asosida amalga oshiriladi. Korxona tugatilayotgan paytda, uning davlat va boshqa firmalar hamda tashkilotlar oldidagi qarzlari to‘langandan so‘ng, qolgan mol-mulk va pul mablag‘lari ta’sischilar o‘rtasida korxona nizomida ko‘zda tutilgan tartibda taqsimlanadi. Korxona shahar (tuman) hokimligi tomonidan tugatilishi haqidagi qaror chiqqandan keyingina tugatilgan hisoblanadi.

Bankrotlik — firmaning o‘z xodimlari, boshqa fuqarolar, firmalar va davlat oldidagi qarzlarini to‘lay olmaslik holati.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Firma foydasining real miqdori nima? U qanday hisoblanadi?
2. Firma faoliyati natijasining tahlili nima uchun kerak bo‘ladi?

http://eduportal.uz

3. Samaradorlikni boshqacha yana qanday ta'riflash mumkin?
4. Aylanma mablag'ning firma iqtisodiy faoliyatidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Yil natijasiga ko'ra, firma foydasi 23 000 000 so'mni, faoliyat samaradorligi esa 20% ni tashkil qildi. Firmaning yillik sarf-xarajatlari miqdorini toping.
6. Firmani bankrotlikka olib keluvchi sabablarni aytib bering.
7. Bankrot deb topilgan firmaning qarzlari qanday tartibda to'lanadi?
8. Firma qachon tugatilgan deb hisoblanadi?

Topshiriq

Firmaning yillik ko'rsatkichlari, so'mda	1- yil	2- yil	3- yil
Yalpi daromad	300 mln	450 mln	600 mln
Umumiy xarajatlar	150 mln	200 mln	300 mln
Foydaning nominal miqdori			
Narxlar oshish indeksi (1- yilga nisbatan)	1,0	1,25	1,5
Foydaning real miqdori			

Yuqoridagi jadval asosida:
1. Foydaning real miqdorini aniqlash formulasidan foydalanib, jadvalning bo'sh kataklarini to'ldiring.
2. Firma qaysi yili yaxshiroq faoliyat ko'rsatgan? Nega?
3. Firma faoliyatining samaradorligini har bir yil uchun hisoblang va o'zaro taqqoslang.
4. Firma umumiy xarajatlarining yil sayin oshib borishiga nimalar sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
5. Umumiy xarajatlar qaysi mablag'lar hisobiga ko'paytiriladi?

Buni yodda tuting!

- Firma foydasining real miqdori narxlar o'zgarishi e'tiborga olingan holda hisoblanadi.
- Firma faoliyatining samaradorligini hisoblashda foyda va xarajatlar miqdori e'tiborga olinadi.
- Aylanma mablag'lar aylanishining sekinlashishi firma uchun zararli hisoblanadi.

http://eduportal.uz

8- MAVZU FIRMANI BOSHQARISH — MENEJMENT

1

2

3

4

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1- rasmdagi qandolatchilik sexida 6 nafar ishchi, 2- rasmdagi bankda 35 nafar xodim, 3- rasmdagi to‘qimachilik fabrikasida 300 nafar xodim, 4- rasmdagi zavodda esa 2 000 nafar ishchi ishlaydi.

1. Bu korxonalar qay tariqa boshqariladi, deb o‘ylaysiz?
2. Ularda ishchilarni boshqarish bilan shug‘ullanadigan xodimlar soni nimaga bog‘liq bo‘lishi mumkin, deb o‘ylaysiz?
3. Menejment va menejer atamalarining ma’nosini bilasizmi?
4. Korxona uchun boshqaruv tizimining mavjudligi qanchalik muhim?

Ma’lumki, har bir firma faoliyati ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratiladi. Bu maqsadga erishish uchun esa firmani boshqarish lozim bo‘ladi. Boshqaruv jarayoni *menejment* deb ham yuritiladi (inglizcha “management” so‘zi “boshqarish” degan ma’noni anglatadi). Boshqaruv haqidagi fan ham *menejment* deb ataladi va u boshqaruv usullari, shakllari va vositalarini o‘rganadi.

Firmani yuritish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning har bir jabhasi boshqarishni talab qiladi. Masalan, ishchi-xizmatchilarni boshqarish, ishlab chiqarish vositalarini boshqarish, moddiy resurslarni boshqarish, ma’lumotlarni boshqarish, moliyaviy mablag‘larni boshqarish va boshqalar.

Menejment — biror ko‘zlangan maqsadga erishish usullari, shakllari, vositalari va boshqarish tamoyillarini o‘rganadigan fan.

Boshqaruv bevosita inson tomonidan amalga oshiriladi. Firmada ishlaydigan, maxsus boshqaruv ilmini egallagan, ish yurituvchi va boshqaruvchi *menejer* deb ataladi. Har qanday rahbar xodim yoki menejer ish vaqtining 70 — 80 foizini odamlar bilan muloqot qilishga sarflaydi. Shu bois, menejmentni tom ma’noda qo‘l ostida ishlayotgan xodimlar faoliyatini o‘zaro muloqot orqali boshqarish deb ham aytish mumkin.

Menejer oldida turgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni ketma-ket bajarishi kerak bo‘ladi: 1. Rejalashtirish; 2. Tashkil qilish; 3. Rahbarlik qilish; 4. Nazorat qilish.

Menejer — maxsus boshqaruv ilmini egallagan ish yurituvchi yoki boshqaruvchi.

Rejalashtirish bosqichida menejerlar korxona maqsadidan kelib chiqib, istiqbolli rejalar va dasturlarni ishlab chiqadilar. Rejani amalga oshirish uchun korxonaning hamma bo‘limlari ishini o‘zaro muvofiqlashtiradilar. Ularning ishini tashkil qiladilar, bevosita rahbarlik qilib, ishning bajarilishini nazoratga oladilar. Menejerlar xodimlarni korxona oldida turgan ma’lum maqsadga erishishiga chorlovchi va jamoani bunga otlantiruvchi, safarbar qiluvchi kishilardir.

Firmani boshqarishda menejerlarning yuqori salohiyatga egaligi, iqtisodiy bilimlarni chuqur bilishi, o‘zining imidjiga ega bo‘lishi, ma’naviy jihatdan yetukligi, muomala, so‘zlashuv madaniyatining yuksakligi katta ahamiyat kasb etadi.

Firmaning katta-kichikligiga qarab, boshqaruvning turli xil tashkiliy tizimlari tuziladi. Faraz qilaylik, kichik do‘konda uning egasi va yana bir kishi ishlaydi. Bu holatda, boshqaruvchi va boshqariluvchi orasidagi o‘zaro munosabat 8.1- chizmadagidek bo‘ladi. Bu tizim sodda tashkiliy tizim deyiladi. Bir nechta bo‘limlardan tashkil topgan supermarketdagi boshqaruv tuzilmasini ko‘z oldimizga keltiradigan bo‘lsak, uning tuzilmasi (boshqaruv bo‘g‘inlari) birmuncha murakkabroq bo‘ladi. Uni sxema tarzida 8.2- chizmadagidek tasvirlash mumkin. Yangi tizimning avvalgisidan asosiy farqi faqat xizmatchilar sonining ko‘pligidagina bo‘lmay, balki bir necha quyi darajali qismlardan tashkil topganligidadir. Endi ishchi va xodimlarning bir qismi bevosita do‘kon egasiga emas, balki kichik bo‘limlarni boshqaruvchi menejerlarga bo‘ysunadi.

Agarda firma savdo-sotiqdan tashqari ishlab chiqarish bilan ham shug‘ullansa, uning tashkiliy tizimi yanada murakkabroq bo‘ladi.

http://eduportal.uz



8.1- chizma



8.2- chizma

Avtokratik, ya’ni yakka hokimlik uslubi. Bunda rahbar o‘zgalar fikrini so‘rab o‘tirmaydi, balki buyruq berib, uning bajarilishini nazorat qiladi. Bunday uslubda firmaning jamoasi markazlashgan bo‘ladi, xodimlar orasida esa aloqalar deyarli bo‘lmaydi.

Byurokratik (qog‘ozbozlik) uslubi. Bu uslub ham yuqoridagi uslubning bir ko‘rinishi bo‘lib, firma faoliyati *"tepadan tushirilgan"* buyruqlar, yo‘l-yo‘riqlar va rasmiy qog‘ozlar asosida boshqariladi. Bunday korxonada tashabbuskorlikka emas, qog‘oz hujjatlarga ko‘proq e’tibor beriladi.

Demokratik uslub. Bunda jamoaning barcha a’zolari qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etadi. Jamoa har bir a’zosining fikri inobatga olinib, ular umumiy ishga qandaydir hissa qo‘shayotganligidan qoniqadi. Bunday jamoalarda, odatda, odamlar o‘z ishlariga sadoqatli bo‘ladi. Rahbarning asosiy vazifasi jamoa a’zolarini tashabbuskorlikka yo‘naltirishdan iborat bo‘lib qoladi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Menejment deganda nimani tushunasiz?
2. Menejerlar qanday kasb egalari? Ularning faoliyati haqida gapirib bering.
3. Sizga maktabda “Navro‘z” bayramini o‘tkazish topshirildi. Siz ishni nimadan boshlab, nima bilan tugatgan bo‘lar edingiz?
4. Boshqarishning asosiy qoidalaridan biri — “Maqsad — harakat yo‘nalishini aniqlaydi” degan qoidani qanday tushunasiz? Boshqaruvda nega maqsadlar shu darajada zarur?
5. Maktab boshqaruvining tuzilmasini chizing va sharhlang.
6. Har bir boshqaruv uslublarining afzallik va kamchilik tomonlarini ayting.
7. Harbiy qismni boshqarish uchun qaysi usulni tanlagan bo‘lar edingiz? Nega?

http://eduportal.uz

Topshiriq



8.3- chizma



8.4- chizma

Aytaylik, siz uch xil qandolat mahsulotlari ishlab chiqarib, o‘z do‘koni orqali sotadigan firmaning rahbarisiz. Qo‘l ostingizda 30 ta xodim ishlaydi. Firmangizning tashkiliy tizimi 8.3- chizmada keltirilgan. Undan foydalanib, korxonada ishlab chiqarish jarayoni qanday tashkil qilinishi haqida so‘zlab bering.

1. Firma nechta va qanday bo‘limlardan iborat bo‘ladi?
2. Har bir bo‘limda nechta ishchi ishlaydi?
3. Bu bo‘limlardagi ishchilarni kimlar boshqaradi?
4. Bo‘lim boshliqlari kimga bo‘ysunadi?
5. Kim kimga qanday ketma-ketlikda bo‘ysunishini ko‘rsatuvchi, 8.4- chizmaga o‘xshash boshqaruv tizimini chizing va sharhlang.

Buni yodda tuting!

- Firma qanchalik yirik va ko‘p tarmoqli bo‘lsa, uning boshqaruv tizimi ham shunchalik murakkab bo‘ladi.
- Boshqaruvning avtokratik, byurokratik va demokratik uslublari mavjud.
- Firmani boshqaruvchilar menejerlar deb ataladi.
- Menejment — boshqaruv haqidagi fandir.

http://eduportal.uz

9- MAVZU MARKETING

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuqoridagi rasmlarda keltirilgan tovarlardan birini tanlang. Uni ishlab chiqarayotgan firma bu tovarni bozorda sotish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishi lozim, deb o‘ylaysiz?
2. Bu tadbirlarning qaysi biri tovarni ishlab chiqarishdan oldin, qaysi biri keyin o‘tkazilishi lozim?
3. Bu tovarni qanday reklama qilgan bo‘lar edingiz?

Marketing so‘zi inglizcha “market” so‘zidan olingan bo‘lib, “bozorga bog‘liq faoliyat” degan ma’noni anglatadi. Iqtisodiyotda *marketing* deb bozor sharoitida iste’molchilar ehtiyojini o‘rganishdan tovar va xizmatlarni ularga yetkazishgacha bo‘lgan faoliyatga aytiladi. Firma uchun marketing faoliyatidan ko‘zlangan asosiy maqsad — iste’molchilar ehtiyojlarini aniqlab, uni to‘laroq qondirish evaziga ko‘proq foyda olishdan iborat deb aytish mumkin. Marketing faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar *marketologlar* deb ataladi.

Marketing – bozor sharoitida iste’molchilar ehtiyojini aniqlash va uni qondirishga yo‘naltirilgan faoliyat.

Marketolog – marketing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, maxsus bilimga ega bo‘lgan mutaxassis.

Firmaning butun ishlab chiqarish faoliyati marketing tadqiqotlariga tayangan holda tashkil qilinishi kerak. Marketing tadqiqotidan ko‘zlangan maqsad firma oldida turgan nima ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish, qanday narxda sotish, kim uchun ishlab chiqarish, qaysi bozorga yetkazish va sotish lozim degan savollarga javob topishdir. Marketing tadqiqotlari, asosan, to‘rt: *mahsulotni (bozorni) o‘rganish, narxlash, reklama qilish, bozorda o‘rnashish* bosqichlariga bo‘linadi.

http://eduportal.uz

Mahsulotni o‘rganish bosqichida iste’molchilarning qanday va qaysi tovarlarni sotib olishga xohishi borligi aniqlanadi, bozor o‘rganiladi, anketa so‘rovlari, og‘zaki savol-javoblar kabi tadqiqotlar o‘tkaziladi, iste’molchilar ehtiyojini qondiradigan tovarlarni ishlab chiqarish rejalashtiriladi va rivojlantiriladi.

Narxlash bosqichida tovarning narxi belgilanadi. Tovarning narxi shunday belgilanishi kerakki, ya’ni iste’molchilarning uni sotib olishga qurbi yetsin. Shu bilan birga, tovarni ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi firma ham ma’lum miqdorda foyda olsin.

Reklama bosqichida firma va tovar haqidagi ma’lumotlarni axborot vositalari va turli tadbirlar orqali iste’molchilarga yetkazish amalga oshiriladi. To‘g‘ri berilgan reklama tadbiri tovarning sotuv hajmini keskin oshirishi mumkin. Firma, tovar va tadbirlar haqidagi rang-barang ma’lumotlar radio, televideniye, internet va boshqa aloqa tarmoqlari, gazeta va jurnallar, ko‘chalarda o‘rnatilgan ustun va bino devorlaridagi lavhalar, e’lonlar, plakatlar orqali iste’molchilar e’tiboriga havola etiladi. Tovarning nisbatan arzon narxi, bejirim qadoqlanganligi va tovar yorlig‘idagi yozuvlar ham o‘ziga xos reklama hisoblanadi.

Tovarni reklama qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar:

— iste’molchilarga sotuvga chiqarilgan tovar haqida xabar berish;
— tovar iste’molchining qaysi ehtiyojlarini qondirishini yetkazish;
— iste’molchilarni tovarni sotib olishga undash, moyilligini oshirish.

Reklama – iste’molchilarga tovar haqida ma’lumot berish orqali ularning tovarga bo‘lgan talabini oshirishga qaratilgan tashviqot tadbiri.

Bozorda o‘rnashish bosqichida tovarni sotish uchun ham sotuvchiga, ham xaridorga qulay bo‘lgan joy va vaqt tanlanadi. Shu bilan birga, bozorda firma o‘z o‘rnini topib, o‘rnashib olishiga qaratilgan uzoqni ko‘zlovchi tadbirlar amalga oshiriladi. Tovarni bozorga yetkazish, uni saqlash va sotish joylari aniqlanadi. Xaridorlarni jalb etish va ularning tovarni sotib olishga bo‘lgan moyilligini oshirish yoki saqlab turish maqsadida tovarni sotishdan oldingi va sotishdan keyingi servis xizmati turlari ko‘rsatiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining, xususan, internet tarmog‘ining jadal sur’atlar bilan kengayib borishi marketing rivojiga katta turtki berdi. Endilikda, marketing faoliyati jadallashib, uning samaradorligi oshib bormoqda.

Tovarni sotish bo‘yicha sotuvchi korxona, odatda, ikki xil strategiya – yo‘lni qo‘llaydi. Ularning birinchisi - bu PUSH - strategiya (PUSH - inglizcha surish ma’nosini anglatadi). PUSH marketingda

http://eduportal.uz

mahsulotning o‘zini bevosita iste’molchiga namoyish qilish va shu yo‘l bilan shu mahsulotni o‘tkazishga harakat qilinadi. PUSH marketingga eng sodda misol qilib do‘kon vitrinasida tovarlarni tizib qo‘yish, tovarlarga chegirmalar taqdim qilish kabi amallarni keltirish mumkin.

Bu haqda o‘ylab ko‘ring!

Televideniyedan berilayotgan reklamalarni tomosha qilasizmi? Ularning sifati haqida nima deya olasiz? Reklamalar yaqin o‘tgan kunlarda qaysi tovarni sotib olishingizga sababchi bo‘ldi?

PUSH marketingda tovarni ishlab chiqaruvchidan xaridorga yetkazish ishi bilan vositachi savdo tashkilotlari ham shug‘ullanadi. Tovarni ishlab chiqaruvchidan sotib olib, katta-katta hajmda sotuvchilar *ulgurji savdo tashkilotlari* deb ataladi. Ular tovarni ulgurji narxda sotishadi. Tovarni donalab yoki kichik hajmlarda iste‘molchilarga sotuvchilar *chakana savdo tashkilotlari* deb ataladi. Savdo do‘konlari chakana savdo tashkilotlaridir. Ishlab chiqaruvchi mahsulotini bevosita iste’molchiga yoki ulgurji savdogarga sotganida u tovarning tannarxiga o‘z ustamasini qo‘shadi va *ishlab chiqarish narxida* sotadi. Ulgurji savdogar esa bu narxga o‘zining ustamasini qo‘shadi va uni ulgurji narxda sotadi. Chakana savdogar bu narxga yana o‘zining ustamasini qo‘shadi va chakana narxda sotadi. Shunday qilib narx oshib boraveradi. Odatda, tovarning chakana narxi ulgurji narxidan, ulgurji narxi esa ishlab chiqarish narxidan baland bo‘ladi.

Sotuvni tashkil qilish bo‘yicha ikkinchi xil strategiya (yo‘l) - bu PULL - marketingdir (PULL - inglizcha tortish ma’nosini anglatadi). PULL - marketingning asosiy maqsadi iste’molchini sotuvchi oldiga kelishga undashdir. Siz televideniye orqali tovarlar maqtalib, ularning sifatlari tavsiflanganini ko‘p ko‘rgansiz. Masalan, bolalar tagliklari, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari. Bunday ma’lumotlarni o‘rgangan iste’molchida ushbu mahsulotni sotib olish istagi paydo bo‘ladi va u ushbu tovar sotiladigan joyga borishga oshiqadi. Iste’molchi bu tovardan foydalangandan va uning nafini his qilganidan keyin ushbu tovar markasiga - brendiga bog‘lana boshlaydi. Ya’ni u keyingi safar aynan shu tovar belgisi ostidagi mahsulotlarni sotib olishga intiladi.

Marketingda blokcheyn texnologiyasini qo‘llash.

Blokcheyn – bu turli ma’lumotlarning ulkan bazasi (ombori) bo‘lib, bu ma’lumotlar alohida “bloklar”da joylashtiriladi va umumiy zanjirga bog‘lanadi. Bularning barchasi kompyuterlar va internet tizimi orqali amalga oshiriladi. Blokcheynda kiritilgan ma’lumotning o‘chirib tashlanishi, o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu texnologiya

http://eduportal.uz

ma'lumot almashinishini, masalan, biror bir tovarning sotilishini, unga pul o'tkazilishini tez, aniq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham zamonaviy marketingda blokcheyn texnologiyasini qo'llash kengayib bormoqda.

2018- yil 2- oktabr kuni mamlakatimizda ilk bor "Raqamli ishonch" jamg'armasi va Rossiyaning Blockchain Industrial Allianse kompaniyasi bilan hamkorlikda dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika mahsulotlari bazasida blokcheyn texnologiyasi joriy qilindi. Bu ma'lumotlar bilan barcha mutaxassislar, shifokorlar, tovar yetkazib beruvchilar va bemorlar tanishishlari va foydalanishlari mumkin. Keyinchalik blokcheyn platformasida tovarning to'liq hayot davri aks etishi nazarda tutilgan.

Bu zamonaviy texnologiyaning muhimligini e'tiborga olib, mamlakatimizda mintaqadagi birinchi blokcheyn-akademiyasini tashkil qilish bo'yicha Respublika oliy biznes maktabi va KOREA GROUP kompaniyasi o'rtasida memorandum imzolandi.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Marketing tushunchasining ma'nosini ayting.
2. Marketing faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsadlarni sanang.
3. Marketing tadqiqotlari bosqichlarini sanang.
4. Tovarni reklama qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlarni sanang.
5. Reklamaning afzallik va kamchiliklarini aytib bering.
6. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi marketing tizimiga qanday ta'sir qilmoqda?
7. Tovarni sotish yo'llari haqida nimalarni bilasiz?
8. Bozorda o'rnashish deganda nimani tushunasiz?
9. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari haqida nimalar bilasiz?

Buni yodda tuting!

- Marketing iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va qondirish tadbirlarini tashkil qilish bo'yicha faoliyatdir.
- Marketing faoliyati bilan maxsus bilimga ega marketologlar shug'ullanadi.
- Marketing tadqiqoti mahsulotni o'rganish, narxlash, reklama qilish va bozorda o'rnashish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

http://eduportal.uz

10- MAVZU ISHLAB CHIQARISH VA EKOLOGIYA

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmda tasvirlangan ishlab chiqarish korxonasi faoliyatining jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirining ijobiy va salbiy tomonlarini yozing.
2. Shuncha salbiy oqibatlari bo'lsa-da, korxonaning faoliyat ko'rsatayotganini qanday izohlaysiz?
3. Bunday oqibatlarning qay tarzda oldi olinishi mumkin?

Dastlabki paytlarda odamlarning bunday faoliyati natijasida tabiatdagi muvozanatning buzilishi, unga yetkazilgan ziyonni qoplashga, o'rnini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'lgan.

Keyingi yuz yilliklarga kelib jahonda iqtisodiyot sohasi rivojlanib, insoniyatning tabiatdagi jarayonlarga aralashuvi, tabiiy resurslardan foydalanish miqyosi mislsiz darajaga borib yetdi va tabiat o'zini o'zi tiklay olmay qoldi. Chunki ishlab chiqarish texnologiyalari rivojlandi, takomillashdi, lekin tabiatga zaharli gazlar, oqava suvlar, chiqindilarni ulkan hajmlarda chiqarib tashlash to'la nazorat qilinmadi.

Ekologiya insoniyatning uni o'rab turgan tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fandir. U tabiatdagi resurslardan tejab-tergab oqilona foydalanish, ularni avaylab-asrash, qayta tiklash muammolarini o'rganadi. Ma'lumki, insoniyatning ehtiyojlari cheksiz bo'lib, odamlar ularni qondirish jarayonida tabiiy resurslardan foydalanadilar. Dastlab, odamlarni tabiatning o'zi boqqan bo'lsa, keyinchalik ehtiyojlarning

ko‘payishi natijasida odamlar tabiat in’omlarini sof holda iste’mol qilish bilan kifoyalanmasdan, tabiiy resurslardan turli xil mahsulotlarni o‘zlari ishlab chiqarishga o‘tdilar. Bu bilan tabiatdagi muvozanatga sezilarli ta’sir ko‘rsata boshladilar. Shu tariqa ekologik muammolar paydo bo‘la boshladi.

Iqtisodiyotning, eng avvalo, ishlab chiqarishning rivojlanishi oqibatida odamzod atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog‘liq quyidagi ekologik muammolarga duch kelib qoldi:

— havoning zaharlanishi;
— daryo va suv havzalarining ifloslanishi;
— tuproq tarkibining o‘zgarishi va yerlarning sho‘rlanib borishi;
— ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari miqdorining kamayib borishi;
— atmosferadagi ozon qatlamining yemirilishi;
— inson salomatligiga zarar yetkazadigan shovqinli texnika moslamalarining ko‘plab ishlatilishi.

Bilasizmi?

Olimlarning fikricha, sanoatda, sovutish qurilmalarida ishlatiladigan freon gazi bizni quyosh nuri radiatsiyasidan himoya qiluvchi atmosferaning ozon qatlamini yemirib bormoqda. Agar ahvol shu tariqa davom etaversa, yaqin kelajakda Yer atmosferasi harorati ko‘tarilib, tabiatdagi muvozanat buzilishi, quruqlikning ko‘p qismi suv ostida qolishi taxmin qilinmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish ishlari bilan, asosan, davlat nazorat organlari shug‘ullanadi. Har bir davlatda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan turli xil chora-tadbirlar ko‘riladi, qonunlar qabul qilinadi. Masalan, zavod va fabrika mo‘rilariga turli xil zaharli moddalarni ushlab qoladigan, havoni tozalaydigan moslamalar o‘rnatish, oqava suvlarni daryolarga oqizishni taqiqlash kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Davlat tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat, jamoat tashkilotlari ham borki, ular nafaqat bir mamlakat hududida, balki butun dunyoda atrof-muhit muhofazasi muammolari bilan shug‘ullanadi. Masalan, “Green peace” xalqaro jamiyati butun dunyoda ekologik muammolarni yechish, atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish uchun kurashadi.

O‘zbekistonda ham o‘tgan davrlarda katta ekologik muammolar to‘planib qolgan. Havoning ifloslanishi, tuproqning zaharlanishi va sho‘rlanishi, sanoat chiqindilari, oqava suvlar bilan bog‘liq muammolar shular jumlasidandir. O‘zbekistonda eng katta ekologik muammolar, albatta, suv bilan bog‘liqdir. Haydarko‘l atrofidagi ekotizimni

http://eduportal.uz

muvozanatlashtirish, janubiy viloyatlarda suv tanqisligi muammolari bunga misol bo‘la oladi. Lekin mamlakatimizning global ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik muammosi bu – Orol muammosidir.

Orol dengiziga quyiladigan suv miqdori kamayib, dengiz hozirgi kunda kichkina ko‘lga aylanib qolgan. Qurigan dengiz o‘rnidagi tuzlar shamol bilan havoga ko‘tarilib, atrofdagi hududlarni qoplay boshladi. To‘qayzor va chakalakzorlar o‘rnida cho‘l paydo bo‘lib, bu yerlarda yashaydigan hayvonlar soni keskin kamaydi. Havo va ichimlik suvining ifloslanishi natijasida aholining yashash sharoitlari og‘irlashdi. Orol dengizi suvining keskin kamayishi Orolbo‘yi hududining iqtisodiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Orol muammosini yechishning muhimligi va global ahamiyatga ega ekanligi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72- Bosh Assambleyasidagi nutqida ham ta’kidlandi.

Mamlakatimizda ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 21- apreldagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi etib qayta tashkil etildi. Qo‘mitaga ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bog‘liq vazifalar yuklandi. O‘zbekiston ekologik partiyasi tuzildi va 2019- yil 8- yanvarda uning ta’sis s’yezdi bo‘lib o‘tdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi ekologik vaziyatni yaxshilash borasidagi ishlarga misol qilib chiqindilarni qayta ishlash, quyosh, shamol va biologik energiyalardan foydalanishni kengaytirish, cho‘llarni o‘rmonlashtirish, ko‘llar bo‘ylarini to‘qayzorlarga aylantirish kabi ishlarni keltirish mumkin.

Davlatimiz tomonidan Orol muammosini hal qilishga, ayniqsa, katta ahamiyat berilmoqda. 2019- yilning o‘zida “Orolqum” cho‘lida 500 000 gektar maydonda himoya o‘rmonlarini barpo qilish, ko‘plab artezian quduqlarini kovlab, chuchuk suv chiqarish, shu tariqa Orol hududini qayta tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.

Yana bir ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan ulkan loyiha bu – O‘zbekistonda Rossiya bilan hamkorlikda amalga oshirilishi boshlangan

Atom elektr stansiyasining barpo qilinishidir. Chunki atom energiyasi - eng ekologik toza energiya turlaridan bo‘lib, havoga katta miqdordagi zararli gazlar chiqarilishining oldini oladi. Atom elektrostansiyasining ishga tushirilishi bilan yiliga 3,7 mlrd kub metr gaz tejab qolinadi.

Atrof-muhit muhofazasi har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Buning uchun har birimiz kundalik turmushimizda orasta yurish, o‘zimiz yashayotgan joyni ozoda tutish kabi oddiy qoidalarga rioya qilishimiz zarur.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Nima sababdan hozirda ekologik muammolar juda dolzarb bo‘lib qoldi?
2. Iqtisodiyotning rivojlanishi hamma vaqt ham ekologik muammolarni keltirib chiqaradimi?
3. Havoning, suvning ifloslanishi, tuproq tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq ekologik muammolarga ikkitadan misollar keltiring.
4. Avtomobillardan chiqayotgan gaz havoni ifloslantirishini bila turib, nega ulardan baribir foydalanib kelmoqdamiz?
5. Orol dengizining umuman qurib qolishi yana qanday ekologik muammolarga olib kelishi mumkin?
6. Atrof-muhitni himoya qilish bilan nega, asosan, davlat shug‘ullanadi?
7. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun davlat qanday vositalardan foydalanadi?
8. Atrof-muhitni muhofaza qilish ishida siz qaysi xatti-harakatlaringiz bilan hissa qo‘shishingiz mumkin?

Topshiriq

1. Tumaningizda mavjud ekologik muammolarni aniqlab, ular haqida qisqacha referat yozing. Bu muammolarning kelib chiqish sabablarini toping va bartaraf qilish yo‘l-yo‘riqlarini taklif qiling. Bu muammolarni bartaraf qilishda siz va tengdoshlaringiz qanday hissa qo‘shishingiz mumkinligini ayting.

Buni yodda tuting!

- Barcha ekologik muammolar, asosan, inson iqtisodiy faoliyatining mahsuli hisoblanadi.
- Iqtisodiyot va ekologiya orasidagi ziddiyatni yumshatish va atrof-muhit muhofazasini, asosan, davlat o‘z zimmasiga olgan.
- Atrof-muhit muhofazasi har birimizning muqaddas burchimiz bo‘lishi lozim.

http://eduportal.uz

I BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Tadbirkorlik layoqati bor odamni tavsiflang.
2. Tadbirkorlikning bozor iqtisodiyotidagi rolini tavsiflab bering.
3. Iqtisodiy faoliyatning tadbirkorlikka xos qanday turlarini bilasiz?
4. Tadbirkorlik faoliyati turlarining afzallik va kamchiliklarini ayting.
5. Firma va uni tashkil qilishning tashkiliy-huquqiy shakllarini sanang.
6. Aksiyadorlik jamiyati nima va uning qanday turlarini bilasiz?
7. Firma mablag‘lari qanday turlarga bo‘linadi?
8. Qanday ishlab chiqarish xarajatlarini bilasiz?
9. O‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarining bir-biridan farqi nimada?
10. Yalpi daromad, foyda, zarar va sof foyda o‘rtasida qanday munosabatlar bor? Ularni sodda misollarda tushuntiring.
11. Foydaning iqtisodiy faoliyatga undovchi rolini tushuntirib bering.
12. Firmaning iqtisodiy faoliyati samaradorligi qanday hisoblanadi?
13. Menejmentning mohiyati, maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
14. Marketingning mohiyati va firma faoliyatidagi ahamiyatini ayting.
15. Ekologik muammolar inson iqtisodiy faoliyatining natijasi ekanligini qanday izohlaysiz?

B. TOPSHIRIQ

ATAMALAR:

1. Tadbirkorlik;
2. Firma;
3. Aksiyaning nominal qiymati;
4. Firmaning nizomi;
5. Aylanma mablag‘lar;
6. Tijorat;
7. Doimiy xarajatlar;
8. Sof foyda;
9. Umumiy xarajatlar;
10. Bankrotlik;
11. Menejment;
12. Marketing;
13. Aksiya kursi;
14. Amortizatsiya ajratmasi;
15. O‘rtacha xarajat;
16. Xususiy firma.

TALQINLAR:

a) firmaning ichki va tashqi faoliyatini tartibga soluvchi, huquqiy kuchga ega bo‘lgan me’yoriy hujjat;

b) xom ashyo, har xil materiallar sotib olish va ishchi kuchini yollashga sarflanadigan mablag‘lar;

http://eduportal.uz

d) firma foydasining barcha soliq va to‘lovlar to‘langandan qolgan qismi;
e) doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi;
f) tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan korxona;
g) aksiya ustiga yozib qo‘yilgan baho;
h) iste’molchilar ehtiyojlarini aniqlash va qondirish bo‘yicha yo‘naltirilgan faoliyat;
i) kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida, o‘z mablag‘i, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati;
j) biror ko‘zlangan maqsadga erishish usullari, shakllari, vositalari va boshqarish tamoyillarini o‘rganadigan fan;
k) firmaning o‘z qarzlarini to‘lay olmaslik holati;
l) aksiyaning bozordagi narxi;
m) ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar;
n) tovarni sotib olib, qayta sotishdan iborat tadbirkorlik faoliyati;
o) asosiy ishlab chiqarish vositalarining eskirishi natijasida ular narxining ishlab chiqarilgan mahsulot narxiga o‘tgan qismi;
p) bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajat;
q) yakka shaxs mulki asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan firma.

D. 7- bet I bob titulidagi rasmlar bo‘yicha

Rasmlarning qaysilari bobdagi qaysi mavzuga taalluqli ekanligini ayting. Ushbu rasmlar asosida mavzularning mazmunini so‘zlab bering.

E. TESTLAR

1. Tadbirkorlik faoliyati natijasi qanday ko‘rsatkichda namoyon bo‘ladi?

A) Foiz; B) Renta;
D) Ish haqi; E) Foyda.

2. Sherikchilik asosida tuzilgan firmaning foydasi ...

A) ta’sischilar o‘rtasida teng miqdorda taqsimlanadi.
B) nizom jamg‘armasiga qo‘shilgan ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.
D) faqat firmani kengaytirishga sarflanadi.
E) ta’sis shartnomasida ko‘rsatilgan kelishuv asosida taqsimlanadi.

3. Firmaning moliyaviy mablag‘ manbalari quyidagilar:

A) sof foyda;

http://eduportal.uz

B) amortizatsiya ajratmasi;
D) nizom jamg‘armasi;
E) Keltirilgan manbalarning barchasi.

4. Oddiy aksiya egasi firmani boshqarishda ...
A) umuman qatnashmaydi.
B) umumiy majlisda ovoz berish orqali qatnashishi mumkin.
D) qatnashishi shart.
E) aksiyalarning katta paketiga ega bo‘lgan taqdirdagina qatnashishi mumkin.

5. Aksiyadorlik jamiyatining yalpi daromadi 5 mlrd so‘mni, umumiy xarajati 3 mlrd so‘mni, soliqlar miqdori 1 mlrd so‘mni va dividendlar 500 mln so‘mni tashkil qildi. Uning sof foydasi necha so‘m?
A) 500 mln; B) 2 mlrd;
D) 3 mlrd; E) 1 mlrd.

6. Firma yil davomida 5000000000 so‘m xarajat qilib, 1250000000 so‘m foyda oldi. Firma yillik faoliyatining samaradorligini toping.
A) 125 %; B) 50 %;
D) 25 %; E) 150 %.

7. Aksiyadorlik jamiyatining yillik foydasi miqdorining ortishi qaysi aksiya qiymatining oshishiga sabab bo‘ladi?
A) Oddiy aksiyaning;
B) Imtiyozli aksiyaning;
D) Ham oddiy, ham imtiyozli aksiyaning;
E) Hech qaysi aksiyaning.

8. Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri tadbirkorlikka xos?
A) Tavakkalchilik;
B) Erkin iqtisodiy faoliyat;
D) Foyda olishga intilish;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

9. Firma 1- yil 1,5 mlrd so‘m, 2- yil esa 2 mlrd so‘m foyda qildi. Narxlar 2- yilda 1- yilga nisbatan 1,25 marta oshgan bo‘lsa, firmaning 2- yilda 1- yilga nisbatan real foydasi qanchaga o‘zgargan?
A) 100 mln so‘mga kamaygan;
B) 500 mln so‘mga kamaygan;
D) O‘zgarmagan;
E) 100 mln so‘mga oshgan.

http://eduportal.uz

MUSTAQIL FAOLIYAT | BO‘LAJAK TADBIRKORGA

O‘z biznesini boshlamoqchi bo‘layotgan, o‘zining biznes-g‘oyasi va tayyor biznes-loyihasi bo‘lgan yosh tadbirkor oldida turgan eng katta muammo – bu, albatta, qanday qilib mablag‘ topishdir. Ayniqsa, bu savdo-sotiq yoki umumiy ovqatlanishga o‘xshagan an’anaviy tadbirkorlik sohalari emas, balki zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq, tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lgan sohalarga taalluqli bo‘lsa.

Rivojlangan mamlakatlarda bunday biznes-g‘oyalarining qadriga yetishadi va izlashadi. Chunki aynan shunday kuchli tavakkalchilikka asoslangan yangi biznes-loyihalargina baland darajadagi foydani berishi mumkin. Shuning uchun ham ayrim yirik kompaniyalar bunday biznes-g‘oyalarni yoki tayyor biznes-loyihalarni sotib oladilar yoki sherikchilik sharti bilan moliyalashtiradilar. Bunday biznes-g‘oya, biznes-loyihalarni moliyalashtiruvchi maxsus jamg‘armalar ham rivojlangan mamlakatlardagi biznes-tizimning ajralmas qismiga aylangan. Moliyalashtirilgan va faoliyatini boshlagan bunday yangi biznes turlari bu mamlakatlarda *startaplar* deb nomlanadi.

So‘nggi yillarda faoliyatini boshlagan va katta muvaffaqqiyat qozongan startaplarga misol qilib Facebook, Uber, Space X, Xiaomi, Instagram kabi yirik kompaniyalarni keltirish mumkin.

Bunday biznes turlarida tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lganligi uchun ham ular ko‘pincha *venchur jamg‘arma* deb nomlanuvchi investitsion jamg‘armalar mablag‘lari hisobiga ish boshlaydi.

Venchur jamg‘armalari (ing. venture – qaltis ish) - qaltisligi, tavakkalchiligi yuqori darajada bo‘lgan investitsion jamg‘arma bo‘lib, ular asosan innovatsion korxona (startap)lar bilan ishlashga yo‘naltirilgandir. Venchur jamg‘armalari qaltislik darajasi juda yuqori bo‘lgan va favqulodda darajadagi yuqori foyda olinishi kutilayotgan korxonalarga investitsiya kiritadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham startaplar tog‘risida ko‘p gapirila boshlandi. Vatanimizda kelajakda katta foyda beradigan, lekin

http://eduportal.uz

tavakkalchilik ham yuqori bo‘lgan biznes turlari va shug‘ullanmoqchi bo‘lgan yosh tadbirkorlar talaygina. Ularga faqat pul – boshlang‘ich kapital kerak. Xo‘sh, bizda venchur investitsiyalar kiritish hali unchalik rivojlanmagan bo‘lsa, bunday tadbirkor qanday ish tutsin?

Buning uchun bo‘lajak investorlar bir narsani tushunib olishlari kerak bo‘ladi. Startapga investitsiya kiritish – bu kredit berish emas. Ya’ni, kiritilgan investitsiyalar kredit uchun to‘langandagidek kichkina foiz bilan qaytmaydi, balki bu mablag‘ bir necha karra ko‘paygan holda qaytariladi. Lekin bu joyda qaltislik, ya’ni mablag‘ingizni butunlay yo‘qotib qo‘yishingiz havfi ham bir necha barobar ko‘p.

O‘zbekistonda startap uchun mablag‘ni yosh tadbirkor qayerdan topadi?

Buning bir nechta yo‘li bor:

1. Eng oddiy yo‘l – bu qarindoshlar va do‘stlarga murojaat qilish, ularni g‘oyangizga qiziqtirish.

2. Bank kreditini olish.

3. *Kraudfanding* – g‘oyangizga qiziqib qolgan anchagina ko‘p sonli odamlarning uncha katta bo‘lmagan mablag‘larini to‘plash va ularni hamkoringizga aylantirish. Bunday ish odatda internetda tashkil qilingan maxsus kraudfanding maydonchalari orqali tashkil qilinadi yoki ijtimoiy tarmoqlar e’lonlarida g‘oyalar yoritilib ularga qiziquvchilar izlanadi.

4. Xususiy kompaniyalar va davlat grantlari.

5. Biznesmenlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashib, ularni g‘oyaga qiziqtirish va moliyalashtirishga jalb qilish.

6. *Startap-akseleratorlar*. *Startap-akseleratorlar* – bu nafaqat startaplarni moliyalashtirishda qatnashadi, balki startap muassislariga o‘ziga xos maktab vazifasini ham bajaradi. Startap-akselerator o‘ziga istiqbolli startap g‘oyalarini izlayotgan investorlarni birlashtirgan yosh kompaniyalarning o‘sishiga va rivojlanishiga ko‘maklashuvchi ijtimoiy tashkilotdir. Ya’ni, agar siz startap-akseleratorni biznes-loyihangizga qiziqtirib hamkorlikka ko‘ndira olsangiz u holda startap-akselerator sizni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlab, maslahatlar berib, oyoqqa turib olishingizga ham yordamlashadi.

http://eduportal.uz

Startap muassislari bo‘lgan yosh tadbirkorlar uchun zarur narsalarning eng muhimlaridan bittasi (mablag‘dan tashqari albatta!) — bu biznes faoliyatni boshlash va ish yuritish uchun ofisning mavjudligidir. Bunda hozir mamlakatimizning turli shahar va tumanlarida tashkil qilinayotgan yangi va yosh tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan maxsus joylar — *kovorkinglar* asqotadi. Kovorking (ing. *Co-working* - birgalikdagi ish) — bu yangi tadbirkorlar uchun umumiy, birgalikda foydalanadigan ofis vazifasini o‘taydi. Bu joyda o‘z ishini boshlagan yangi startapchilar yoki boshlamoqchi bo‘layotgan yoshlar birgalikda uchrashib bir-birlari bilan o‘zaro foydali aloqalarni o‘rnatishlari ham mumkin. Axir muvaffaqqiyatli biznesning eng muhim jihatlaridan biri — bu zarur kishilar bilan o‘zaro nafli aloqalar tizimini (“to‘r”ini) yaratish emasmi? Zamonaviy tilda bunday aloqalarni o‘rnatish *networking* (ing. *networking* — to‘r to‘qish) deb yuritiladi. Networking orqali yosh tadbirkorlar yangi mijozlarni topish, yaxshi xodimlarni ishga jalb qilish, investorlarni qiziqtirish, joriy muammolarga yechim izlash kabi foydali ishlarda hammaslak, hamkorlar bilan aloqa o‘rnatishlari mumkin. Bizning milliy mentalintetimizga xos bo‘lgan hamkorlik, hamjihatlik, hammaslaklik kabi qadriyatlar ham mana shu networking deb atalayotgan biznes- atamada namoyon bo‘ladi.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1. Mutolaa uchun yuqorida berilgan materialdan sizga ilgari notanish bo‘lgan atamalarni ajratib yozing.
2. Bu atamalarning har biriga matndan tushunganlaringiz asosida ta’rif bering.
3. Bu atamalarni bir-birlari bilan mantiqiy uzviylikda, sxematik ravishda tutashtiring. Ya’ni, qaysi atama qaysinisi bilan bog‘liq, qaysi atama qaysinisini to‘ldiradi, qaysi atama qaysinisidan kelib chiqadi? Shu tarzda bir qaraganda murakkab tuyulgan bog‘lanishlar siz uchun mantiqiy mazmunga ega jarayonlarning ifodasi sifatida soddalashgan tarzda namoyon bo‘la boshlaydi.

http://eduportal.uz

Iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvini keskin kamaytirish lozim.

Shavkat Mirziyoyev

II bob. Davlat va iqtisodiyot

http://eduportal.uz

11- MAVZU DAVLATNING IQTISODIY VAZIFALARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining erkinligi va sof raqobat muhitining saqlanishini kim ta’minlaydi?
2. Har bir mamlakatda kam ta’minlangan oilalar, qariyalar, yosh bolalar bor. Ularning ijtimoiy ta’minoti bilan kim, qay tariqa shug‘ullanadi?
3. Tabiat muhofazasi bilan kim shug‘ullanishini bilasizmi? Bunda qanday choralar ko‘rilishi haqida bilganlaringizni ayting.
4. Maktabingiz qanday mablag‘lar hisobiga qurilgan va jihozlangan? O‘qituvchilarga maoshni kim to‘laydi? Buning uchun mablag‘ qayerdan, qay tariqa olinishini bilasizmi?

Har qanday davlat o‘z fuqarolarining iqtisodiy faoliyat yuritishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Chunki ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishidan nafaqat davlat, balki jamiyat ham manfaatdordir.

Har qanday davlat oldida quyidagi iqtisodiy maqsadlar turadi:

- **Iqtisodiy erkinlik** — iqtisodiyot qatnashchilarining mustaqil va erkin iqtisodiy qarorlar qabul qilishini ta‘minlash.

• **Iqtisodiy samaradorlik** — minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish uchun imkoniyatlar yaratish.

• **Iqtisodiy tenglik** — barcha iqtisodiy xatti-harakatlarni adolatli amalga oshirish uchun sharoit yaratish.

• **Iqtisodiy xavfsizlik** – aholini iqtisodiy bo‘hronlardan, qashshoqlik, ishsizlik, inflatsiya oqibatlaridan himoya qilish.

• **Iqtisodiy o‘sish** – tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining muttasil o‘sib borishini ta‘minlash.

Shunday muammo va vazifalar borki, ularni bozorning o‘zi hal qila olmaydi. Shu bois, bu vazifalar davlat zimmasiga yuklanadi. Bular quyidagilar: halol raqobat muhitini yaratish, bozor haqida ma’lumotlar olishda hammaga birdek imkoniyatlar yaratish, qo‘shimcha tashqi ta’sirlarni tartibga solish, *ijtimoiy tovar va xizmatlar*ni ishlab chiqarish. Mamlakat xavfsizligini ta’minlash, atrof-muhitni himoya qilish, ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash sohalarini rivojlantirish kabi qator ijtimoiy xizmatlar borki, ularni tashkil qilish hamda boshqarishni faqat markazlashgan holda amalga oshirish zarur. Ulardan faqat *birgalikda foydalanish* mumkin. Bu xizmatlarni faqat haqini to‘laganlarga ko‘rsatib, boshqalarni esa bundan foydalana olmaydigan qilib, cheklab bo‘lmaydi. Bu ijtimoiy tovar va xizmatlarning *cheklab bo‘lmaslik xususiyati*dir. Bundan tashqari, bunday faoliyat natijasi har doim ham bevosita foyda olishga qaratilmagan. Shuning uchun ham bu ijtimoiy ne’matlarni yaratish ko‘pincha tadbirkorlar e’tiboridan chetda qoladi va u bilan davlat shug‘ullanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, davlat o‘z zimmasiga quyidagi iqtisodiy vazifalarni oladi:

Ijtimoiy ne’matlar — bozor taqdim eta olmaydigan, davlat tomonidan ishlab chiqariladigan va mamlakat aholisi tomonidan birgalikda iste’mol qilinadigan tovar va xizmatlar.

Birgalikda iste’mol qilinish xususiyati — tovar va xizmatlarning ko‘plab odamlar tomonidan bir vaqtning o‘zida iste’mol qilinishi.

Iste’molni cheklab bo‘lmaslik xususiyati — haqi to‘lanmagan taqdirda odamlarni bu tovar va xizmatlarni iste’mol qilishdan cheklab qo‘ya olmaslik.

1. Jamiyatning huquqiy va ijtimoiy asosini saqlab turish. Davlat insonlarning jamiyatda yashashi, faoliyat ko‘rsatishiga oid va ular o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi qonun va huquqiy me’yorlarni o‘rnatadi, qonun oldida barchaning tengligini kafolatlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

http://eduportal.uz

2. Raqobatni qo‘llab-quvvatlash. Davlat monopoliyaga qarshi kurashadi, raqobatni himoya qiladi va rag‘batlantirib turadi.

3. Ijtimoiy ne’matlar — tovar va xizmatlar bilan ta’minlash. Davlat bozor taqdim eta olmaydigan, lekin jamiyat uchun zarur bo‘lgan atrof-muhitni muhofaza qilish, mudofaa, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi sohalarda tovar va xizmatlarni ishlab chiqaradi va aholiga taqdim etadi.

4. *Qo‘shimcha* tashqi ta’sirlarni tartibga solish. Ma’lumki, har qanday tovar va xizmatlarning bevosita ishlab chiqaruvchisi va iste’molchisi bo‘ladi. Lekin shunday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonlari ham borki, ular nafaqat ishlab chiqaruvchi va iste’molchiga taalluqli bo‘ladi, balki bu jarayonga bevosita aloqasi bo‘lmagan uchinchi tomonga ham ta’sir qiladi. Masalan, zavod mo‘risidan chiqayotgan tutun bu zavoddagi ishlab chiqarish jarayoniga hech qanday aloqasi bo‘lmagan, zavod atrofida yashayotgan aholi salomatligiga ta’sir qiladi. Bu holat iqtisodiyotda *qo‘shimcha tashqi ta’sir* deb yuritiladi. Bunday tashqi ta’sirlarni tartibga solish ham davlat zimmasiga yuklatiladi. Agar tashqi ta’sir salbiy bo‘lsa, uning oldini olish choralari ko‘riladi. Agar ijobiy bo‘lsa, bunday ishlab chiqarish qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, davlat atrof-muhitni ifloslantirib, tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi korxonalarga jarima va soliqlar belgilaydi, ta’limni rivojlantirib, butun iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi muassasalarga esa moliyaviy imtiyozlar beradi.

***Qo‘shimcha* tashqi ta’sir** — tovarni ishlab chiqarish yoki iste’mol qilish jarayonida, ishlab chiqaruvchi va iste’molchidan tashqari, uchinchi tomonning ko‘radigan naf yoki zarari.

5. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash. Davlat kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish, boy kishilardan daromadiga mos soliq undirish, talabalarga stipendiyalar berish orqali daromadlarni qayta taqsimlab turadi.

6. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish. Davlat inflatsiyani nazorat qilish, ishsizlikning oldini olish, davlat budjeti va pul massasini nazorat qilish bilan iqtisodiyotni muvozanatda saqlab turadi.

Bilasizmi?

Davlatning iqtisodiyotda tutgan o‘rni haqida turli, bir-biriga zid fikrlar mavjud. Birinchi tomonning fikricha, davlatning roli keskin qisqartirilishi kerak, chunki davlatning iqtisodiyotga keragidan ortiq aralashuvi iqtisodiy erkinlikni cheklab qo‘yishi mumkin. Ikkinchi tomon, davlatning rolini oshirish tarafdori. Chunki shunday muammolar borki, bozor ularni davlatning ishtirokisiz hal qila olmaydi.



Yuqorida davlatning turli faoliyat yo‘nalishlari keltirilgan.

1. Davlatning har bir faoliyat yo‘nalishiga misol keltiring.
2. Keltirgan misollaringizdagi davlatning iqtisodiy vazifalarini muhimlik darajasi kamayib borishi tartibida yozib chiqing.
3. Davlatning bu vazifalarni bajarishidan sizga qanday naf bor?
4. Nima sababdan aynan davlat bu faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi kerak?
5. Davlatning yana qanday iqtisodiy vazifalarini bilasiz?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Davlat oldida qanday iqtisodiy maqsadlar turadi? Ularni sharhlang.
2. Davlatning iqtisodiy vazifalari haqida nimalarni bilasiz? Nima sababdan davlat bu vazifalarni o‘z zimmasiga oladi?
3. Davlatning iqtisodiy vazifalariga misollar keltiring.
4. Ijobiy va salbiy qo‘shimcha tashqi ta’sirga misollar keltiring.
5. Ijtimoiy tovarlar qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
6. Agar xususiy firma ijtimoiy tovar ishlab chiqarsa, u qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin?

Buni yodda tuting!

- Tovar va xizmatlar ikki xil bo‘ladi: ijtimoiy ne’matlar va xususiy firmalar tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar.
- Ijtimoiy ne’matlar davlat tomonidan alohida taqdim etiladi.
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning juda muhim vazifalari mavjud.

http://eduportal.uz

12- MAVZU DAVLAT BUDJETI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Siz “maktab davlat budjeti hisobidan qurilgan” degan gaplarni eshitgansiz. Shuningdek, kasalxona, oilaviy poliklinika “davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriladi” qabilidagi gaplar ham qulog‘ingizga chalingandir.

1. Davlat budjeti haqida nimalarni bilasiz?
3. 3–6- rasmlarda tasvirlangan kishilar faoliyati kim tomonidan va nimaning evaziga moddiy ta’minlanadi, deb o‘ylaysiz?
4. O‘tgan darsda siz davlatning vazifalari bilan tanishdingiz. Davlat o‘z vazifalarini bajarish uchun mablag‘ni qayerdan oladi?

Davlat budjeti davlatning bir yillik daromadlari va xarajatlari rejalashtirilgan asosiy moliyaviy hujjatdir. Davlat budjetini tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad davlat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun moliyaviy asosni shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning istiqboldagi rejasini amalga oshirish, aholi daromadlarini qayta ko‘rib chiqishdir. Davlat budjeti daromad va xarajat qismlaridan tashkil topadi.

Davlat budjeti — davlatning bir yillik daromadlari va xarajatlari rejalashtirilgan asosiy moliyaviy hujjati.

Davlat budjetining daromad manbalariga quyidagilar kiradi:
— fuqarolar daromadidan olinadigan soliqlar;
— korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar;
— davlat korxonalarining foydasi;
— davlat qimmatli qog‘ozlarini sotishdan tushgan pul;
— davlat mulkini sotishdan tushgan mablag‘lar;
— davlat boji va boshqa tushumlar.

Boj — davlat muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan ba’zi bir xizmatlar uchun yoki davlat hududiga ayrim turdagi tovarlarni olib kirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lanadigan haq.

Davlat hududiga ayrim turdagi tovarlarni olib kirganlik uchun yoki davlat muassasalari tomonidan ko‘rsatilgan ayrim xizmatlar uchun davlatga to‘lanadigan maxsus to‘lov turi *davlat boji* deb ataladi. Aytib o‘tish lozimki, soliqlar davlat budjeti daromad qismining asosiy manbasi hisoblanadi. Shu manbalar asosida davlat o‘z pul mablag‘larining markazlashgan jamg‘armasi — davlat budjetining daromad qismini hosil qiladi va uni yil davomida xarajat qiladi.

Budjet mablag‘lari quyidagi sohalarga sarflanadi:
— ta’lim va fan, madaniyat va san’at;
— sport va sog‘liqni saqlash;
— milliy xavfsizlik;
— qarilik va nogironlik pensiyalari, nafaqalari hamda stipendiyalar;
— ishsizlik nafaqalari va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam;
— atrof-muhitni himoya qilish;
— jamoat tartibini saqlash;
— davlat korxonalari va boshqaruv organlarining moliyaviy ta’minoti;
— ba’zi bir davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan sohalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va boshqalar.

http://eduportal.uz

Ko‘rib turganingizdek, davlat budjeti mablag‘lari, asosan, jamiyat uchun zarur tovar va xizmatlar sotib olishga, aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan transfert to‘lovlariga sarflanar ekan.

Bilasizmi?
O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Yil yakunlangandan so‘ng hukumat budjetning ijrosi bo‘yicha Oliy Majlisga hisobot beradi.

Transfert to‘lovlari — davlat budjetidan aholining moddiy jihatdan kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash uchun sarflanadigan mablag‘lar.

Odatda, davlat budjetining daromad va xarajat qismlari o‘zaro teng bo‘lmaydi. Ko‘pincha, daromadga qaraganda xarajat ko‘proq bo‘ladi. Davlat budjetining xarajatlari va daromadlari o‘rtasidagi musbat farqni *budjet kamomadi* deb atashadi. Yillar davomida jamlanib kelingan budjet kamomadining jami miqdori *davlat qarzi*ni tashkil qiladi. Davlat qarzi ichki va tashqi qarz ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ichki qarz davlatning o‘z fuqarolari, firma va tashkilotlari oldidagi majburiyatlari bo‘lsa, tashqi qarz chet el davlatlari, xalqaro banklar va moliyaviy muassasalar oldidagi qarzidir. Davlat budjetining daromadlari xarajatlaridan ortiq bo‘lgan holda davlat budjeti profitsiti yuzaga keladi.

Budjet kamomadi — davlat budjetining xarajatlari daromadidan ko‘p bo‘lgan holdagi xarajatlar va daromadlar orasidagi farq.

Budjet profitsiti — davlat budjeti daromadlarining xarajatlaridan ko‘p bo‘lgan holdagi daromadlar va xarajatlar orasidagi farq.

Davlat qarzi — yillar davomida yig‘ilib qolgan budjet kamomadining jami miqdori.

DAVLAT BUDJETINING XARAJATLARI VA DAROMADLARI



O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2019- yil uchun asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd so‘m hisobida)

Daromad manbalari	*Miqdori*
Bevosita soliqlar	29125,5
Bilvosita soliqlar	47029,8
Mulk solig‘i va resurs to‘lovlari	16906,0
Boshqa daromadlar	9566,3
Jami daromadlar	102627,6

Xarajatlar qismi (mlrd so‘m hisobida)

Ijtimoiy soha va aholini himoya qilish	58012,1
Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun mablag‘lar va grantlar	28,6
Iqtisodiyot	14099,8
Markazlashtirilgan investitsiyalar	3906,2
Davlat boshqaruvi	3749,4
Boshqa xarajatlar	27322,3
Jami xarajatlar	107118,4

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019- yilgi davlat budjeti daromad qismining har bir bandini foizlarda ifodalang va doiraviy diagrammada tasvirlang.
2. Davlat budjeti xarajat qismining har bir bandini foizlarda ifodalang va doiraviy diagrammada tasvirlang.
4. Davlat budjetidan eng ko‘p mablag‘ qaysi sohaga sarflanayapti?
5. Davlat budjetining daromad va xarajat qismlarini o‘zaro taqqoslang.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Davlat budjeti nima va u nima uchun kerak?
2. Davlat budjetining daromad qismi manbalarini sanang. Bu daromadlar qanday maqsadlarga ishlatiladi?
3. Davlat budjetining xarajat qismi daromad qismidan ko‘p bo‘lsa, nima bo‘ladi? Kam bo‘lsa-chi?
4. Budjet kamomadini kamaytirishning qanday yo‘llari bor?
5. Davlat qarzi nima? Uning qanday ko‘rinishlari bor?

Buni yodda tuting!

- Davlat budjeti mamlakatning yillik asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, unda davlatning daromad manbalari va xarajatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi.
- Davlat budjetining daromad qismi, asosan, soliqlar hisobidan shakllantiriladi.

http://eduportal.uz

13- MAVZU BANK TIZIMI





FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi rasmni sinchiklab ko‘zdan kechiring va quyidagi savollarga javob bering:

1. Banklar pulni qayerdan oladi?
2. Banklarning qanday vazifalarini bilasiz?
4. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan qanday banklarni bilasiz?
5. Oila a’zolaringiz bankning qanday xizmatlaridan foydalanadi?

Mamlakatda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi bozor infratuzilmalarining ko‘pligi va ular xizmatining nechog‘lik to‘g‘ri tashkil qilinganligiga bog‘liq bo‘ladi. Bozor infratuzilmasining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bu — bank.

Juda qadim zamonlardayoq omonatga olish va qo‘yish amaliyoti qo‘llanilgan. Bu bilan odatda alohida odamlar yoki diniy idoralar shug‘ullangan. Masalan, bunday amaliyot bilan Qadimgi Yunon ibodatxonalari shug‘ullanganliklari tarixdan ma’lum. Ularda omonat, qarzga berish, hatto foiz undirish kabi faoliyatlarni amalga oshirgan. Keyinroq, pul almashtirishga ham ehtiyoj paydo bo‘la boshladi.

http://eduportal.uz

Yevropadagi ilk pul almashtiruvchilar savdo maydonlarining gavjum joylarida kursi qo‘yib ishlaganlar. Shuning uchun ham bank so‘zi italyanchadagi *banco* - ya’ni *kursi* so‘zidan kelib chiqqan.

Bank aholi, firma va korxonalarga pul va qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lgan turli xizmatlar ko‘rsatuvchi moliyaviy muassasadir.

O‘zbekistonning bank tizimida rivojlangan mamlakatlar bank tizimidagi barcha amaliyotlar amalga oshiriladi. Xususan, mamlakatimizda banklar:

— pul va qimmatbaho qog‘ozlarni muomalaga chiqaradi (emissiya qiladi);

— aholi va firmalar mablag‘larini saqlab beradi;

— aholi va firmalarga ma’lum foiz evaziga qarz beradi;

— turli qimmatbaho buyumlarni saqlab beradi;

— boshqa davlatlar pullarini sotib oladi va sotadi;

— qimmatbaho qog‘ozlarni sotib oladi va sotadi;

— to‘lov va hisob-kitob ishlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi.

Bank o‘ziga xos umumiy jamg‘arma bo‘lib, aholi qo‘lida “ishlamay yotgan” pullarni “ishlashga” majbur qiladi. Jamg‘arilgan pullarni, pulga muhtoj bo‘lgan tadbirkorlarga ma’lum foiz evaziga qarzga beradi. Tadbirkorlar esa, o‘z navbatida, bu pullarni ishlab chiqarishga sarflab, iqtisodiy ne’mat yaratadi. Shu tariqa, bank iqtisodiyotning rivojiga hissa qo‘shadi.

Odatda banklar ikki turga bo‘linadi: markaziy bank va tijorat banklari. Markaziy va tijorat banklari birgalikda mamlakatning ikki pog‘onali bank tizimini tashkil qiladi. Markaziy bank davlatga qarashli bo‘lishi ham, qarashli bo‘lmasligi ham mumkin. Markaziy bank davlatga qarashli bo‘lgan holatda, unga davlatning asosiy banki sifatida davlat ahamiyatiga ega huquq va vazifalar yuklatiladi. Markaziy bank quyidagi vazifalarni bajaradi:

— mamlakat milliy valutasini va qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqaradi;

— mamlakatda pul muomalasini tartibga solib, muomaladagi pul miqdorini nazorat qiladi;

— tijorat banklariga ma’lum foizda qarz beradi;

— chet el valutalarining milliy valutaga nisbatan kursini belgilaydi;

— tijorat banklari faoliyatini nazorat qiladi;

— mamlakatning pul va oltin zaxiralarini saqlaydi.

Shu bois, markaziy bank — “banklarning banki” hisoblanadi va u faqat tijorat banklariga xizmat ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda Markaziy bank davlatga tegishlidir.

Tijorat banklari aholi, firma va tashkilotlarga xizmat ko‘rsatadi. Tijorat banklari:

http://eduportal.uz

— markaziy bankdan qarzga pul oladi;
— pul mablag‘larini saqlaydi va jamg‘arishda ko‘maklashadi;
— pulga muhtoj bo‘lgan mijozlarga qarz (kredit) beradi;
— chet el valutalarini sotib oladi va sotadi;
— qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi va sotadi;
— o‘z mijozlarining pul bilan bog‘liq hisob-kitob ishlarini bajaradi.

Bankka qo‘yilgan mablag‘ *omonat* yoki *depozit* deb yuritiladi. Bankka mablag‘ qo‘ygan mijozlar omonatchilarga aylanadilar. Agar bank omonatchilarning pul mablag‘larini ularga ma’lum haq (foiz) to‘lash sharti bilan ma’lum muddatga saqlab berish majburiyatini olsa, bunday omonatlar *muddatli depozitlar* deb yuritiladi. Agar bank omonatni istalgan payt omonatchiga qaytarish majburiyatini olgan bo‘lsa, bunday omonat *joriy depozit* deb yuritiladi. Birinchi holda bank mijozining pul mablag‘ini jamg‘arishga va buning evaziga foiz ko‘rinishidagi daromad olishiga ko‘maklashsa, ikkinchi holda esa mablag‘ni saqlashga, mijozning birinchi talabiga ko‘ra qaytarishga yoki biror to‘lovni amalga oshirishga yordam beradi.

Tijorat banki — aholi, firma va tashkilotlarga xizmat ko‘rsatuvchi bank.

Depozit — omonat yoki bankka qo‘yilgan mablag‘.

“Qarz” bank tilida *kredit* deb ataladi (lotinchada creditum – qarz ma’nosini anglatadi). Albatta, bank mijozga qarz berib turganligi uchun mijoz bankka qarz haqi to‘laydi. Qarz haqi — *kredit foizi* deb ataladi. Kredit foizi miqdori yillik foiz stavkasiga qarab belgilanadi.

$$\text{Kreditning yillik foiz stavkasi} = \frac{\text{Kredit haqi}}{\text{Kredit miqdori}} \cdot 100\%$$

Masalan, kichik korxona bankdan 40 million so‘mni bir yil muddatga 20% yillik foiz stavkasi bilan olgan bo‘lsin. Demak, korxona bir yildan so‘ng 40 million so‘mni qaytarish bilan birga, bankka qarzning 20% miqdorida, ya’ni 40000000 · 20%=8000000 so‘m miqdorda qo‘shimcha haq ham to‘laydi. Agar bu qarzni ikki yilga olgan bo‘lsa, kredit foizi miqdori ikki marta ko‘p bo‘ladi, ya’ni 16000000 so‘mni tashkil qiladi va hokazo.

Umuman olganda, olingan qarz, kredit miqdori — P, yillik foiz stavkasi — r, olingan qarzni qaytarish muddatini — t deb olsak, u holda

http://eduportal.uz

kredit foizi miqdori — I quyidagi formula yordamida topiladi: $I = P \cdot r \cdot t$. Bankka qaytariladigan pul miqdori $S=P+I$ formulaga ko‘ra aniqlanadi.

Aytaylik, “Ziyo” firmasi “Savdogarbank” dan 100 mln so‘mni yarim yilga 20% yillik foiz stavkasi bilan olayotgan bo‘lsin. Firma bankka

$$I = P \cdot r \cdot t = 100000000 \cdot 20\% \cdot 0{,}5 = 100000000 \cdot 0{,}2 \cdot 0{,}5 = 10000000 \text{ so‘m}$$

kredit foizi to‘lab, yarim yildan so‘ng yuz million so‘m pulni, jami $S = P + I = 100000000 + 10000000 = 110000000$ so‘m qilib qaytaradi.

Bu kredit foizini hisoblashning *oddiy foizlar usuli* deb ataladi.

Yana shuni ham aytib o‘tishimiz kerakki, banklar kredit foiz miqdorlarini yana boshqa usullar bilan ham hisoblashadi. Masalan, bank yillik kredit foizini asosiy qarzga qo‘shib, keyingi yili kredit foizini shu summadan hisoblab borishi mumkin. Bu holatda, bank yillik foiz stavkasi — r bo‘lgan, n yilga olingan P so‘m miqdordagi qarzni n yildan so‘ng $P_n=P \cdot (1 + r)^n$ so‘m qilib qaytarishi lozim bo‘ladi. Bu usul *murakkab foizlar usuli* deb ataladi.

Kredit — bank tomonidan mijozlariga berilgan qarz.

Kredit foizi — berilgan qarzdan foydalanganlik uchun kredit oluvchi tomonidan bankka to‘lanadigan haq.

Kreditning yillik foiz stavkasi — yil davomida qarzdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqning asosiy qarz miqdoriga nisbatan foiz miqdori.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Bankning paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘lgan?
2. Bankka pul qayerdan tushadi?
3. Bankning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rnini tushuntirib bering.
4. Markaziy va tijorat banklarining farqi nimada?
5. Markaziy bankning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini ayting.
6. Tijorat banklarining vazifalarini ayting.

Buni yodda tuting!

- Banklarning eng asosiy vazifasi omonatlarni saqlash va qarz berish bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi.
- Mamlakatimizda ikki pog‘onali bank tizimi joriy qilingan bo‘lib, Markaziy bank tijorat banklariga, tijorat banklari esa korxona, firma va aholiga tegishli xizmatlarni ko‘rsatadi.

http://eduportal.uz

14- MAVZU DAVLATNING IQTISODIYOTDAGI ROLI



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi chizmada davlat tomonidan soliq stavkasi oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyotida sodir bo'lgan o'zgarishlar tasvirlangan. Siz soliq stavkasi kamaytirilgan holatda mamlakat iqtisodiyotida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni taxmin qiling va sharhlang.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining iqtisodiy siyosatini ma'muriy yo'l bilan emas, balki bozor mexanizmi orqali amalga oshiradi. Jumladan, davlatning budjet-soliq (fiskal) va pul-kredit (monetar) siyosatlarini farqlash qabul qilingan.

Ma'lumki, davlat budjetining daromad qismi, asosan, soliqlardan, xarajat qismi davlat ehtiyojlari uchun zarur tovar va xizmatlar sotib olish xarajatlari va aholiga to'lanadigan transfert xarajatlaridan iborat bo'ladi. *Davlatning budjet-soliq (fiskal) siyosati* asosida xuddi shu soliqlar, davlat xarajatlari va transfert to'lovlari miqdorini o'zgartirish yordamida *yalpi talab* va *yalpi taklif* hajmiga ta'sir qilish yotadi.

Masalan, agar soliqlar oshirilsa, aholi va firmalar ixtiyorida kamroq pul qoladi. Bu holatda tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talab kamayadi. Bu holat tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning kamayishiga, aholining

http://eduportal.uz

ish bilan ta'minlanganlik darajasining pasayishiga olib keladi. Aksincha, agar soliqlar kamaytirilsa, aholi va firmalar ixtiyorida ko'proq pul qoladi. Bu holatda tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talab oshadi. Bu esa, o'z navbatida, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning ko'payishiga, aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasining oshishiga olib keladi.

Xuddi shu kabi, agar davlat soliqlarga tegmasdan o'z xarajatlarini yoki transfert to'lovlarini oshirsa, tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talabi oshadi. Bu esa, o'z navbatida, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning ko'payishiga, aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasining oshishiga yoki inflatsiya darajasining oshishiga olib keladi. Aksincha, agar soliqlar o'zgarishsiz qolib, davlat xarajatlari yoki transfert to'lovlari kamaytirilsa, tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talab kamayadi. Bu esa tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning kamayishiga, aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasining pasayishiga yoki inflatsiya darajasining pasayishiga olib keladi. Ko'pchilik hollarda, davlat bir vaqtning o'zida ham davlat xarajatlarini, ham soliqlar stavkasini o'zgartirish bilan iqtisodiyotni barqarorlashtirishga urinadi.

Davlatning budjet-soliq (fiskal) siyosati — davlat budjetining daromad va xarajat qismlarini o'zgartirish yordamida iqtisodiyotni tartibga solish.

Yalpi talab — mamlakatda ma'lum vaqt davomida sotib olinishiga ehtiyoj va imkoniyat bo'lgan tovar va xizmatlarning umumiy qiymati.

Yalpi taklif — mamlakatda ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarilishi va bozorga chiqarilishi imkoniyati bo'lgan tovar va xizmatlarning umumiy qiymati.

Davlat budjeti kamomadining miqdori mamlakatda ishlab chiqarilgan bir yillik yalpi mahsulot hajmining 2—3 foizi miqdorida bo'lishi normal holat hisoblanadi. Lekin kamomad hajmi haddan tashqari oshib ketganda, uni kamaytirish chora-tadbirlari ko'rilishi lozim bo'ladi. Davlat budjetining kamomadini quyidagi yo'llar bilan kamaytirishi mumkin: 1. Davlat xarajatlarini kamaytirish; 2. Qo'shimcha daromad manbalarini topish; 3. Tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagan, ortiqcha pulni muomalaga chiqarish; 4. O'z fuqarolaridan, firmalardan, chet el hukumatlari, xalqaro bank va moliyaviy muassasalaridan qarz olish.

Davlat o'zining *pul-kredit siyosati*ni markaziy bank orqali olib boradi. Ma'lumki, markaziy bank va tijorat banklari birgalikda mamlakatning

ikki pog‘onali bank tizimini hosil qiladi. Markaziy bank davlatga tegishli bo‘lib, u orqali davlat mamlakatda muomaladagi pul massasini tartibga solib turadi. Markaziy bankning vazifalaridan biri ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar qiymatiga mos miqdordagi pulni muomalaga chiqarishdan iboratdir. Muomalaga pul chiqarish *pul emissiyasi* deb ataladi. Qog‘oz pul va tanga ko‘rinishdagi naqd pullarni faqat markaziy bank chiqaradi va tarqatadi.

Pul massasi — mamlakatdagi muomalada bo‘lgan jami pul mablag‘lari yig‘indisi.

Davlatning pul-kredit (monetar siyosati) — mamlakatda muomalada bo‘lgan pul massasini va kredit foiz stavkasini tartibga solish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

Pul emissiyasi — davlat tomonidan muomalaga pul chiqarish.

Tijorat banklari esa bu pulni o‘z mijozlari — firma va aholiga yuqoriroq foiz stavkasida qarzga beradi. Shu tariqa, ikki pog‘onali kredit tizimi vujudga keladi. Bu holatda, agar davlat muomaladagi pul miqdorini kamaytirib, inflatsiyaning oldini olmoqchi bo‘lsa, markaziy bankning tijorat banklariga beradigan qarzlarining foiz stavkasi oshiriladi. O‘z-o‘zidan tijorat banklari ham mijozlariga beradigan qarzlari foiz stavkasini oshiradi. Natijada, tijorat banklari mijozlari, firma va aholi yuqori foiz stavkali qarzlarni olmay qo‘ya boshlaydi. Muomaladagi pul miqdori kamaya boshlaydi. Mablag‘ yo‘qligi tufayli tadbirkorlar faoliyati ham susaya boshlaydi. Aksincha, agar davlat muomaladagi pul miqdorini oshirib, tadbirkorlarni mablag‘ bilan ta’minlab, ularning faolligini oshirmoqchi bo‘lsa, markaziy bank qarzlarining foiz stavkasi kamaytiriladi.

Markaziy bank muomaladagi pul miqdorini tijorat banklarining zaxira normalarini belgilash orqali ham nazorat qilib borish imkoniyatiga ega. Tijorat banklarining mablag‘lari ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi bank ixtiyorida bo‘lgan mablag‘lar bo‘lsa, ikkinchisi banklarning zaxira mablag‘laridir. Tijorat banklarining zaxira mablag‘lari muomaladagi pul massasini nazorat qilish va pul muomalasini tartibga solish maqsadida markaziy bankda jamg‘arib qo‘yiladigan mablag‘laridan iborat bo‘ladi.

Tijorat banklari barcha mablag‘larining qancha qismini (qancha foizini) zaxiraga olib qo‘yishlari ham markaziy bank tomonidan belgilanadi va bu ko‘rsatkich *banklarning zaxira normasi* deb yuritiladi. Markaziy bank tijorat banklarining zaxira normalarini oshirish yoki kamaytirish orqali ham muomaladagi pul miqdorini kamaytirib yoki

http://eduportal.uz

oshirib, tartibga solib turish imkoniyatiga ega. Masalan, agar markaziy bank tijorat banklari zaxira normasining miqdorini oshirsa, kreditga beriladigan mablag‘ miqdori kamayadi. Natijada, muomaladagi pul miqdori kamaya boshlaydi. Aksincha, agar markaziy bank zaxira normasini kamaytirsa, tijorat banklarini kreditga berishi mumkin bo‘lgan mablag‘lari miqdori oshadi, muomalaga ko‘p pul chiqariladi. Ko‘rib turganingizdek, zaxira normasining o‘zgarishi ham davlatning bank tizimi orqali iqtisodiyotga, xususan, inflatsiyaning oldini olish, narxlarni jilovlab turish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga ta’sir o‘tkazish uchun xizmat qiladi.

Bankning zaxira mablag‘i — bankning zaxira sifatida markaziy bankda saqlashi lozim bo‘lgan pul mablag‘i.

Bankning zaxira normasi — markaziy bank tomonidan belgilanadigan, bank zaxira mablag‘ining jami mablag‘iga nisbatan foiz miqdori.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Davlat budjet-soliq siyosatining mohiyati nimada?
2. Davlat o‘z budjet-soliq siyosatini qaysi vositalar yordamida va qanday yuritadi?
3. Agar davlat aholining ish bilan ta’minlanganlik darajasini oshirmoqchi bo‘lsa, qanday chora-tadbirlarni ko‘rishi kerak?
4. Davlatning transfert to‘lovlarini oshirishi mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘zgarishlarga olib keladi?
5. Davlat budjeti kamomadini kamaytirishning qaysi yo‘li samarali?
6. Markaziy bank mamlakatdagi pul massasini qanday yo‘llar bilan tartibga solishi mumkin?
7. Banklar zaxira normasini belgilash nima uchun kerak?
8. Agar markaziy bank kredit foiz stavkasini ko‘tarsa, mamlakatda ishlab chiqarish sur’atlari qanday o‘zgaradi?

Buni yodda tuting!

- Davlatning budjet-soliq (fiskal) siyosatiga narxlar barqarorligi, to‘la bandlik va iqtisodiy o‘sishga qaratilgan soliqqa tortish hamda davlat budjetini muvofiqlashtirish chora-tadbirlari kiradi.
- Davlatning pul-kredit (monetar) siyosati markaziy bank tomonidan muomaladagi pul massasi va kredit berish imkoniyatlarini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi.

http://eduportal.uz

II BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Iqtisodiyotda davlatning o‘rni va maqsadlarini tushuntirib bering.
2. Bozor iqtisodiyotining noqobilliklarini sanab bering.
3. Davlatning qanday iqtisodiy vazifalari bor?
4. Davlat budjetining daromad va xarajat qismlarining tarkibini sanang.
5. Davlat qarzining paydo bo‘lish sabablarini tushuntiring.
6. Banklarning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati nimada?
7. Mamlakatimiz bank tizimi haqida so‘zlab bering.
8. Sodda misollarda kredit foizi miqdorini hisoblab bering.
9. Davlatning budjet-soliq siyosati haqida gapirib bering.
10. Davlatning pul-kredit siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Davlat budjeti;
2. Davlat qarzi;
3. Tijorat banki;
4. Depozit;
5. Kredit foizi;
6. Yalpi taklif;
7. Bankning zaxira mablag‘i;
8. Bankning zaxira normasi;
9. Davlatning pul-kredit siyosati.

TALQINLAR:

a) davlatning bir yillik daromad va xarajatlari rejasi berilgan hujjat;
b) yillar davomida yig‘ilib qolgan budjet kamomadining jami miqdori;
d) aholi, firma va tashkilotlarga xizmat ko‘rsatuvchi bank;
e) omonat yoki bankka qo‘yilgan mablag‘;
f) berilgan qarzdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haq;
g) mamlakatda ma’lum vaqt davomida jami ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar qiymati;
h) bankning zaxira sifatida markaziy bankda saqlashi shart bo‘lgan pul mablag‘i;
i) markaziy bank tomonidan belgilanadigan, bank zaxira mablag‘ining jami mablag‘iga nisbatan foiz miqdori;
j) mamlakatda muomalada bo‘lgan pul massasini va kredit foiz stavkasini tartibga solish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

http://eduportal.uz

D. 55- bet II bob titulidagi rasmlar bo‘yicha

Rasmlarning qaysilari bobdagi qaysi mavzuga taalluqli ekanligini ayting. Ushbu rasmlar asosida mavzularning mazmunini so‘zlab bering.

E. TESTLAR

1. Transfert to‘lovlari davlat tomonidan qaysi sohalarga yo‘naltiriladi?
A) Ijtimoiy ne’matlarni ishlab chiqarish uchun;
B) Kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun;
D) Raqobatni qo‘llab-quvvatlash uchun;
E) Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun.

2. Davlatning iqtisodiyot sohasidagi asosiy maqsadlari:
A) Iqtisodiy erkinlik;
B) Iqtisodiy samaradorlik;
D) Iqtisodiy tenglik va xavfsizlik;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

3. Bozorning noqobilligi deganda nima tushuniladi?
A) Barcha ijtimoiy ne’matlarni yarata olmaslik;
B) Inflatsiyaga qarshi kurasha olmaslik;
D) Monopoliyalarga qarshi kurasha olmaslik;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

4. Davlat budjetining xarajat qismi ...
A) daromad qismiga teng bo‘ladi.
B) daromad qismidan kichik bo‘ladi.
D) daromad qismidan katta bo‘ladi.
E) daromad qismidan katta ham, kichik ham, teng ham bo‘lishi mumkin.

5. Bilvosita soliq nimadan olinadi?
A) Daromaddan;
B) Mulkdan;
D) Yerdan;
E) Tovardan.

6. Davlat budjetining daromad qismi manbalariga nima kirmaydi?
A) Transfert to‘lovlari;
B) Davlat mulkini sotishdan tushgan mablag‘lar;
D) Davlatga tegishli qimmatli qog‘ozlardan tushgan dividendlar;
E) Soliqlar.

7. Quyidagilarning qaysi biri bevosita soliq turiga kirmaydi?
A) Yer solig‘i;
B) Daromad solig‘i;
D) Mulk solig‘i;
E) Qo‘shimcha qiymat solig‘i.

http://eduportal.uz

8. Quyidagi vazifalarning qaysi biri faqat Markaziy bankka tegishli?
A) Pul mablag‘larini qarzga berish;
B) Pul emissiyasi;
D) Pul mablag‘larini qarzga olish;
E) Chet el valutalarini sotib olish va sotish.

9. Qaysi tadbir davlatning pul-kredit siyosatiga taalluqli emas?
A) Pul emissiyasi;
B) Kredit foiz stavkasini tartibga solish;
D) Davlat xarajatlarini qisqartirish;
E) Davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish.

10. Qaysi tadbir davlatning budjet-soliq siyosatiga taalluqli emas?
A) Pul emissiyasi;
B) Davlat budjetining xarajat qismini qisqartirish;
D) Davlat budjetining daromad qismini ko‘paytirish;
E) Xalqaro jamg‘armalardan qarz olish.

11. Ijtimoiy tovarlar — bu ...
A) bir kishining foydalanishi bilan boshqalarning foydalanish imkoniyatlari kamaymaydigan tovarlar.
B) tovarni iste’mol qilishni, tovar uchun haq to‘laganlarning iste’mol qilishi bilan chegaralab bo‘lmaydigan tovarlar.
D) A va B tasdiqlar to‘g‘ri.
E) faqat davlat tomonidan ishlab chiqarailadigan tovarlar.

12. Quyidagilarning qaysi biri ijtimoiy tovar bo‘la olmaydi?
A) Shahar yong‘indan saqlash xizmati;
B) Xonadonlarni yoritish;
D) Shaharni seldan saqlash xizmati;
E) Ko‘chalarni yoritish.

13. Soliqlar stavkasini oshirish nimaga misol bo‘la oladi?
A) Kredit-budjet siyosatga;
B) Budjet-soliq siyosatga;
D) Pul-kredit siyosatga;
E) Pul-moliyaviy siyosatga.

14. Quyidagi choralarning qaysi biri budjet-soliq siyosatga tegishli emas?
A) Bank foydasiga solinadigan soliqlar stavkasining o‘zgartirilishi;
B) Markaziy bank tomonidan bank zaxira normalarining o‘zgartirilishi;
D) Yangi ishlab chiqarishga sarmoya kiritayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarining berilishi;
E) Kam ta’minlangan oilalar uchun ijtimoiy to‘lovlarning ko‘paytirilishi.

http://eduportal.uz

MUSTAQIL FAOLIYAT	BANK

Bank — tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

— yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

— to‘lovlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunidan.

1. Banklarni ham qaysidir ma’noda firma deb atasak bo‘ladimi?
2. Siz iqtisodiyotimizni banksiz tasavvur qila olasizmi?
3. Agar banklar bo‘lmaganida iqtisodiyotda qanday muammolar bo‘lar edi?

Bank kredit berayotganda bu mablag‘larning to‘la hajmda qaytishi bank uchun juda muhim hisoblanadi. Aks holda, bank sinadi. Shu bois banklar qarz oluvchidan biror mulkini garovga qo‘yishini talab qiladi. Agar garov sifatida kredit pullariga sotib olinadigan uskunaning o‘zi qo‘yilsa, bunday kreditlashga *lizing* deb ataladi. Agar garovga kredit pullariga quriladigan uy, bino yoki inshoot qo‘yilsa, bunday kredit *ipoteka krediti* deb ataladi.

2008- yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi AQSHda ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglikdan kelib chiqqan.

1. Garovga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan mulklarga misol keltiring.
2. Lizingga misol keltira olasizmi? Ipoteka kreditigachi?

http://eduportal.uz

Mashq. Yil boshida Aliyev 40 000 000 so‘m pulni 17% yillik foiz stavkasi bilan, Valiyev esa 60 000 000 so‘m pulni 16% yillik foiz stavkasi bilan bankka qo‘ydi.

“Samo” firmasi 100 000 000 so‘m pulni 18% yillik foiz stavkasi bilan bankdan oldi.

1. Aliyev bank bilan hamkorlik qilganidan yiliga qancha daromad ko‘rdi? Valiyevchi?
2. “Samo” firmasining bu pulni ishlab chiqarishga ishlatishi natijasida bir yillik daromadi kamida qanchani tashkil qilishi kerak? Firma bankka qancha pul qaytardi?
3. Bank yuqorida keltirilgan “ish”dan yiliga qancha daromad qildi?
4. Mazkur bank operatsiyasidan kim ko‘proq manfaat ko‘rdi?

BANKDAN QARZ OLAMIZ

Aytaylik, “Ipoteka” banki 2018- yil dekabr oyida mijozlarga “Shodlik” va “Kafolat” deb nomlangan omonatlarni saqlash turlarini taklif qilayotgan bo‘lsin.

“Shodlik” omonat turi: yillik foiz stavkasi 18%, saqlash muddati 8 oy, foiz oddiy foizlarda to‘lanadi.

“Kafolat” omonat turi: yillik foiz stavkasi 12%, saqlash muddati 8 oy, foiz murakkab foizlar usulida to‘lanadi.

Agar sizning 100 000 000 so‘m pulingiz bo‘lganda, bu ikki omonat turining qaysi biridan foydalangan bo‘lar edingiz? Keling, birga mulohaza yuritib ko‘raylik.

“Shodlik” omonat turi har bir oyda 18:12=1,5% miqdorda oddiy foiz to‘laydi. Demak, formulaga ko‘ra, bankning sakkiz oy uchun to‘laydigan foiz miqdori: $I = P \cdot r \cdot t = 100\ 000\ 000 \cdot 0{,}015 \cdot 8 = 12\ 000\ 000$ so‘m.

Sakkiz oydan keyin bank qaytaradigan jami pul miqdori:

$S = P + I = 100\ 000\ 000 + 12\ 000\ 000 = 112\ 000\ 000$ so‘mni tashkil qiladi.

“Kafolat” omonat turi har bir oyda 12:12=1% miqdorda murakkab foizlarda, ya’ni har oydagi foiz miqdorini omonatingizga qo‘shib, keyingi oyda ko‘paygan omonatdan foiz hisoblaydi. Demak, formulaga ko‘ra:

$P_8 = P \cdot (1+r)^8 = 100\ 000\ 000(1+0{,}01)^8 \approx 100\ 000\ 000 \cdot 1{,}083 = 108\ 300\ 000$ so‘mni tashkil qiladi. Demak, bu holatda bank uchun *“Kafolat”* omonat turi foydaliroq ekan. Omonatchi uchun esa, tabiiyki, “Shodlik” omonat turi foydaliroq.

http://eduportal.uz

Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak.

Shavkat Mirziyoyev

III bob. Soliq turlari

www.eduportal.uz

15-MAVZU DAROMAD SOLIG‘I

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlardagi fuqarolarning daromad manbalarini ayting.
2. Bu fuqarolar o‘z daromadlaridan davlatga soliq to‘lashlari kerakmi?
3. Daromad solig‘i o‘z to‘lovchilariga qanday ko‘rinishlarda qaytib keladi?
4. “Kim ko‘p daromad qilsa, o‘sha ko‘proq soliq to‘lashi lozim”, degan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring.

Har bir fuqaro o‘z daromadlaridan soliq to‘lashi shart. Soliq to‘lovlari davlat budjetiga kelib tushadi va soliq to‘lovchilarga ta’lim, tibbiy xizmat, mudofaa, jamoat tartibini saqlash, nafaqa, pensiya, stipendiya va boshqa davlat korxonalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar va yordam pullari ko‘rinishida qaytib keladi. Shu bois soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash har bir fuqaro uchun ham qarz, ham farz.

Daromad solig‘i to‘g‘ri soliqlar sirasiga kiradi. Daromad solig‘i jismoniy shaxslarning jami yillik daromadidan olinadi. Demak, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi *soliq solish obyekti* hisoblanadi. Ma’lumki, har bir kishining yillik daromadi: ish haqi, mukofotlar, mulk ijarasidan olingan daromad, bankka qo‘yilgan *omonatdan kelgan foizlar,* aksiyadan olingan dividendlar va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlardan tashkil topishi mumkin.

2019- yilgacha jismoniy shaxslar daromadiga 4 pog‘onali soliq solinar edi. Bunda daromadining 22,5% gacha qismi soliq sifatida undirilar edi.

2019- yildan boshlab ish haqi fondiga soliq yukini pasaytirish va jismoniy shaxslarning daromadlari bo‘yicha daromad solig‘ini hisoblashni soddalashtirish maqsadida 12% lik yagona stavka belgilandi.

Soliqqa tortiluvchi daromad	Jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalari	
	2018- yil	2019- yil
Eng kam ish haqi miqdorigacha bo‘lgan	0%	12%
Eng kam ish haqining 5 karrasigacha bo‘lgan	7,5%	
Eng kam ish haqining 10 karrasigacha bo‘lgan	16,5%	
Eng kam ish haqining 10 karrasidan ortiq	22,5%	
Dividendlar va omonat foizlari ko‘rinishidagi daromadlardan	10%	5%

Jismoniy shaxslar aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlardan oladigan dividendlaridan, omonat foizlaridan 2019- yilgacha 10 foizli stavkadan undirilib kelingan bo‘lsa, 2019- yildan bu stavka 5% ga tushirildi. Ya’ni soliq stavkasi ikki baravarga pasaytirildi. Mahalliy hokimiyat tomonidan berilgan maxsus ruxsatnoma – patent asosida yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tadbirkorlikdan olgan daromadlaridan qat’iy belgilangan soliq to‘laydilar. Ya’ni bu fuqarolar tadbirkorlik faoliyatidan qancha daromad olishlaridan qat’i nazar, ulardan belgilangan miqdorda daromad solig‘i undiriladi. Lekin 2019- yildan, ya’ni yangi soliq islohotlaridan keyin mutasaddi organlarga xususiy tadbirkorlar tomonidan qat’iy belgilangan stavka bo‘yicha soliqqa tortiluvchi faoliyat turlarini qayta ko‘rib chiqish va ularning sonini kamaytirish topshirildi.

Daromad solig‘i to‘lovchilari, daromad solig‘i stavkalari va uni hisoblash bilan bog‘liq tartib va qoidalar Soliq kodeksida o‘z aksini topadi.

http://eduportal.uz

Aynan shu maqsadda soliq islohotlari bilan bir vaqtda amaldagi Soliq kodeksiga ham zarur o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i stavkalarining 2018- yilgi va 2019- yilgi stavkalarini 81- betdagi jadval bo‘yicha solishtirib ko‘rish mumkin.

Ish haqidan olinadigan soliqlarni va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni korxona hisobchisi hisoblaydi. Hisoblangan soliqlar ish haqidan chegirib davlat budjetiga o‘tkaziladi. Shunday bo‘lsa-da, daromaddan undiriladigan soliqni hisoblay olish har bir fuqaro uchun muhimdir.

Amaliy mashq. *Firma o‘z xodimiga 2019- yil yanvar oyi uchun 2 000 000 so‘m ish haqi hisobladi. Xodimda o‘zi ishlaydigan korxonaning aksiyalari ham bor va u bu aksiyalardan dividend ko‘rinishida 450 000 so‘m daromad qiladi. Uning bankdagi omonatlari 350 000 so‘m omonat foizi sifatida daromad keltiradi. Xodim davlatga qancha daromad solig‘i to‘lashi kerak?*

Firma xodimining ish haqidan to‘lanadigan soliq:

2 000 000 · 12% = 240 000 so‘m; Uning aksiyalari dividendlaridan to‘lanadigan soliq: 450 000 · 5% = 22 500 so‘m;

Uning omonatlari foizlaridan to‘lanadigan soliq:

350 000 · 5% = 17 500 so‘m;

Firma xodimi yanvar oyi uchun davlatga 240 000 + 22 500 + 17 500 = = 280 000 so‘m daromad solig‘i to‘lashi kerak.

Eslatma: *Fevral oyi uchun soliq miqdorini hisoblashda xuddi yuqoridagiga o‘xshash ish tutiladi. Lekin soliq faqat fevral oyi uchun emas, balki yil boshidan buyon o‘tgan 2 oy uchun hisoblanadi va yanvar oyida to‘langan soliq miqdori undan ayriladi.*

Jismoniy shaxslar kabi yuridik shaxslar ham o‘zlarining faoliyati natijasida olgan daromadlaridan foyda solig‘iga tortiladilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari natijasida 2019-yil 1- yanvardan boshlab yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i:

- tijorat banklari uchun 22 dan 20% ga;
- boshqa yuridik shaxslar uchun 14 dan 12% ga tushirildi.

Soliq stavkasining tushirilishi soliq to‘lovchilariga soliq yukini kamaytirish va hosil bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘larni korxonani rivojlantirishga va investitsiyalarga yo‘naltirishga imkon yaratadi.

Shuning bilan bir paytda, ayrim turdagi yuridik shaxslar uchun foyda solig‘ining alohida stavkalari belgilandi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

http://eduportal.uz

Soliq to‘lovchilar	Yuridik shaxslar foyda solig‘i stavkalari	
	2018- yil	2019- yil
Yuridik shaxslar (quyida ajratib ko‘rsatilganlardan tashqari)	14%	12%
Tijorat banklari	22%	20%
Sement (klinker) va polietilen granulalari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar	14%	20%
Mahsulotlarning o‘ta katta foyda keltiruvchi ayrim turlari bo‘yicha	50%	20%
Asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmati ko‘rsatish bo‘lgan yuridik shaxslar: rentabelligi (samaradorligi) 20% gacha bo‘lganda	14%	20%
Rentabelligi (samaradorligi) 20% dan baland bo‘lganda	50%	20%

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga nimalar kiradi?
2. Jismoniy shaxslardan daromad solig‘i qanday undiriladi?
3. Jismoniy shaxslarning dividendlari va foizlar ko‘rinishida olgan daromadlaridan qanday stavkada soliq olinadi?
4. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i stavkalari haqida nimalar bilasiz? Ular pasaytirilishining boisi nimada?
5. 2019- yildan boshlab yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i bo‘yicha qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i bo‘yicha yengilliklar soliq to‘lovchi yuridik shaxslar uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?

Buni yodda tuting!

- Jismoniy shaxslarning daromadlaridan daromad solig‘i olinadi.
- Yuridik shaxslar o‘z daromadlaridan foyda solig‘i to‘laydilar.
- 2019- yil 1- yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan daromad soliqlari stavkalari bo‘yicha keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi.

http://eduportal.uz

16- MAVZU MOL-MULK SOLIG‘I

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlar ichidan, sizning fikringizcha, mol-mulk solig‘iga tortilsa bo‘ladigan mulklarni ajratib ko‘rsating. Nima sababdan bunday tanlaganingizni tushuntirib berishga harakat qiling.
2. Bino yoki inshoot mol-mulk solig‘iga tortilishi uchun o‘z egasiga daromad keltirishi shart, deb o‘ylaysizmi? Bu haqida mulohaza yuriting. O‘z fikringizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
3. Bu soliq me’yorini belgilashda nimalarni hisobga olish lozim?
4. Qaysi rasmlarda mol-mulk solig‘iga tortilmaydigan obyektlar tasvirlangan?
5. Rasmlardagi mulklarning qaysi biri egasiga ko‘proq daromad keltiradi?
6. Mol-mulk solig‘i nima uchun kerak?

O‘zbekiston hududida joylashgan uy-joylar, xonadonlar, dalahovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlardan mol-mulk solig‘i to‘lanadi. Mol-mulkning soliqqa tortiladigan qiymati sifatida

2017- yilgacha inventarizatsiya (hisobga olish) qiymati olinar edi va bu qiymatda bozor narxlarining o‘zgarishi aks etmas edi. 2018- yildan boshlab esa mol-mulk solig‘i mulkning kadastr (bozor narxini e’tiborga olgan holda) qiymatidan kelib chiqib hisoblab chiqarilmoqda.

Mulkning kadastr qiymati, odatda, inventarizatsiya qiymatiga nisbatan ancha qimmat bo‘ladi. Shuning uchun ham 2018- yilda mol-mulk solig‘i yuki keskin oshib ketmasligi uchun soliq stavkalari 2017- yildagiga nisbatan ancha pasaytirildi.

2018- yili mamlakatimizda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i stavkasi (agar mol-mulkning umumiy maydoni 200 m^2 dan oshmasa) mol-mulkning hisoblangan kadastr qiymatiga nisbatan 0,2 % miqdorida belgilangan.

Umumiy maydoni 200 m^2 dan 500 m^2 gacha bo‘lgan va shaharlarda joylashgan uy-joylar, xonadonlar - 0,25%, umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan va shaharlarda joylashgan uy-joylar, xonadonlar - 0,35%, umumiy maydoni 200 m^2 dan ortiq bo‘lgan va shahardan boshqa aholi punktlarida joylashgan mol-mulklar 0,25% stavkada soliqqa tortiladi.

Mol-mulk solig‘ini hisoblash uchun kadastr qiymatining eng kichik summasi 42 mln so‘m deb belgilangan. Ya’ni mol-mulkning kadastr qiymati 42 mln so‘mdan kam qilib ko‘rsatilishi mumkin emas. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq idoralari tomonidan hisoblanadi. Imorat, bino va inshootlardan to‘lanadigan soliqlarning miqdori ularning har yil 1- yanvardagi qiymatiga asosan belgilanadi. Imorat, binolar va inshootlarning egasi bir nechta bo‘lsa, ulardan undiriladigan soliq miqdori har bir odamning ulushiga qarab belgilanadi. Yangi qurilgan yoki sotib olingan binolarga soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Mol-mulk yo‘q qilingan, butunlay vayron bo‘lgan hollarda mol-mulk solig‘ini to‘lash ular yo‘q qilingan yoki butunlay vayron bo‘lgan oydan boshlab to‘xtatiladi.

Meros bo‘lib qolgan mulkdan mol-mulk solig‘i meros olingan paytdan boshlab to‘lanadi. Agar mulkning egasi almashsa, uning oldingi egasi joriy yilning 1- yanvaridan boshlab egalik huquqi yo‘qolgan paytgacha (oygacha) soliqni to‘laydi. Mulkning yangi egasi esa egalik huquqini olgan oydan boshlab to‘laydi.

Agar mulk egasi soliq to‘lashda ayrim imtiyozlarga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritsa, mol-mulk solig‘i o‘sha huquq vujudga kelgan

oydan boshlab qayta hisoblanadi.

Mol-mulk solig‘ini to‘lash haqida to‘lov xabarnomalari davlat soliq idoralari tomonidan to‘lovchilarga har yili 1- maydan kechiktirmay topshiriladi. Yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan quyidagi mol-mulklar mol-mulk solig‘iga tortiladi:

- asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar (masalan, intellektual mulk);
- nomoddiy aktivlar;
- tugallanmagan qurilish obyektlari;
- belgilangan muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar.

Mol-mulk solig‘i korxona mol-mulkining o‘rtacha yillik qoldiq qiymatidan olinadi. O‘rtacha yillik qoldiq qiymat har oyning oxirgi sanasiga soliq solinadigan obyektlarning qoldiq qiymatlarining yig‘indisini 12 ga (12 oyga) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

2019- yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining stavkasi soliq solish bazasiga nisbatan 2 % miqdorida belgilangan. Ushbu soliq stavkasi korxona mulkining qayta baholangan qoldiq qiymatidan undiriladi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar (urush nogironlari, qatnashchilari, ko‘p bolali ayollar, pensionerlar va boshqalar) uchun mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozni qo‘llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon miqyosi 2019- yilgacha 60 kvadrat metrni tashkil qilar edi. Yangi soliq qonunchiligiga binoan bu o‘lcham o‘zgarmay qoldi. Agarda jismoniy shaxs tomonidan o‘ziga tegishli mol-mulk tadbirkorlarga ijaraga berilsa, yoki undan mulkdorning o‘zi tadbirkorlik maqsadlarida foydalansa, oldingi yillarda bu mol-mulkka nisbatan imtiyozlar qo‘llanilmas edi. 2019- yildan boshlab bu qoida bekor qilindi. Ya’ni, bunday mol-mulkka nisbatan ham imtiyozlar saqlab qolinadigan bo‘ldi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar Soliq kodeksining 275- moddasida batafsil keltirilgan.

Mol-mulk solig‘iga tortilishi zarur bo‘lgan mol-mulk egasi bo‘lgan yuridik shaxs mol-mulk solig‘i *subyekti* hisoblanadi. Yuridik shaxslarning mol-mulki solig‘iga tortiladigan mol-mulklari esa mol-mulk solig‘i *obyekti* bo‘ladi.

Har qanday jismoniy shaxsning ma’lum miqdorda mol-mulki bo‘ladi. Qonunga ko‘ra, mol-mulkidan soliq to‘lovchi shaxs *mol-mulk solig‘i*

http://eduportal.uz

to‘lovchisi (subyekti) hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq to‘lovchilari quyidagi shaxslardir:

- mulkida soliqqa tortilishi joiz bo‘lgan mol-mulk egalari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- O‘zbekiston hududida soliqqa tortilishi joiz bo‘lgan mol-mulk egalari bo‘lgan chet el fuqarolari. Bunda ayrim hollarda xalqaro shartnomalarga binoan boshqacha tartib amal qilish mumkin;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari. Jismoniy shaxsning mol-mulki esa *soliq solish obyekti* bo‘ladi.

Topshiriq

Fuqaroning dala hovlisi qiymati 2019- yil 1- yanvarda davlat tomonidan 162 000 000 so‘m deb baholandi. Fuqaro davlatga bu yil qancha mol-mulk solig‘i to‘laydi?

Agar dala hovli qiymati soliq to‘lovchi tomonidan 35 000 000 so‘m deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-chi?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Mol-mulk solig‘i nimalardan to‘lanadi?
2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ini qanday stavkalarda to‘laydilar?
3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinuvchi soliq qanday hisoblanadi?
4. Yuridik shaxslardan mol-mulk solig‘i qanday stavkada to‘lanadi?
5. Mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyoz sifatida soliq solinmaydigan mol-mulk maydoni qancha belgilangan?
6. Mol-mulk solig‘i obyektlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Mol-mulk solig‘i subyektlari kimlar?

Buni yodda tuting!

- Soliqqa tortilishi shart bo‘lgan mol-mulk egasi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i to‘lovchisi - subyekti hisoblanadi.
- Jismoniy va yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan mol-mulki mol-mulk solig‘i obyekti bo‘ladi.
- Soliqqa tortiladigan mol-mulkning qiymati har yili 1- yanvar holatiga ko‘ra hisoblanadi.

http://eduportal.uz

17- MAVZU YER SOLIG‘I

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlardagi yerlarning qaysi biri kimga tegishli bo‘lishi mumkin?
2. Rasmlar ichidan, sizning fikringizcha, yer solig‘iga tortilsa bo‘ladigan yerlarni ajratib ko‘rsating. Nima uchun bunday tanlaganingizni tushuntirib berishga harakat qiling.
3. Biror-bir maydon yer solig‘iga tortilishi uchun o‘z egasiga daromad keltirishi shart deb o‘ylaysizmi? (Bu haqida mulohaza yuriting. O‘z fikringizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.)

4. Rasmlardagi yerlarning qaysi biri egasiga ko‘proq daromad keltiradi deb o‘ylaysiz?
5. Sizningcha, yer solig‘i nima uchun kerak?

Mamlakatimiz soliq tizimida yer solig‘i *mahalliy soliq* turiga mansub. Yer solig‘i boshqa soliq turlaridan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, ushbu soliq turi qat’iy to‘lovdir. Ya’ni yer egalari va foydalanuvchilari o‘z faoliyatlari davomida qanchalik foyda ko‘rganlaridan qat’i nazar, yer solig‘ini to‘lashlari shart. Ushbu soliq amalga tatbiq etilishining asosiy maqsadi — yerdan oqilona foydalanish, uni avaylash, talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan belgilanadi.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar *yer solig‘ining to‘lovchilari* bo‘lib hisoblanadilar.

Yagona soliq to‘lashga o‘tgan yoki soliqning alohida turlariga o‘tgan korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lmaydilar.

Yuridik shaxslar ajratib berilgan yerlar uchun yerdan foydalangan yoki foydalanmaganidan qat’i nazar yer solig‘i to‘laydilar.

O‘zbekiston Respublikasida yer solig‘ining quyidagi stavkalari qo‘llaniladi:

1. Yagona yer solig‘i to‘lashga o‘tgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘i stavkasi;

2. Yagona yer solig‘i to‘lashga o‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun yer solig‘i stavkalari.

Yer solig‘i stavkasi va yagona yer solig‘i stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan belgilanadi.

Odamlarning hovlilari va jamoat imoratlari band etgan yerlar qiymati 2 ga ko‘paytirilgan (2 koeffisient qo‘llanilgan) holda baholanadi va ular shu qiymatdan yagona yer solig‘i to‘laydilar.

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi.

Yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan me’yorlar doirasida berilgan yerlar — yer uchastkasi berilgan paytdan e’tiboran ikki yil muddatga soliq solinmaydi. Agar yerdan o‘z o‘rnida foydalanilmasa, bu imtiyoz qo‘llanilmaydi.

http://eduportal.uz

Dehqon xo‘jaliklaridan undiriladigan yer solig‘i stavkalari yer sifatiga bog‘liq holda belgilanadi.

Quyidagi yer maydonlari yer solig‘idan ozod etiladi:

- shaharlar, shahar qo‘rg‘onlari, qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, o‘tish joylari, yo‘llar, ariq yoqalari, ariqlar, mozorlar va boshqalar);
- bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik jamoalari uchun umumiy foydalanishga berilgan yerlar;
- tabiatni muhofazalashga mo‘ljallangan yerlar;
- tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan yerlar;
- suv fondi yerlari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari, kanallar, dengizlar va shu kabi umumfoydalanadigan yerlar).

Quyidagi yer maydonlari soliq obyektlari hisoblanadi:

- dehqon xo‘jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer maydonlari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
- meros bo‘yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan barcha jismoniy va yuridik shaxslar *yer solig‘i subyektlari* hisoblanadilar.

Yuridik shaxslar uchun quyidagi yer maydonlari yer solig‘i obyekti bo‘lib hisoblanadi:

- qonunda belgilangan tartib bo‘yicha o‘z mulki qilib olingan yer maydonlari;
- o‘rmon xo‘jaligi uchun egalik qilishga berilgan yerlar;
- korxonalarga, imoratlar, inshootlar qurishga yoki boshqa maqsadlar (qishloq xo‘jaligi maqsadlaridan tashqari) uchun foydalanishga berilgan yerlar.

http://eduportal.uz

Bilasizmi?

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig‘i uch baravar miqdorda undiriladi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan qanday yer uchastkalari yer solig‘iga tortiladi?
2. Qanday jismoniy shaxslar yer solig‘i to‘lovchilari hisoblanadi?
3. Yer solig‘i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?
4. Yer solig‘i to‘lovchilar uchun qanday imtiyozlar mavjud?
5. Qanday yuridik shaxslar yer solig‘ining to‘lovchilari bo‘ladi?
6. Yer solig‘i nima uchun kerak? Javobingizni asoslang.
7. Yer solig‘i qanday soliq va yig‘imlar turiga mansub?
8. Yer solig‘i subyektlari deb qanday yuridik va jismoniy shaxslarni aytamiz?
9. Yer solig‘i obyektlari deganda qanday yer maydonlari nazarda tutiladi?

Buni yodda tuting!

- Soliqqa tortilishi shart bo‘lgan yer egasi yer solig‘i to‘lovchisi hisoblanadi. Ular *yer solig‘i subyektlari* ham hisoblanadi.
- Jismoniy va yuridik shaxsning soliqqa tortiladigan yerlari soliq solish obyekti bo‘ladi.
- yer solig‘i mahalliy soliqlar turiga mansub.
- yer solig‘i va yagona yer solig‘i stavkalari bir-biridan farqlanadi.
- yerdan samarali foydalanmayotgan yer egalari oshirilgan stavkalar bo‘yicha yer solig‘i to‘laydilar.

http://eduportal.uz

18- MAVZU AKSIZ VA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan tovarlar

Chet eldan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlar

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi 1– 3- rasmlarda mamlakatimizda, 4– 6- rasmlarda esa chet elda ishlab chiqarilgan va mamlakatimizga olib kirilayotgan tovarlar tasvirlangan. Ularni umumlashtiradigan jihat — bu ularning barchasi aksiz solig‘i solinadigan tovarlar ekanligidir.

http://eduportal.uz

1. Sizning fikringizcha, bu tovarlarga qo‘shimcha aksiz solig‘i solinishiga sabab nimada? Savolga javob berishda ushbu tovarlarning bozordagi o‘rni va iste’mol xususiyatiga e’tibor bering. Shuningdek, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarining inson salomatligi va hayot tarziga salbiy ta’sirini unutmang.
2. Aksiz markalari qanday tovarlarga yopishtirilishini bilasizmi? Aksiz markalarining tovarlarga yopishtirilishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i deb ataluvchi soliq tovarlarga nima sababdan solinishi haqida fikr bildirishga harakat qiling. Bunda soliqning nomiga e‘tibor bering.

Aksiz solig‘i bilvosita soliq bo‘lib, ayrim mahsulotlardangina olinadi.

Aksiz solig‘ining to‘lovchilari aksiz to‘lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilardir. Aksiz solig‘i mamlakatimizda ishlab chiqarilgan alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, etil spirti, spirtli ichimliklar, oltin, kumushdan tayyorlangan buyumlar, neft, gaz mahsulotlari (benzin, dizel, gaz) kabi mahsulotlarga solinadi. Mana shu aksiz solig‘i solinadigan tovarlar *aksiz solig‘i obyektlari* bo‘ladi.

Ayrim mahsulotlar uchun aksiz solig‘i stavkalarini keltiramiz:

1	Konyak (1 dekalitr uchun)	92 500 so‘m
2	Aroq (1 dekalitr uchun)	84 500 so‘m
3	Filtrli sigaretalar (1000 donasi uchun)	117 900 so‘m
4	Etil spirti (1 dekalitr uchun)	9 800 so‘m
5	Benzin (1 tonna uchun)	32 143 so‘m
6	Suyultirilgan gaz uchun (1 tonna uchun)	540 645 so‘m
7	Zargarlik buyumlari uchun (sotilish qiymati foizlarda)	25%
8	GM Uzbekistan avtomobillari (sotilish qiymatiga nisbatan foizlarda)	3%

2019- yil 1- yanvardan boshlab aksiz solig‘ini hisoblash va to‘lash bo‘yicha ham bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan:

1. to‘langan aksiz solig‘i summasi ishlab chiqarish va sotish zanjirida hisobga olinmaydigan bo‘ldi;
2. aksiz solig‘i solinadigan yangi tovarlar turlari kiritildi;
3. alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig‘i indeksatsiya qilindi.

2019- yil 1- yanvardan boshlab ayrim aksiz solinadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i stavkalari pasaytirildi. Ayrim tovarlar esa aksiz solinadigan

http://eduportal.uz

tovarlar ro‘yxatidan chiqarib yuborildi. Shu bilan bir paytda bir qancha tovarlar aksiz solinadigan tovarlar ro‘yxatiga kiritildi.

2019- yilgacha benzin, dizel yonilg‘isi va gaz uchun iste’mol solig‘i to‘lanar edi. Bunda bu soliq har bir litr yonilg‘i narxiga aniq ustamani qo‘shgan holda undirilar edi. 2019- yil 1- yanvardan boshlab esa bu iste’mol solig‘i bekor qilindi va uning o‘rniga har bir litr yonilg‘i uchun aksiz solig‘i kiritildi. Aksiz solig‘i iste’molchilarga yonilg‘ini sotuvchi yuridik shaxslardan undirib olinadi. Bu yuridik shaxslar pirovard iste’molchiga sotgan yonilg‘i narxida bu aksiz solig‘i ham qo‘shilgan bo‘ladi. Bu o‘z navbatida soliqlar sonini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Chet eldan mamlakatimiz hududiga olib kiriladigan va aksiz solig‘i solinadigan tovarlar ro‘yxati ancha kengdir. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan 2019- yil 1- yanvardan boshlab yana 65 turdagi tovarlar importi uchun aksiz solig‘i kiritildi. Bunda soliq ayrim tovarlar bojxona qiymatidan foiz hisobida undirilsa, ayrimlaridan esa bir birlik tovar uchun qat’iy miqdorda chet el valutasida undiriladi. Bunda aksiz solig‘iga eng ko‘p tortilgan tovarlar muzlatgichlar, konditsionerlar, mikroto‘lqinli pechlar kabi elektrotexnika tovarlaridir. Ularga aksiz solig‘i stavkasi 10-15% qilib belgilandi.

Undan tashqari pecheniy, shokolad va boshqa xil shirinliklarga ham 10-20% stavkadagi aksiz solig‘i kiritildi.

Shuning bilan bir paytda 1000 dona sigaret uchun aksiz solig‘i 60 dollardan 40 dollargacha pasaytirildi.

Mahsulot (xizmat)ni ishlab chiqarish, sotish yoki uni import qilish jarayonida mahsulot (xizmat) narxiga qo‘shilgan qiymatning bir qismi davlatga to‘lanadi. Ana o‘sha to‘lov – *qo‘shilgan qiymat solig‘i* deb ataladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari – O‘zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hamda mahsulotlar importi bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardir.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining obyekti bo‘lib, mahsulotlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish (sotish) yoki import mahsulotlari aylanma mablag‘lari hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchi har qanday shaxs sotilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot yoki xizmatlar uchun olinadigan to‘lov mablag‘i qachon kelib tushishidan qat’i nazar, budjetga qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashi shart bo‘ladi.

Soliq qonunchiligiga ko‘ra, mamlakatimizda qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foiz qilib belgilangan. Lekin 2019- yil 1- yanvardan ayrim, 3 mlrd so‘mgacha aylanmaga ega bo‘lgan korxonalar qo‘shilgan qiymat

solig‘i to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga ixtiyoriy ravishda o‘tishlari mumkin. QQS to‘lashning bu tartibiga o‘tganda korxona pasaytirilgan stavkalarda soliq to‘laydi, lekin bu to‘langan soliqni sotib olingan tovarlar bo‘yicha to‘langan QQS hisobiga o‘tkazish imkoniga ega bo‘lmaydi. QQS to‘lashning bu tartibi faqat kichik korxonalar uchun va vaqtincha, ya’ni 2021- yil 1- yanvargacha amal qiladi

QQS to‘lashning bu tartibiga o‘tgan kichik korxonalar quyidagi stavkalarda QQS to‘laydilar: sanoat korxonalari - 7%, savdoda - 6%, qurilishda - 8%, umumiy ovqatlanish va mehmonxonalarda - 10%.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda shuni e’tiborga olish kerakki, soliq to‘lanadigan baza (qiymat) qilib mahsulotning to‘liq qiymati emas, balki mana shu soliq to‘laydigan korxonada yaratilgan yangi qiymati olinadi. Bunda, oraliq iste’mol, ya’ni mana shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun hisobot davri davomida ishlatilgan tovarlar va xizmatlar qiymati chiqarib yuboriladi. U holda QQSni hisoblab chiqarish formulasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

QQS=Qo‘shilgan qiymat·20%=Qiymat (Narx)·20% - Oraliq iste’mol qiymati·20%

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Aksiz solig‘i nima? U qanday mahsulotlardan olinadi?
2. Qanday mahsulotlar aksiz solig‘idan ozod etiladi?
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i qanday soliq?
4. Kimlar qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘ladi?
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining obyektini ayting?
6. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining foiz stavkasi necha foiz miqdorida belgilangan?
7. Qo‘shilgan qiymat solig‘i qanday hisoblanadi?
8. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha qanday yuridik shaxslar to‘lash huquqiga ega?
9. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha kimga qanday stavkalar qo‘llaniladi?

Buni yodda tuting!

- Aksiz solig‘i bilvosita soliqdir.
- Aksiz solig‘i mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yoki import qilingan ayrim tovarlarga solinadi.
- Qo‘shilgan qiymat solig‘i mahsulot (xizmat)ni ishlab chiqarish, sotish yoki import qilish jarayonida uning narxiga qo‘shilgan qiymatning bir qismidir.

http://eduportal.uz

III BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasini tushuntirib bering.
2. Respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarining pasayib borishining boisi nimada?
3. Buyuk bobokolonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning soliq to‘g‘risidagi fikrlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Soliq kodeksi qanday munosabatlarni tartibga soladi?
6. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida nimalarni bilasiz?
7. Qanday mahsulotlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi?
8. Aksiz solig‘i qanday soliq turiga kiradi?
9. Yer solig‘i qanday maqsadda solinadi?

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i obyekti;
2. Yer solig‘i to‘lovchilari;
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i;
4. Aksiz solig‘i to‘lovchilari.

TALQINLAR:

a) mulk, egalik qilish, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan shaxslar;
b) jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi;
d) aksiz to‘lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar;
e) mahsulot ishlab chiqarish, sotish yoki uni import qilish jarayonida mahsulot narxiga qo‘shilgan qiymat.

http://eduportal.uz

D. 77- bet III bob titulidagi rasmlar bo‘yicha

Rasmlarning qaysilari bobdagi qaysi mavzuga taalluqli ekanligini ayting. Ushbu rasmlar asosida mavzularning mazmunini so‘zlab bering.

E. TESTLAR

1. Quyidagilarning qaysi biri daromad solig‘i obyekti bo‘la oladi?
A) Oylik maosh;
B) Aksiyadan olingan dividend;
D) Bank omonat foizlari;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

2. Shaxsiy turar joylar va dala hovlilarning kadastr qiymatidan qanday foiz stavkasida mol-mulk solig‘i undiriladi?
A) 3–3,5%; B) 2%;
D) 0,5%; E) 0,2–0,35%.

3. Mahsulot ishlab chiqarish, sotish yoki uni import qilish jarayonida mahsulot narxiga qo‘shilgan qiymatning bir qismi davlatga to‘lanadigan soliq turi qaysi javobda berilgan?
A) Qo‘shilgan qiymat solig‘i;
B) Mol-mulk solig‘i;
D) Aksiz solig‘i;
E) Bojxona to‘lovi.

4. Respublikamizda qo‘shilgan qiymat solig‘ining asosiy stavkasi necha foiz qilib belgilangan?
A) 10%; B) 15%;
D) 18%; E) 20%.

5. Qaysi javobda aksiz solig‘i solinadigan mahsulot turi berilmagan?
A) Kiyim-kechaklar;
B) Tamaki mahsulotlari;
D) Neft, gaz mahsulotlari;
E) Oltin va kumushdan tayorlangan mahsulotlar.

6. Bilvosita soliq nimadan olinadi?
A) Daromaddan; B) Mulkdan;
D) Yerdan; E) Tovardan.

7. Fuqarolardan qanday soliq undiriladi?
A) Faqat daromad solig‘i;
B) Faqat daromad va mulk solig‘i;
D) Daromad, mulk va yer solig‘i;
E) Daromad, mulk va ekologiya solig‘i.

http://eduportal.uz

MUSTAQIL FAOLIYAT | SOLIQ ISLOHOTLARI

Mamlakatimizda soliq islohotlarigacha bo‘lgan davrdagi holatni eslasak, soliq yuki bizda, iqtisodiyoti bizning darajamizda rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda, ancha yuqori edi. Bu esa soliqdan qochish hollarini ko‘paytirib, xufiyona iqtisodiyotning rivojlanishiga sabab bo‘layotgan edi. Soliq tizimimizda kichik biznesga o‘rnatilgan soliq bilan o‘rta va katta biznesga o‘rnatilgan soliq yuki orasidagi farq judayam katta edi. Bu esa kichik biznes vakillarining rivojlanib o‘rta va katta biznes darajasiga o‘tishlaridan qaytarib turar edi.

Sobiq soliq tizimimizdagi yana bir yirik salbiy yondashuv shundan iborat ediki, yalpi tushumni soliqqa tortish amaliyoti keng tarqalgan edi. Lekin bu xalqaro amaliyotga zid hol. Chunki bunda yangi qiymat yaratish zanjiri paydo bo‘lmaydi. Ya’ni, yangi qiymat yaratgan korxona soliq to‘lash bo‘yicha afzalliklardan foydalana olmasligi sababli iloji boricha umumiy daromadnigina nazorat qiladi va uni kamaytirib ko‘rsatishga intiladi. Bu hol ham iqtisodiyotning o‘sishiga bevosita to‘sqinlik qiladi.

Yuqoridagi aytilganlarning barchasi va korxonalarni tanlab imtiyoz berish amaliyoti kuchayib ketganligi sabab mamlakatimiz soliq tizimini tubdan isloh qilishga qaror qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018- yil 29-iyundagi farmoni bilan “Soliq siyosatini takomillashtirish” konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiyaga muvofiq soliq tizimi tubdan isloh qilindi. Bunda soliq yukini yengillashtirish va kichik korxonalarni rag‘batlantirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Mana shu maqsadda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- soliqlar sonini kamaytirish, ularni soddalashtirish, tushunarli qilish.
- soliq stavkalarining sonini qisqartirish, ularni investitsion qilgan soliq to‘lovchilar uchun rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan qilish;
- yagona ijtimoiy to‘lovlarning sonini keskin kamaytirish;
- daromad solig‘ini soddalashtirish, stavkalar sonini kamaytirish;
- korxona va tashkilotlarga beriladigan imtiyozlardan voz kechish;
- soliq to‘plash, soliq hisoboti bo‘yicha tizimni soddalashtirish.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1. Soliq islohotlari bilan iqtisodiyotimizning keskin rivojlanishi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. Oilangizdagi kattalardan yangi soliq tizimi ularning soliq to‘lovlariga qanday ta’sir o‘tkazganligini bilib oling.
3. Soliq islohotlarining ijobiy natijalari atrofingizdagilardan kimlarga birinchi navbatda ta’sir o‘tkazadi?

http://eduportal.uz

Biz makroiqtisodiy barqarorlikni va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashimiz kerak.

Shavkat Mirziyoyev

IV bob. Iqtisodiy o‘sish

19- MAVZU ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. AQSH, Germaniya, Yaponiya va Koreya kabi mamlakatlarni, odatda, boy mamlakatlar deb atashadi. Bir qator Afrika mamlakatlarini esa, aksincha, kambag‘al mamlakatlar sifatida tilga oladilar. Sizningcha, mamlakatlar boyligi yoki kambag‘alligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Rasmlardagi tasvirlar bilan mamlakatimiz boyligi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?
3. Mamlakatimizning chet ellarda ishlayotgan fuqarolari o‘z mamlakati boyligiga hissa qo‘shishi mumkinmi? Qanday qilib?
4. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan chet el kompaniyalari-chi ?

Mamlakat iqtisodiyotining natijalari turli xil ko‘rsatkichlar yordamida o‘lchanadi. *Yalpi ichki mahsulot (YaIM)* — mamlakat hududida bir yil mobaynida ishlab chiqarilgan, pirovard ko‘rinishdagi tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymatidir.Yalpi ichki mahsulot - bu mamlakat rivojlanganlik darajasini ifodalovchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi har qanday mamlakat ichida har yili bir marotaba hisobot yilidan keyingi yilning boshida hisoblab chiqiladi. U iqtisodiyotning qay darajada o‘sayotganligini va rivojlanayotganligini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. YaIM hisoblanayotganda ishlab chiqarishning oraliq bosqichida yaratilgan xom ashyo, ehtiyot qismlar, urug‘lik, yonilg‘i, energiya, materiallar, transport xizmati, ulgurji savdo xizmati, tijorat va boshqa oraliq mahsulotlar va xizmatlar hisobga olinmaydi. YaIMga pirovard

ko‘rinishdagi iste’molga tayyor tovarlar qiymatigina qo‘shiladi. Masalan, traktor g‘ildiragi traktor ishlab chiqarish jarayonida ishlatilib, traktor tarkibiy qismiga aylansa, YaIM ga kiritilmaydi, chunki u pirovard mahsulot bo‘lmay qoladi. Traktor esa YaIM ga kiritiladi, chunki u pirovard mahsulot hisoblanadi. Agar g‘ildirak YaIM ga kiritilganda edi, uning qiymati ikki marotaba: birinchi safar g‘ildirak sifatida, ikkinchi safar esa traktorning qismi sifatida YaIM ga kiritilgan bo‘lib qolar edi. Shu bois, YaIM hisoblanayotganda faqat pirovard ko‘rinishdagi tovarlar inobatga olinadi. YaIM mamlakat hududida joylashgan, qaysi davlatga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar barcha korxona, firma va aholi tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxlaridagi qiymatidir. Yalpi ichki mahsulot, odatda, milliy valutada hisoblanadi. Masalan, O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti so‘mda ko‘rsatiladi. Xalqaro miqyosda esa har xil mamlakatning YaIMi dollarga o‘tkaziladi va o‘zaro taqqoslanadi. Jumladan, Jahon banki bazasida dunyoning barcha mamlakatlarining YaIMi bor. Ko‘rsatkichlar har yili yangilanib va chop qilib boriladi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) — yil davomida mamlakat fuqarolari tomonidan (yer yuzining qayerida bo‘lishidan qat’i nazar) yaratilgan pirovard ko‘rinishdagi jami tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymatidir. Agar YaIMdan mazkur mamlakat hududida chet ellik fuqarolar va firmalar tomonidan yaratilgan tovarlar qiymatini ayirib, bu mamlakat fuqarolari va firmalari tomonidan boshqa davlatlar hududida yaratilgan tovarlar qiymatini qo‘shsak, mazkur mamlakatning Yalpi milliy mahsuloti (YaMM) miqdori hosil bo‘ladi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) — mamlakat hududida bir yil mobaynida ishlab chiqarilgan, pirovard ko‘rinishdagi tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymati.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) — yil mobaynida mamlakat fuqarolari tomonidan (yer yuzining qayerida bo‘lishidan qat’i nazar) yaratilgan pirovard ko‘rinishdagi jami tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymati.

Sof ichki mahsulot (SIM) — YaIMdan amortizatsiya ajratmasining ayrilganiga teng. Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayonida asbob-uskuna, bino kabi asosiy vositalar eskirib, ular narxining bir qismi shu vositalar ishtirokida tayyorlangan tovarlar narxiga o‘tadi. Bu amortizatsiya ajratmasi bo‘lib, u yangidan yaratilgan qiymat emas. Shu bois, YaIMdan

http://eduportal.uz

jami amortizatsiya ajratmasini ayirib tashlasak, Sof ichki mahsulot (SIM) miqdori topiladi. SIM mamlakatda bir yilda yangidan yaratilgan tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatini ko‘rsatadi.

Sof milliy mahsulot (SMM)ning qiymati YaMM qiymatidan amortizatsiya ajratmasini ayirish yo‘li bilan topiladi.

Milliy daromad (MD) — mamlakat aholisining bir yillik jami ish haqi, foiz, renta kabi barcha daromadlari va korxonalar foydasining yalpi yig‘indisidan iborat. U SIMdan barcha bilvosita soliqlarni ayirish yo‘li bilan ham aniqlanadi.

Turli mamlakatlardagi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini va aholining turmush farovonligini taqqoslashda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM qo‘llaniladi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM (YaMM) — YaIM (YaMM) qiymatini mamlakat aholisi soniga bo‘lib topiladi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM mamlakatdagi odamlarning turmush farovonligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir.

Sof ichki mahsulot (SIM) — yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya ajratmasining ayrilganiga teng.

Milliy daromad (MD) — mamlakat aholisining bir yillik jami ish haqi, foiz, renta kabi daromadlari va barcha korxonalar foydasining yalpi miqdori.

Formula $YaMM = YaIM + E - I$; $SIM = YaIM - A$

Bu yerda: E — mamlakat kapitali asosida chet elda yaratilgan tovar va xizmatlar qiymati; I — chet el kapitali asosida mamlakatda yaratilgan tovar va xizmatlar qiymati; A — amortizatsiya ajratmasi.

AQSH, Yaponiya kabi davlatlarda mamlakatning rivojlanish darajasini ifodalovchi asosiy mikroiqtisodiy ko‘ratkich qilib YaIM emas, balki YaMM qabul qilingan. Lekin Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyasi bo‘yicha mamlakat rivojlanish darajasini aniqlash uchun YaIM asosiy ko‘rsatkich sifatida ishlatiladi. Shuning uchun ham aksariyat mamlakatlarda aholi turmush darajasini aniqlash va taqqoslash uchun aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM olinadi.

O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda O‘zbekistonning YaIMi 407,5 trln so‘mni tashkil qildi. Bu 2017-yildagiga nisbatan 5,17% ga ko‘pdir. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan

http://eduportal.uz

YaIM esa 12,3 mln so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2017- yilga nisbatan 3,3% ga o‘sgan.

TOPSHIRIQLAR?

1. "Paxta – milliy boyligimiz" degan iborani izohlang.
2. Daladan terib olib, davlatga topshirilgan paxta xom ashyosi uchun fermerning olgan daromadi, paxta eksportidan tushgan chet el valutasi, chevarlarning tikkan ko‘ylaklari uchun oladigan haqlarini mamlakatimizning ichki mahsuloti deb atasak bo‘ladimi?
3. "O‘zbekiston havo yo‘llari" milliy aviakompaniyasining xizmatlari uchun chet ellik sayyohlar tomonidan to‘langan valutani, bozorlarda sotilayotgan tropik meva (banan, ananas, apelsin kabi)larni, eksport uchun ishlab chiqarilgan "Cobalt" avtomobilini-chi?
4. O‘zbekiston kompaniyasining chet eldagi shoxobchasi ishlab chiqargan mahsulot mamlakatimiz ichki mahsuloti bo‘la oladimi?
5. Chet el kompaniyasining mamlakatimizdagi shoxobchasi ishlab chiqargan mahsulot yoki ko‘rsatgan xizmati-chi?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. YaIM, YaMM, SIM, SMM va MD bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
2. Nima sababdan mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar qiymati ham YaIMga qo‘shilavermaydi?
3. Pirovard va oraliq mahsulotlarga 3 tadan misol keltiring.
4. Bir mamlakatning YaMM miqdori 7669 mln AQSH dollarini, chet ellik fuqarolarga to‘langan daromadlar 190 mln AQSH dollarini, boshqa davlatlarga qo‘yilgan sarmoyadan tushgan daromadlar esa — 205 mln AQSH dollarini tashkil qildi. Bu mamlakatning YaIM miqdorini toping.
5. Mamlakat YaIM ining o‘sishi iqtisodiyotning rivojlanishiga qanday ta’sir etadi?
6. Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaIM nimani ifodalaydi?

Buni yodda tuting!

- Yalpi ichki mahsulot mamlakat iqtisodiy salohiyatining asosiy o‘lchovidir. U mamlakat iqtisodiyotining ahvolini aks ettiradi.
- Turli mamlakatlardagi aholining turmush farovonligi bu mamlakatlar aholisi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaIM yordamida o‘zaro taqqoslanadi.
- Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaIM mamlakat aholisining mehnat unumdorligini ham ko‘rsatadi.

http://eduportal.uz

20- MAVZU IQTISODIY O‘SISH VA RIVOJLANISH

Ma’lumki, mamlakatning muayyan yildagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (YaIM, YaMM, SIM, SMM va MD) o‘sha yilda amalda bo‘lgan narxlarda hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarning qaralayotgan yildagi joriy narxlarda hisoblangan qiymati *nominal qiymat* deb yuritiladi. Lekin ma’lumki, narxlar yildan yilga o‘zgarib turadi. Shuning uchun mamlakatning turli yillardagi ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanayotganda, ularning real qiymatidan foydalaniladi.

Formula

***YaIM* real va nominal qiymatlari orasidagi bog‘lanish**— narxlarning oshish indeksi

$YaIM_r$ — real qiymat; $YaIM_n$ — nominal qiymat;

$$YaIM_r = \frac{YaIM_n}{I}$$

Aytaylik, 2015—2018- yillarda mamlakatdagi narx-navo 1,5 baravarga oshgan, ya’ni bu davrdagi narxlarning oshish indeksi 1,5 ga teng bo‘lib, 2015- yildagi YaIMning nominal qiymati — 19,35 trln shartli pul birligi (shpb), 2018- yildagi YaIMning nominal qiymati esa 36,84 trln shpbni tashkil qilgan bo‘lsin. Bu ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash uchun ularni bir xil narxlarda hisoblash lozim bo‘ladi. Buning uchun 2015- yildagi narxlar asos qilib olinadi. Bu narxlarda 2015- yilgi YaIM qiymati berilgan. Endi 2018- yildagi YaIMni 2015- yildagi narxlarda hisoblaymiz. Buning uchun 2018- yildagi YaIMning nominal qiymatini narxlarning oshish indeksiga bo‘lsak kifoya. Hosil bo‘lgan qiymat — 24,56 trln shpb 2018- yilgi YaIMning 2015- yilga nisbatan real qiymatidan iborat bo‘ladi. Shundan so‘ng, 2015- yilgi YaIM nominal qiymati va 2018- yilgi real qiymati o‘zaro taqqoslanadi va 2018- yilda 2015- yilga nisbatan YaIM qiymati 24,56 : 19,35 = 1,27 baravar oshgan degan xulosaga kelinadi. Umuman olganda, joriy yildagi iqtisodiy ko‘rsatkichning biror yilga nisbatan real qiymatini topish uchun uning nominal qiymati bu davrdagi narxlarning umumiy o‘sish indeksiga bo‘linadi.



20.1- chizma

Bozor iqtisodiyotining ikki asrlik tarixi unga to‘lqinsimon rivojlanish xos ekanligini tasdiqladi. Ma’lum bo‘lishicha, bozor iqtisodiyoti hukm surgan davlatlardagi iqtisodiy faollik ma’lum davrlarda o‘sib, so‘ng esa pasayib, davriy ravishda tebranib turar ekan. Mamlakat iqtisodiyotining bir marta

tebranishiga — bir marta o‘sib, so‘ng pasayishiga ketgan vaqt *iqtisodiy davr* deb ataladi. 20.1- chizmadagi iqtisodiy davrni olib qaraydigan bo‘lsak, u iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy pasayish oraliqlaridan iborat bo‘lib, *M* nuqta bu davrdagi iqtisodiy faollikning eng yuqori nuqtasi (cho‘qqisi), *N* nuqta esa eng quyi nuqtasidan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Iqtisodiy ko‘rsatkichning nominal qiymati — bu uning joriy narxlarga nisbatan hisoblangan qiymati.

Iqtisodiy ko‘rsatkichning real qiymati — biror asos qilib olingan yildagi narxlarga nisbatan hisoblangan qiymati.

Iqtisodiy davr — mamlakat iqtisodiyotining bir marta tebranishiga — bir o‘sib, so‘ng pasayishiga ketgan vaqt.

Agar iqtisodiy rivojlanishning kattaroq davrini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, 20.2- chizmada tasvirlangan holatni ko‘rishimiz mumkin. Ta’kidlash joizki, bu holatda iqtisodiy faollik tebranib tursa-da, umuman olganda, iqtisodiyotda ko‘tarilish — o‘sish kuzatilayapti. Iqtisodiyotda kamida olti oy davomida real YaIMning kamayishi kuzatilsa, bu iqtisodiy pasayishdan dalolat beradi.



20.2- chizma

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlab turishdan iborat. Chunki aholi soni o‘sib, ularning ehtiyojlari kundan — kunga oshib boradi. Demak, borgan sari ko‘proq tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish lozim bo‘ladi. Bunday sharoitda davlat mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini yuksaltirishi, ya’ni iqtisodiy o‘sishini ta’minlashi lozim bo‘ladi. *Iqtisodiy o‘sish* deb, mamlakatda muttasil ravishda yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshib borishiga aytiladi. Iqtisodiy o‘sish darajasini bir necha usullarda hisoblash mumkin. Odatda, iqtisodiy o‘sish — mamlakatdagi real YaIMning o‘sish darajasi bilan o‘lchanadi. Yuqorida ko‘rilgan misolda 2015—2018- yillari YaIM ning real qiymati 1,27 marta oshgan bo‘lib, bu — mamlakatda ko‘rib chiqilayotgan davrda iqtisodiy o‘sish

http://eduportal.uz

kuzatilganligidan dalolat beradi. Ba'zida iqtisodiy o'sish — YaMMning o'sish darajasi bilan yoki aholi jon boshiga to'g'ri kelgan real YaMM ning (yoki YaIMning) oshish darajasi bilan ham o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sishga ikki xil: ekstensiv va intensiv yo'llar bilan erishish mumkin. Ekstensiv o'sishga qo'shimcha miqdordagi ishlab chiqarish resurslarini ishlab chiqarishga jalb etish bilan erishiladi. Buning uchun yangi yerlar o'zlashtiriladi, ko'plab miqdorda foydali qazilmalar va mehnat resurslari ishlab chiqarishga jalb etiladi. Intensiv o'sish bor resurslardan samarali foydalanish orqali ta'minlanadi. Unga fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ishchilarning bilim va malakalarini oshirish kabi yo'llar bilan erishiladi.

Mamlakatda boy va kambag'al oilalar bo'lgani singari, dunyoda ham boy va kambag'al mamlakatlar bor. Xalqning boy yoki kambag'alligi unung iqtisodiy o'sish darajasi, ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan YaMM(YaIM) miqdorining ko'p yoki kamligiga qarab davlatlar rivojlangan va rivojlanayotgan guruhlarga bo'linadi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan bo'lib, asosan, sanoat ishlab chiqarish sohalariga ixtisoslashgan.

Rivojlanayotgan davlatlarning o'zi yana ikkiga — daromadlar darajasi o'rtacha va past bo'lgan davlatlarga bo'linadi. Bu davlatlar iqtisodiyoti asosan xom ashyo eksporti va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. O'zbekiston daromadlar darajasi o'rtacha bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Daromadlar darajasi past bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanadigan sarmoya (investitsiyalar)lar juda kam bo'ladi. Natijada mehnat unumdorligi pastligicha qoladi. Ishlab chiqarish hajmi kamayib, o'sib borayotgan aholi daromadlari borgan sari kamayaveradi.

Mamlakat aholisining turmush darajasi iqtisodiy rivojlanganlik darajasini yaqqolroq ko'rsatadi. Chunki u nafaqat aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM(YaIM) qiymati bilan, balki yana qator ko'rsatkichlar asosida o'lchanadi. Aholining turmush darajasi kishi boshiga ko'proq moddiy ne'mat yaratishgagina emas, balki topilgan daromadni qanday va qayerga ishlatilishiga ham bog'liq. Aytaylik, bir mamlakatda katta miqdorda YaMM(YaIM) yaratilsa, ammo uning ko'p qismi harbiy maqsadlarga sarflansa, bu mamlakat aholisining turmush darajasida qanday ijobiy o'zgarish bo'lishi mumkin? Turli mamlakatlar aholisining turmush darajasi o'zaro qator iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar yordamida taqqoslanadi. Har yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining

“Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi ma’ruza” sida bu ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot berib boriladi.

Aholining turmush darajasini taqqoslashda, asosan, quyidagilar hisobga olinadi: 1) aholining savodxonlik darajasi; 2) ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat darajasi; 3) aholining sog‘lomlik darajasi: 4) umr ko‘rish davomiyligi; 5) shahar aholisining soni; 6) uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi; 7) oilalarning madaniy-maishiy tovarlar: televizor, telefon, shaxsiy kompyuter, internet tarmog‘i, muzlatkich kabi tovarlar bilan ta’minlanganlik darajasi; 8) ta’limga ajratilayotgan xarajatlar miqdori; 9) inson huquqlarining kafolatlanganlik darajasi; 10) jinoyatchilik darajasi; 11) sog‘liqni saqlashga ajratilgan xarajatlar miqdori; 12) atrof-muhitning himoyalanganligi va boshqalar.

Dunyoda aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori o‘rinlarni Kanada, Fransiya, Norvegiya, AQSH, Islandiya, Finlandiya, Niderlandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya va Shvetsiya kabi davlatlar egallab kelmoqda.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. YaIM(YaMM)ning nominal va real qiymatlarining farqi nimada?
2. Iqtisodiy davr nima va uning qanday pallalari bor?
3. Bozor sharoitida iqtisodiyot nega davriy ravishda tebranib rivojlanadi?
4. Iqtisodiy o‘sish nima va u qanday o‘lchanadi?
5. Iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv usullarining farqini ayting.
6. Iqtisodiy o‘sishni aholi turmush darajasining oshishi deb ta’riflash mumkinmi?
7. Iqtisodiy rivojlangan mamlakat deganda nimani tushunasiz?
8. Davlatlar rivojlanganlik darajasiga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi?
9. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanganligi har doim aholi turmush darajasining yuqori ekanligidan dalolat beradimi?
10. Aholi turmush darajasi past bo‘lgan davlatlarga misol keltiring.
11. Iqtisodiy farovonlik nima va u nimaga bog‘liq?

Buni yodda tuting!

- Mamlakat aholisi turmush darajasining yuqori bo‘lishi iqtisodiy farovonlikdan dalolat beradi.
- Iqtisodiy farovonlik mamlakat bo‘yicha yaratilgan yalpi mahsulotning ko‘pligi bilan emas, balki milliy boylikni aholi manfaatlarini ko‘zlab, adolatli va oqilona qayta taqsimlashga bog‘liq.

http://eduportal.uz

21- MAVZU O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IQTISODIY SALOHIYATI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini sanang.
2. Bu tarmoqlardan qaysi biri iqtisodiyotda yetakchi soha hisoblanadi?
3. Mamlakatimizdagi ko‘zga ko‘ringan ishlab chiqarish korxonalaridan qaysilarini bilasiz?
4. Sizningcha, davlat qaysi sohalarga ko‘proq e’tibor berishi kerak?
5. Iqtisodiyotning qaysi sohasida xususiy sektorning ulushi ko‘proq deb o‘ylaysiz? Qaysi sohalarda kamroq?
6. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining istiqboli haqida nima deya olasiz?
7. Respublikamiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiy hamjamiyatiga kirib borishi (integratsiyasi) haqida nimalar bilasiz?

Maydoni. Respublikamiz maydoni 448,9 ming kvadrat kilometrni tashkil qiladi. Uning 60 foizi qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlardir.

Aholisi. Davlat statistika qo‘mitasi xabariga ko‘ra, 2019- yil 1- yanvar holatiga mamlakatimiz aholisi 33 million kishidan oshib ketdi. Ishchi kuchi resurslari aholining deyarli yarmini tashkil qiladi.

Tabiiy resurslari. O‘zbekiston hududida 2700 dan ortiq foydali qazilmalarning istiqbolli konlari topilgan. Respublika yer ostidan yiliga qazib olinayotgan foydali qazilmalarning qiymati 5,5 milliard dollardan ko‘pdir.

O‘zbekiston oltin zaxiralari va qazib chiqarish bo‘yicha dunyodagi eng yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Respublikamiz yer osti kumushga ham boydir. Mamlakatimiz mis zaxiralarining miqdori bo‘yicha dunyoda yettinchi o‘rinda turadi. Uranning topilgan zaxiralari uni 50—60 yil qazib olishni ta’minlaydi. O‘zbekiston aniqlangan uran zaxiralari bo‘yicha dunyoda 11- o‘rinni, qazib olish bo‘yicha esa 9- o‘rinni egallaydi. Respublikamizda 160 dan ortiq gaz, neft, ko‘mir konlari qidirib topilgan va ochilgan, ularning ko‘pi foydalanishga topshirilgan. Ulardan 5 million tonnadan ortiq neft va gaz kondensati olinadi.

Har yili respublikamizda 50 milliard kub metrdan ortiq zangori yonilg‘i — gaz olinadi. Bu o‘z ehtiyojlarimizni to‘la ta’minlagan holda, uni boshqa davlatlarga eksport qilish imkonini ham beradi. Bir yilda qazib chiqariladigan ko‘mir to‘rt million tonnadan ortiqni tashkil etadi. O‘zbekistonda qidirib topilgan ko‘mirning umumiy zaxiralari 2 milliard tonnadan ko‘p.

Sanoati. Paxta tozalash, mashinasozlik, neftni qayta ishlash, rangli metallurgiya, energetika, to‘qimachilik, gaz, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, elektrotexnika, radiotexnika va boshqalar. 100 dan ortiq tarmoqqa mansub 2200 dan ziyod yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda AQSHning “General Motors” kompaniyasi bilan qilinayotgan hamkorlikda “Tracker”, “Gentra”, “Nexia-3”, “Malibu” va “Spark” rusumli jahon standartlariga to‘la javob beradigan zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Samarqand shahrida esa “Isuzu” rusumli o‘rta hajmli avtobuslar va yuk avtomashinalari hamda “MAN” va “KAMAZ” rusumli yirik tonnali yuk avtomashinalari ishlab chiqarilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonda mashinasozlik sanoati yildan-yilga rivojlanib, jahon andozalariga moslashib, yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

O‘tgan bir yil ichida YaIM tarkibidagi sanoatning ulishi 22,2% dan 26,3% gacha ortgan. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori templarda sanoatlashayotganligining tasdig‘idir.

Respublika energotizimning umumiy quvvati 14,15 GVt dan ortiq bo‘lib, bu tizim issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi sohalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi elektr energiyasiga bo‘lgan talabning keskin oshishiga olib kelmoqda. Bu esa davlatimiz oldiga elektr energiyasini ishlab chiqarishni keskin oshirish talabini qo‘ymoqda. Mana shu talabni qondirish maqsadida hukumatimizning Rossiyaning *“Rosatom”* Davlat Korporatsiyasi bilan hamkorlikda quvvati 24GVt ga teng bo‘lgan atom elektrostansiyasini qurish bo‘yicha qarori ulkan ahamiyatga egadir.

Mana shu maqsadda Prezidentimiz farmoni bo‘yicha “Uzatom” atom energetikasini rivojlantirish agentligi tuzildi. Bu bilan mamlakatimizdagina emas balki, O‘rta Osiyo hududida misli bo‘lmagan yangi zamonaviy sohaga asos solindi.

Ayniqsa, uran zaxiralarini qazib olish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlardan birini egallagashimiz mamlakatimizda atom energetikasini rivojlantirish uchun ulkan zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra 2018- yil holatiga O‘zbekiston aholisining 49,5 %i qishloqlarda istiqomat qiladi. Shu sabab, iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining tutgan o‘rni bo‘lakcha. Mamlakat YaIMining 32,4 %i qishloq va baliq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. O‘tgan bir yil ichida bu ko‘rsatkich 1,6 %ga pasaygani kuzatildi. Paxtachilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 53,2 %i dehqonchilikda, 46,8 %i chorvachilikda yaratiladi.

O‘zbekiston paxta tolasini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biridir. Respublikada katta hajmda g‘alla yetishtirish uchun asos yaratilgan. Oxirgi paytlarda yiliga 6 million tonnadan ortiq g‘alla yetishtirilmoqda. Respublika meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, pilla, qorako‘l teri, jun yetishtirishda MDH mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Bilasizmi?

Dunyo xaritasiga yaxshilab e’tibor bersangiz, respublikamiz dengizga chiqish imkoniyatlari jihatidan noqulay geografik makonda joylashgan. Jahonda faqat ikkita mamlakat — Lixtenshteyn va O‘zbekiston aholisigina dunyo okeaniga chiqish uchun kamida ikkita davlat chegarasini kesib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Bu iqtisodiyotimiz oldida qanday qiyinchiliklarni tug‘diradi?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. O‘zbekistonning tabiiy boyliklari haqida gapirib bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini ayting.

3. Mustaqillik yillarida bunyod etilgan ishlab chiqarish korxonalari haqida nimalar bilasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanganlik darajasiga ko‘ra qanday davlatlar qatoriga kiradi?
5. O‘zbekiston energetikasini rivojlantirishning dolzarbligi ortayotganligining sababi nimada?
6. O‘zbekistonda atom elektrostansiyasi qurilishining ahamiyati nimada?
7. Respublikamiz iqtisodiyoti ko‘rsatkichlarini bitta rivojlangan davlat bilan va bitta MDH mamlakati ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro taqqoslang.

Topshiriq

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasining 2017- va 2018- yillardagi YaIMining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlarini tahlil qiling va yillar bo‘yicha taqqoslang.

Ko‘rsatkich nomi	2017- yil	2018- yil
Yalpi ichki mahsulot	5.3%	5.1%
Sanoat mahsulotlari	4.6%	10.6%
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	2.0%	0,3%
Qurilish	5.6%	9,9%
Transport, sog‘liqni saqlash, axborot va aloqa	8.9%	6,3%
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3.9%	4,4%
Boshqalar	7.3%	5,4%
Mahsulotlarga solinadigan soliqlar va bojlar	5.3%	5.5%

Buni yodda tuting!

- O‘zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaIM o‘rtacha bo‘lgan, rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiradi.
- O‘zbekiston jahondagi iqtisodiyoti eng jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan davlatlardan biridir.

http://eduportal.uz

IV BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Mamlakat iqtisodiyotining qanday asosiy ko‘rsatkichlarini bilasiz?
2. YaIM, YaMM, SIM va MD qanday hisoblanadi.
3. Pirovard va oraliq mahsulotlar qanday farqlanadi?
4. Aholining turmush darajasi nimalarga bog‘liq?
5. YaIM(YaMM)ning nominal va real qiymatlari qanday farqlanadi?
6. Iqtisodiy davr mohiyatini tushuntirib bering.
7. Iqtisodiy o‘sish qanday aniqlanadi?
8. O‘zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ayting.

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Pirovard mahsulotlar, 2. Yalpi ichki mahsulot (YaIM),
3. Sof ichki mahsulot (SIM), 4. Milliy daromad (MD),
5. Iqtisodiy ko‘rsatkichning nominal qiymati,
6. Iqtisodiy ko‘rsatkichning real qiymati, 7. Iqtisodiy davr,
8. Aholining turmush darajasi, 9. Iqtisodiy farovonlik.

TALQINLAR:

a) mamlakat hududida bir yil mobaynida ishlab chiqarilgan, tugal ko‘rinishdagi tovar va xizmatlarning umumiy qiymati;
b) yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya ajratmasining ayrilganiga teng;
d) mamlakat aholisining bir yillik jami ish haqi, foiz, renta kabi daromadlari va barcha korxonalar foydasining yalpi miqdori;
e) joriy narxlarga nisbatan hisoblangan qiymat;
f) mamlakat iqtisodiyotining bir o‘sib, so‘ng pasayishiga ketgan vaqt;
g) iste’molga tayyor va boshqa ishlov berilmaydigan tovar va xizmatlar;
h) biror asos qilib olingan yildagi narxlarga nisbatan hisoblangan qiymat;
i) mamlakat fuqarolari turmush sharoitlarining umumiy tavsifi;
j) davomida mamlakat aholisi turmush darajasining muttasil yuqori bo‘lib turishi.

D. 97- bet IV bob titulidagi rasmlar bo‘yicha

Rasmlarning qaysilari bobdagi qaysi mavzuga taalluqli ekanligini ayting. Ushbu rasmlar asosida mavzularning mazmunini so‘zlab bering.

http://eduportal.uz

E. TESTLAR

1. Quyidagi tovarlarning qaysi biri pirovard tovar hisoblanmaydi?
A) Sartarosh xizmati; B) Tikuvchilik sexi omboridagi ip;
D) Oshxonadagi taom; E) Do‘kondagi kitob.

2. O‘zbekiston qanday davlatlar guruhiga kiradi?
A) Rivojlangan davlatlar;
B) Daromadlar darajasi past bo‘lgan davlatlar;
D) Rivojlanayotgan davlatlar;
E) To‘g‘ri javob yo‘q.

3. Quyidagi formulalardan qaysi biri noto‘g‘ri?
A) $YaMM = YaIM + E - I$; B) $SIM = YaIM - A$;
D) $SMM = YaMM - A$; E) $YaMM = YaIM - E + I$.

4. Mamlakat sarmoyasi hisobiga chet ellarda yaratilgan tovar va xizmatlarning jami qiymati, chet el sarmoyasi hisobiga mamlakatda yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatidan ko‘p. Bu holatda:
A) YaMM YaIMdan katta bo‘ladi;
B) YaMM YaIMga teng bo‘ladi;
D) YaMM YaIMdan kichik bo‘ladi;
E) YaMM YaIMdan katta ham, kichik ham bo‘lishi mumkin.

5. Rivojlangan davlatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaMM qanchani tashkil qiladi?
A) 7510 dollardan kam; B) 7510 dollardan ko‘p;
D) 6400 dollardan kam; E) 5400 dollardan kam.

6. Aholining turmush darajasini aniqlashda nima hisobga olinadi?
A) Aholining savodxonlik darajasi;
B) Tibbiy xizmat darajasi;
D) Madaniy va maishiy tovarlar bilan ta’minlanganlik darajasi;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

7. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini qaysi ko‘rsatkich yaqqolroq ko‘rsatadi?
A) Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaIM;
B) Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YaMM;
D) Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan milliy daromad;
E) Aholining turmush darajasi.

http://eduportal.uz

Mustaqil faoliyat	O‘ZBEKISTONNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

2018- yil 21- sentyabr kuni “2019 – 2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni imzolandi va ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilindi.

Farmonga asosan, 2019 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi va rasmiy huquqiy hujjat maqomini oldi.

Farmonda strategiyaning bosh maqsadi etib inson kapitali belgilangan. Farmonda inson kapitali – mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini innovatsion jihatdan taraqqiy etganligini belgilovchi omil ekanligi ta’kidlangan.

Farmonda strategiyaning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

– O‘zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ta eng ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

– Ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish;

– Innovatsiyalar, boshqaruvning zamonaviy usullari, raqobatdosh biznes muhitini shakllantirish va rivojlantirish;

– Zamonaviy va barqaror iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Unda, shuningdek, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va tehnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish qabul qilingan strategiyaning maqsadi ekanligi ham alohida uqtirilgan.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston o‘z taraqqiyoti uchun innovatsion rivojlanish yo‘lini tanlaganining sababini tushuntiring.
2. Siz o‘zingizning atrofingizdagi hayotdan innovatsion rivojlanishga misol keltirishga harakat qiling. Bunda birinchi navbatda sizga eng yaqin bo‘lgan ta’lim, sport, tadbirkorlik sohalaridagi o‘zgarishlarni e’tibordan chetda qoldirmang.
3. O‘zbekistonni jahonning 50 ta eng ilg‘or mamlakati qatoriga kiritish – siz yoshlarning vazifangiz ekanligini idrok qila olasizmi? Siz bu vazifaga o‘zingizni qanday tayyorlashingiz kerak deb o‘ylaysiz?

http://eduportal.uz

Inflatsiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas.

Shavkat Mirziyoyev

V bob. Inflatsiya va ishsizlik

Aholi o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim.

Shavkat Mirziyoyev

22- MAVZU INFLATSIYA VA UNING TURLARI

Sa'dullayevlar oilasining o'rtacha bir oylik xarajatlari:

Shaxsiy iste'mol tovarlari va xizmatlari	—	280 000 so'm
Uy-ro'zg'or va xo'jalik mollari	—	150 000 so'm
Oziq-ovqat	—	1 200 000 so'm
Kiyim-kechak	—	950 000 so'm
Madaniy mollar va xizmatlar	—	100 000 so'm
Maishiy va boshqa xarajatlar	—	350 000 so'm
Jami oylik chiqim	—	... so'm

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sa'dullayevlar oilasining bir oylik xarajatlari jadvali asosida oylik jami chiqim miqdorini hisoblang.
2. Agar oziq-ovqatlar narxi 20% ga oshsa, Sa'dullayevlar oilasining oylik xarajatlari miqdori necha so'mga va necha foizga ko'payadi?
3. Agar oilaning daromadlari miqdori o'zgarmagan bo'lsa, sizning fikringizcha, keyingi oydan bu oilaning qaysi xarajatlari ko'payadi, qaysilari esa kamayadi?
4. Bu holda, sizning fikringizcha, xarajatlar tarkibi qanday o'zgarishi mumkin?

Ma'lumki, har bir davlat hududida ma'lum miqdordagi pul muomalada bo'lib, oldi-sotdi jarayonlari uning vositasida amalga oshiriladi. Shu sabab, muomaladagi pullar qo'ldan qo'lga o'tib, to'xtovsiz aylanib turadi. Pulning biror oldi-sotdi jarayonida qatnashib, qo'ldan qo'lga o'tishi, uning bir marta aylanganligini bildiradi. Muomaladagi pul miqdorining bir yil davomida necha marta oldi-sotdi jarayonlarida qatnashganiga qarab, uning aylanish tezligi aniqlanadi. Agar muomaladagi pul miqdori uning aylanish tezligiga ko'paytirilsa, yil davomida mamlakatda ishlab chiqarilgan va aholi tomonidan sotib olingan tovar va xizmatlarning qiymati hosil qilinadi.

Ikkinchi tomondan, yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatini tovar va xizmatlar miqdorini birlik mahsulotning o'rtacha narxiga ko'paytirib ham aniqlash mumkin. Demak, yuqoridagi fikrlarga

asosan, $M \cdot V = P \cdot Q$ ko‘rinishdagi Fisher tenglamasi deb nomlangan tenglamani hosil qilamiz. Bu yerda, M — muomaladagi pul massasi, V — pulning aylanish tezligi, P — birlik tovarning o‘rtacha narxi, Q — tovar va xizmatlar miqdori. Fisher tenglamasi har qanday davlat iqtisodiyoti uchun o‘rinli bo‘lib, *pul muomalasi qonuni* deb ham ataladi.

Pul massasi– mamlakatda muomalada bo‘lgan barcha pul mablag‘larining yig‘indisi.

Pulning aylanish tezligi – pulning oldi-sotdi jarayonida qatnashib, bir yil davomida qo‘ldan qo‘lga o‘tish soni.

Irving Fisher o‘z ilmiy faoliyatining asosiy qismini iqtisodiyot fanining tovar-pul munosabatlariga oid masalalar bo‘yicha nazariy izlanishlar olib borishga bag‘ishladi.

Uning ilmiy izlanishlarini muvaffaqiyatli olib borishida matematika bo‘yicha chuqur ma’lumoti qo‘l keldi.

Irving Fisher (1867-1947)

Agar mamlakat iqtisodiyotida muomaladagi pul miqdori ko‘payib ketsa, pul muomalasi qonuniga ko‘ra, Fisher tenglamasidagi muvozanatni tiklash uchun yoki tovar va xizmatlar hajmini ko‘paytirish yoki tovar va xizmatlarning o‘rtacha narxini oshirish kerak bo‘ladi. Lekin tovar va xizmatlar hajmini bir zumda oshirishning imkoni yo‘q. Shuning uchun, muomaladagi pul miqdorining o‘sishi, odatda, narxlarning oshishiga olib keladi.

Iqtisodiyotda o‘rtacha narx-navoning muttasil oshib borish jarayoniga *inflatsiya* deb ataladi. Inflatsiya, o‘z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. *Pulning qadrsizlanishi* deb, unga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar miqdorining kamayishiga aytiladi. Pulning qadri tovarlar narxining arzon yoki qimmatlashishiga qarab o‘zgarib turadi. Agar narxlar qimmatlashsa, ma’lum miqdordagi pulga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar miqdori kamayadi. Bu esa pulning qadrsizlanganligidan dalolat beradi. Aksincha, agar bozordagi narxlar arzonlashsa, ma’lum miqdordagi pulga ko‘proq tovar sotib olish mumkin bo‘ladi. Bu pul qadrining oshganligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotda o‘rtacha narx-navoning muttasil pasayib borish jarayoniga *deflatsiya* deyiladi. Inflatsiya makroiqtisodiy jarayon bo‘lib, u mamlakat iqtisodiyotining hamma sohalarini qamrab oladi va deyarli barcha tovar va xizmatlar narxlarining oshishiga olib keladi.

kitob.eduportal.uz

Inflatsiya kelib chiqishining ikkita asosiy sababini keltirish mumkin:

1. Muomalada mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar qiymatidan ko‘proq miqdordagi pulning mavjudligi oqibatida. Bu holda tovar va xizmatlarga bo‘lgan yalpi talab miqdori taklif etilayotgan tovar va xizmatlar miqdoridan ko‘p bo‘ladi. Shu bois narxlar oshadi.

2. Tovarni ishlab chiqarish uchun zarur resurslar (ishchi kuchi va xom ashyo) narxlarining oshishi natijasida. Masalan, ishchi kuchi resurslarining narxi, ya’ni ish haqi oshirilsa, bir tomondan tovarning narxi oshadi (chunki, ish haqi tovarning tannarxiga kiradi), ikkinchi tomondan esa aholi qo‘lidagi pul massasi oshadi.

Inflatsiyani jilovlab turish juda mushkul ish. Bu ish davlatning eng asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Inflatsiyani nazoratdan chiqarib yuborish, uning o‘sib giperinflatsiyaga aylanishiga olib kelishi mumkin. *Giperinflatsiya* deb, narx-navoning haddan tashqari oshishiga aytiladi. Giperinflatsiya paytida narxlar yiliga 50 baravardan ham ko‘proq ko‘tarilishi kuzatiladi.

Inflatsiya – mamlakatdagi o‘rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi.

Inflatsiya darajasi – ma’lum davrdagi narx-navo oshishining foizlardagi miqdori.

Giperinflatsiya – mamlakatda o‘rtacha narx-navoning haddan tashqari (yiliga 50 baravardan ham ko‘p) oshgandagi holat.

Inflatsiya haqida gapirilganda iste’mol bozoridagi narxlarning o‘zgarishini aniqlash uchun zarur bo‘lgan iste’mol narxlari indeksi tushunchasini kiritishimiz lozim bo‘ladi. Bu indeksni hisoblash uchun o‘rtacha iste’molchi odatda doimo sotib oladigan tovarlarning muayyan, o‘zgarmas to‘plami olinadi. Bu indeksni hisoblashda mana shu tovarlar to‘plamining har xil yillardagi narxlari yig‘indilari solishtiriladi. Masalan, 2017 – 2018- yillar bo‘yicha iste’mol narxlari indeksini aniqlash uchun tovar va xizmatlarning muayyan o‘zgarmas to‘plamining 2018- yildagi qiymatini 2017- yildagi qiymatiga bo‘lamiz.

Formula

$$I=\frac{P_2}{P_1}$$

Bu yerda I – iste’mol narxlari indeksi, P_1 – bazaviy yildagi tovar va xizmatlar muayyan to‘plamining qiymati, P_2 – shu to‘plamning qaralayotgan yildagi qiymati.

Yuqoridagi formuladan foydalanib har bir oila o‘z “oilaviy” inflatsiyasini hisoblab chiqarishi mumkin. Buning uchun oila

http://eduportal.uz

tomonidan birinchi yili sotib olingan tovar va xizmatlar ro‘yxatini tuzib, ularning umumiy qiymatini hisoblab chiqish kerak. Keyin xuddi shu oila tomonidan aynan shu ro‘yxat bo‘yicha keyingi yili yangi narxlarda sotib olingan tovar va xizmatlarning umumiy qiymatini hisoblab chiqish kerak. Keyingi yil bo‘yicha qiymatni birinchi yil bo‘yicha hisoblangan qiymatga bo‘lish orqali oilangizning “inflatsiyasi” ni hisoblab chiqarishingiz mumkin.

Mamlakat bo‘yicha tovar va xizmatlar narxlarini kuzatib borish uchun, odatda, muayyan tovar va xizmatlar to‘plami doimiy, o‘zgarmas qilib belgilab qo‘yiladi va mana shu to‘plam bo‘yicha narxlarning o‘zgarishi kuzatilib boriladi. Bunday to‘plam odatda “iste’mol savati” deb yuritiladi. Mamlakatning rivojlanganlik darajasiga qarab “iste’mol savati”ga kiritiladigan tovar va xizmatlar ham har xil bo‘lishi mumkin. Iqtisodiyotda “minimal iste’mol savati” tushunchasi ham borki, bu “savatga” oilaning hayot kechirishi uchun eng zarur bo‘lgan tovar va xizmatlar kiradi.

Mashq

Oila yillik xarajatlarining 60%ini tashkil qiluvchi oziq-ovqatlar narxi yil davomida 80%ga oshdi. Agar boshqa xarajatlar narxi o‘zgarmagan bo‘lsa, bu oila uchun yillik inflatsiya darajasi necha foizni tashkil qiladi?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Mamlakatimizda bir oyda pul necha marta aylanadi deb o‘ylaysiz?
2. Pul muomalasi qonunini Fisher tenglamasi asosida sharhlang.
3. Mamlakatda qancha miqdordagi pul muomalada bo‘lishi kerak?
4. Muomalada bo‘lgan pul miqdoriga qanday omillar ta’sir qiladi?
5. Inflatsiyaning tub mohiyati nimadan iborat?
6. Deflatsiya pulning qadriga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
7. Inflatsiyaga olib keluvchi sabablar nimalardan iborat?
8. Iste’mol narxlari indeksi nima?
9. “Iste’mol savati” atamasining ma’nosini ayting.

Buni yodda tuting!

- Mamlakatda muomaladagi pul miqdori tovar va xizmatlar hajmiga mutanosib ravishda o‘zgarib turadi.
- Muomaladagi pul miqdori ko‘payib, narxlar oshishi inflatsiyaga olib keladi.
- Inflatsiya natijasida pul qadrsizlanadi.

http://eduportal.uz

23- MAVZU INFLATSIYA OQIBATLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inflatsiya rasmdagi odamlarning turmush darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Pulning qadrsizlanishiga hayotdan misol keltiring.
3. Davlatimiz tomonidan shifokorlar va o'qituvchilarning maoshlari oshirilishi bilan inflatsiya orasida qanday bog'liqlik bor?

Inflatsiya yildan-yilga o'zgarib boruvchi hodisadir. Shuning uchun ham *inflatsiya darajasi* tushunchasini bilish juda muhim. Bu ko'rsatkich asosiy tovar va xizmatlar narxlarining o'sish tezligini namoyon qiladi. Inflatsiya darajasini iste'mol narxlari indekslari orqali hisoblab chiqarish mumkin.

$$\text{Ya'ni, inflatsiya darajasi} = \frac{NI_1 - NI_0}{NI_0}$$

Bu formuladagi NI_0 – birinchi yildagi iste'mol narxlari indeksi, NI_1 – keyingi yildagi iste'mol narxlari indeksi. Aynan mana shu formula orqali iqtisodiyot qanday holatda ekanligini bilib olish mumkin.

Yuqori darajali inflatsiya iqtisodiyot uchun juda noxush hodisa bo'lib, u mamlakatning barcha fuqarolariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda davlat budjetidan maosh oluvchi xizmatchilar, o'qituvchilar, shifokorlar,

harbiylar, nafaqa oluvchilar, shuningdek, mablag‘larini jamg‘arayotgan fuqarolar ko‘proq zarar ko‘radi. Chunki yillar davomida ular yiqqan pul mablag‘lari tezda qadrsizlanib qoladi. Shu bois odamlar banklardan omonatlarini olib, do‘kondan tovarlar sotib ola boshlashadi. Natijada tovar tanqisligi vujudga kelishi mumkin. Inflatsiya darajasini hisobga olmasdan, pulini birovga qarzga bergan kishilar ham inflatsiyadan ziyon ko‘rishadi.

O‘sish sur’atlariga qarab inflatsiyaning quyidagi darajalarini farqlaydilar: sudraluvchi, yuguruvchi va giperinflatsiya.

Sudraluvchi (mo‘tadil) inflatsiyada narxlarning o‘sishi 10 % dan oshmaydi. Bunday inflatsiyani iqtisodchi olimlar, odatda, iqtisodiyotdagi me’yoriy holat deb qaraydilar.

Yuguruvchi inflatsiyada narxlar 10%dan 50%gacha oshadi. Bu iqtisodiyot uchun xavfli holatdir. Bunday holatda davlat tomonidan inflatsiyaga qarshi tezkor va keskin choralar ko‘rish talab qilinadi.

Giperinflatsiya davrida narxlar yiliga 50 baravardan ham ko‘pga oshadi. Bu ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish sur’atlari pasayadi. Tuzilgan bitimlar o‘z kuchini yo‘qotadi, chunki shartnomadagi narxlar tomonlarni qanoatlantirmay qo‘yadi.

Omonatchilarning o‘z pul mablag‘larini banklardan shoshilinch talab qilishi va olishi natijasida banklar bankrotlik holatiga tusha boshlaydi. Pul mablag‘lari bor banklar ham qarzga pul berishdan cho‘chib qoladi. Bunday inflatsiya paytida ishlab chiqarilgan tovarni sotish ham befoyda bo‘lib qoladi. Chunki xom ashyo va resurslar narxining kun sayin oshishi tufayli tovarni sotishdan tushgan pulga yana shuncha tovar ishlab chiqarish amri mahol bo‘lib qoladi.

Tadbirkorlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmay qo‘yishadi. Ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari yopiladi. Ishsizlar ko‘payadi. Tadbirkorlar faqat qisqa muddatli savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan bo‘lib qoladi. Chunki bu paytda pulni qadrsizlanib ulgurmasdan sarflash kerak bo‘ladi.

Bilasizmi?

Birinchi jahon urushidan keyin, 1923- yili Germaniyada narxlar 1,3 trillion marta oshib, giperinflatsiya kuzatilgan. 1985- yili Boliviyada inflatsiya darajasi 8000% ga yetgan. 1993- yili Braziliyada inflatsiya darajasi 2148% ni tashkil qilgan. 1990- yillar boshida esa sobiq sovet ittifoq respublikalarining barchasida inflatsiya darajasi yuqori bo‘lgan.

Giperinflatsiya davrida davlatning bir maromda kechayotgan iqtisodiy siyosati izdan chiqadi. Davlat budjetining kamomadi keskin oshib ketadi. Davlat o‘z zimmasidagi ijtimoiy vazifalarni bajarishga mablag‘ topa olmay

http://eduportal.uz

qoladi. Mamlakatda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tanglik vujudga keladi. Giperinflatsiya natijasida mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalari zarar ko‘radi. Bugungi kunlardagi giperinflatsiyaga Venesuela mamlakatidagi ahvol yaqqol misol bo‘la oladi. Bu mamlakatda 2018- yilda, Xalqaro valuta jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra inflatsiya darajasi 1 370 000% ni tashkil qilgan. YaIM 15% ga qisqargan, 3 milliondan ortiq aholi giperinflatsiyadan qiynalib mamlakatni tark etgan.

Inflatsiyaning oldini olishga qaratilgan choralar davlatning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlatning inflatsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

1. Muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirish. Muomaladagi pul massasi uning aylanish tezligiga va ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar qiymatiga asta-sekin moslashtirib boriladi. Aholini mablag‘larini banklarga qo‘yishga yoki davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga undaydilar. Bankdagi aholi omonatlari ma’lum muddatga “muzlatiladi”. Pul massasining kamayishi talabning kamayishiga, narxlarning o‘sishdan to‘xtab, pasayishiga olib keladi.

2. Ishlab chiqarishni rag‘batlantirish. Davlat pul massasini kamaytirish bilan birga ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ularga imtiyozli kreditlar beradi, soliq imtiyozlarini joriy qiladi. Natijada tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi oshib, muomaladagi pullar tovar bilan ta’minlanadi. Tovarlar taklifining oshishi narxning pasayishiga olib keladi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Inflatsiyaning salbiy oqibatlarini ayting va sharhlang.
2. Davlat inflatsiyaga qarshi qanday chora-tadbirlar ko‘rishi lozim?
3. Inflatsiya paytida o‘z mablag‘laringizni saqlab qolish maqsadida qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz? Bu davlatning chora-tadbirlariga mos keladimi?

Bilasizmi?

XV asr buyuk geografik kashfiyotlar asri bo‘lib, Ispaniya davlatining xazinasi Amerika qit’asidan olib kelingan oltin va kumushga to‘lib bordi. Shunday bo‘lsa-da, Ispaniyada bir necha asrlardan beri o‘zgarmasdan kelayotgan narxlar keskin osha boshladi. Ispaniyada ishlab chiqarilgan tovarlar narxining oshib ketishi ularning Yevropa bozorlaridan quvilishiga olib keldi. Natijada Ispaniya iqtisodiyoti tanazzulga yuz tutib, bir muddat Yevropaning qoloq davlatlaridan biriga aylandi.

Topshiriq

INFLATSIYADA KIM KO‘PROQ YUTQAZADI?

Asqar Bobonazarov 5 000 000 so‘m mablag‘ini 24% yillik foiz stavkasi bilan bankka qo‘ydi.

Nilufar Ergasheva 5 000 000 so‘m mablag‘iga qimmatbaho zebziynat sotib oldi.

Egamberdi Esonov 5 000 000 so‘m mablag‘iga qadri barqaror bo‘lgan xorijiy davlat valutasini sotib oldi.

Oxunjon Soliyev 5 000 000 so‘m mablag‘iga g‘isht zavodining oddiy aksiyalarini sotib oldi.

Mamlakatdagi yillik inflatsiya darajasi



1. Diagrammadan mamlakatda 2002- yildagi inflatsiya darajasini aniqlang.
2. Bu davrda yuqorida atalgan fuqarolarning har biriga inflatsiya qanday ta’sir qilgan bo‘lar edi? 2018- yilda-chi?
3. Ulardan qaysi biri inflatsiyadan eng ko‘p ziyon ko‘rgan bo‘lar edi?
4. Ulardan qaysi birining tutgan yo‘lini to‘g‘ri deb o‘ylaysiz?
5. Umuman olganda, yuqori darajadagi inflatsiya sharoitida qanday yo‘l tutgan ma’qul? O‘z tavsiyalaringiz ro‘yxatini tuzing va sharhlang.
6. Respublikamizda so‘nggi yillardagi inflatsiya darajalarini sharhlang.

Buni yodda tuting!

- Yuqori darajali inflatsiya mamlakat iqtisodiyoti uchun sezilarli zarar yetkazadi.
- Inflatsiyadan ko‘proq davlat budjetidan maosh, nafaqa oluvchilar va omonatchilar zarar ko‘radi.
- Inflatsiyani muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirish va ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi choralar yordamida jilovlash mumkin.

http://eduportal.uz

24- MAVZU ISHCHI KUCHI BOZORI VA ISHSIZLIK

Bank xodimi

Ilmiy xodim

Sartarosh

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bu kasb egalari oylik ish haqi miqdorini taxminan belgilang va ularni kamayish tartibida joylashtirib chiqing.
2. Nima sababdan bu kasb egalarining oylik maoshlari miqdori turlicha?
3. Sizningcha, oylik maoshlar miqdoriga nimalar ta'sir ko'rsatadi?
4. Siz ishsiz deganda qanday odamni tasavvur qilasiz?

Inson mehnati, uning ishchi kuchi tovar hisoblanib, ishchi kuchi bozorida sotiladi va sotib olinadi. Bozorda ishchi kuchi mehnatga layoqatli aholi tomonidan sotiladi. Ishchi kuchi unga muhtoj bo'lgan korxonalar tomonidan sotib olinadi. Demak, ishchi kuchiga talab — ish beruvchi korxonalar, ya'ni ishlab chiqaruvchilar tomonidan, uning taklifi esa, ishga layoqatli aholi tomonidan shakllantiriladi. Kishilarning ishchi kuchidan foydalanmaslik bu jamiyat uchun boy berilgan imkoniyatdir.

Ishchi kuchi taklifi — ma'lum vaqt davomida muayyan narxlarda qancha ishchi o'z ishchi kuchini sotishga rozi ekanligini anglatadi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab — ma'lum vaqt davomida muayyan narxlarda qancha ishchining ishchi kuchi korxonalar tomonidan sotib olinishini bildiradi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab, ishlab chiqaruvchilar tomonidan shunchaki emas, balki shu ishchi kuchi yordamida ishlab chiqariladigan tovarga bo'lgan talabdan kelib chiqib aniqlanadi.

Ishchi kuchining narxi unga to'lanadigan pul — ish haqi bilan o'lchanadi. Bunday mehnat bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar soni shuncha ko'p bo'ladi. Buni grafikda ifodalasak, 24.1- chizmadagi kabi *S* chiziqni hosil qilamiz. Bu grafik ishchi kuchining taklif chizig'i deb

ataladi. Ikkinchi tomondan, ishchi kuchining narxi qancha arzon bo‘lsa, korxonalar shuncha ko‘p ishchi yollashadi va aksincha, ishchi kuchining narxi qancha qimmat bo‘lsa, korxonalar shuncha kam ishchini ishga yollashadi. Buni ham grafik yordamida ifodalasak, 24.1- chizmadagi kabi ishchi kuchiga bo‘lgan talab chizig‘i deb ataladigan *D* chiziqni hosil qilamiz. Boshqa tovarlar kabi, ishchi kuchining bozor narxi unga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqib aniqlanadi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talabning taklif miqdoriga teng bo‘lgandagi narxi uning bozor narxini belgilaydi. 24.1- chizmada tasvirlangan ishchi kuchining narxi 850 000 so‘mni, bunday oylik ish haqiga rozi bo‘lgan ishchilar soni 3 000 kishini tashkil qiladi.



24.1- chizma.

Nima sababdan to‘qimachilik kombinatining menejeri oddiy ishchiga nisbatan ko‘p maosh olishini asoslashga urinib ko‘raylik. Ishchi va xizmatchilar maoshining ko‘p yoki kam bo‘lishi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

1. Ish kishidan qanchalik ko‘p maxsus bilim, malaka va tayyorgarlikni talab qilsa, u shunchalik qimmat turadi. Haqiqatan, katta o‘quv va malaka talab qilmaydigan, oddiy ishlarni bajara oladigan ishchilar juda ko‘p. Maxsus bilim va alohida boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan tajribali menejerlar esa kam. Shu bois, oddiy ishchilar ishchi kuchining taklifi — S_2, menejer xodimlar ishchi kuchi taklifi — S_1 dan ko‘p bo‘ladi. Bu holatda, menejerlar ish haqi — p_1, oddiy ishchilar ish haqi — p_2 dan ko‘p bo‘lishini 24.2- chizmadan aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.



24.2- chizma.

2. Ishning evaziga yaratilgan tovar sotilgach, ish beruvchiga qanchalik ko‘p foyda olib kelsa, ishchi kuchi shuncha yuqori baholanadi.

3. Ish qanchalik og‘ir va qiyin bo‘lsa, shuncha qimmat bo‘ladi. Masalan, ko‘mir koni ishchisi oddiy ishchilardan ko‘proq maosh oladi.

4. Ish qanchalik xavfli, sog‘liqqa ziyon yetkazadigan yoki tavakkalchilikni talab qiladigan bo‘lsa, shuncha qimmat baholanadi.

Ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat qator omillar ta’sirida buzilib turadi. Bu omillardan biri mehnat bozorining boshqa tovarlar bozoriga bog‘liqligidir. Masalan, bir

tovarni ishlab chiqarishga qaraganda boshqasini ishlab chiqarish foydali bo‘lib qoldi. Ishchi kuchi bozorida ham shunga mos ravishda, birinchi sohada ishchilarni yollash qisqarib, ikkinchi sohada ishchilarga bo‘lgan talab oshadi. Ishchilar bir ishdan bo‘shab, ikkinchi ishga kirishlari lozim bo‘lib qoladi. Toki ular boshqa soha bo‘yicha tovar ishlab chiqarish malakasini egallab, unga moslashib olgunlariga qadar, ya’ni ishchi kuchining taklifi yangi talabga moslashguncha, mehnat bozorida muvozanat buziladi. Kishilar ishlashni xohlasalar-da, o‘zlariga yarasha ishni topa olmay qolishadi. Natijada ishsizlar paydo bo‘ladi.

Mashq

Ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga talab va taklif quyidagi jadvalda berilgan:

Ish haqi	Ishchi kuchiga talab miqdori	Ishchi kuchi taklif miqdori
1 300 000 so‘m	300	100
1 600 000 so‘m	200	200
1 900 000 so‘m	100	300

Ishchi kuchining bozor narxini toping.

Ishsizlik kelib chiqish sabablariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Friksion ishsizlik. Bu ishsizlik kishilarning bir ishdan bo‘shab, ikkinchi ishga joylashishi oralig‘ida yuzaga keladi. Shuningdek, bunday ishsizlik yoshlarning balog‘at yoshiga yetib yoki o‘quv yurtlarini bitirib, birinchi marta ish qidirayotgan paytida ham kelib chiqishi mumkin.

2. Mavsumiy ishsizlik. Mavsumiy ishlarning tugashi natijasida kelib chiquvchi ishsizlik mavsumiy ishsizlik deb ataladi. Masalan, qish oylarida qishloq xo‘jalik ishlari to‘xtab, qishloqlarda ko‘pchilik ishsiz qoladi.

3. Tarkibiy ishsizlik. Bu ishsizlik mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida kelib chiqadi. Mamlakat iqtisodiyotidagi eski sohalar qisqarib, o‘rniga yangi sohalarning paydo bo‘lishi, yangi iqtisodiy hududlarning vujudga kelishi, ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarning qo‘llanishi, yangi kasb egalariga, yangi malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarga talabni keltirib chiqaradi. Mehnatga layoqatli aholi yangi talabga moslashguncha tarkibiy ishsizlik paydo bo‘ladi.

4. Davriy ishsizlik. Mamlakat iqtisodiyotining davriy o‘zgarishi bilan bog‘liq ishsizlik davriy ishsizlik deb ataladi. Davriy ishsizlik mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalari inqirozga yuz tutgan davrda sodir bo‘ladi. Bu paytda iqtisodiy faollik sustlashadi, yalpi talab kamayadi. Bu esa, o‘z navbatida, ishsizlik darajasining keskin oshishiga olib keladi. Mamlakat iqtisodiyoti jonlangan davrda esa ishchi kuchiga bo‘lgan yalpi talab oshadi. Bu esa, o‘z navbatida, ishsizlik darajasining pasayishiga

http://eduportal.uz

olib keladi va hokazo. Bunday ko‘rinishdagi ishsizlik davriy ravishda goh o‘sib, goh pasayib turadi. Davriy ishsizlik jamiyat uchun juda og‘ir kechadi. Davriy ishsizlikning uzoq vaqt davom etishi butun iqtisodiyotni izdan chiqarishi, oqibatlari esa butun jamiyatni larzaga solishi mumkin.

Ishsizlik mamlakatda ishga layoqatli, belgilangan maoshga ishlashni xohlovchi va ish qidirib yurgan fuqarolarning borligi bilan ifodalanadi. Mehnatga layoqatli aholi deganda 16 yoshdan katta (respublikamizda 16 yoshdan boshlab mehnat qilishga qonun bo‘yicha ruxsat etilgan) va mehnat qilishga qodir kishilar tushuniladi. Mamlakatning barcha mehnatga layoqatli aholisi uning ishchi kuchi resurslarini tashkil qiladi. Mamlakatning mehnatga layoqatli aholisi safidan o‘z xohishi bilan ishlamayotgan va ish qidirmayotganlar, uy bekalari kabilar chiqarib tashlansa, mamlakatning ishchi kuchi hosil bo‘ladi. Shunday qilib, mamlakatning ishchi kuchi — ish bilan band va ish bilan band bo‘lmaganlardan tashkil topadi. Mamlakatdagi ishsizlik darajasi ishsizlar sonining mamlakat ishchi kuchining umumiy soniga nisbatan foiz miqdori bilan o‘lchanadi.

Ishsizlar — mamlakatning ishga layoqatli, muayyan ish haqi evaziga ishlashga rozi, lekin ish topa olmagan yoki ish qidirib yurgan fuqarolari.

Ishchi kuchi resurslari — mamlakatning jami mehnatga layoqatli aholisi.

Ishsizlik darajasi — mamlakatdagi ishsizlar sonining, mamlakat ishchi kuchining umumiy soniga nisbatan foiz miqdori.

Formula

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Ishchi kuchi soni}} \cdot 100\ \%$$

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Ishchi kuchi bozorida talab va taklif qanday shakllanadi?
2. Ishchi kuchi bozorining boshqa bozorlardan farqli tomonlarini ayting.
3. Ish haqi miqdoriga nimalar ta’sir qiladi?
4. Kompyuter dasturchisi, olim, haydovchi, professional tennischi, tibbiyot hamshirasi, zavod direktorining oylik maoshlari nimadan kelib chiqib belgilanadi?
5. Ishsizlikning kelib chiqish sabablarini sanang va izohlab bering.
6. Ishsizlikning har bir turiga misol keltiring.

http://eduportal.uz

25- MAVZU IJTIMOIY HIMOYA VOSITALARI



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi chizmada ish beruvchi korxona, firmalar bilan ularda yollanib ishlayotgan ishchilar o'rtasidagi nizo tasvirlangan.

1. Siz ish beruvchi sifatida qanday qilib nizoni hal qilgan bo'lar edingiz?
2. Siz ishga yollanuvchi sifatida o'z manfaatlaringizni qanday himoya qilgan bo'lar edingiz?
3. Siz davlat vakili sifatida bu nizoni qanday hal qilgan bo'lar edingiz?
4. Kasaba uyushmalari haqida nimalarni bilasiz?

Ishsizlik turlaridan eng zararlisi bu – davriy ishsizlikdir. Bunday ishsizlik nafaqat alohida shaxs, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga, butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda davriy ishsizlikning paydo bo'lishi iqtisodiyotga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillik yillarining boshida mamlakatimizda vujudga kelgan vaziyat bunga misol bo'la oladi. Sobiq ittifoqdan qolgan qoloq agrar iqtisodiyot, oldingi iqtisodiy aloqalarning uzilib qolishi, ishlab chiqarish hajmining

keskin kamayib ketishi, respublikamiz iqtisodiyotining yangi bozor iqtisodiyotiga o‘tishi bilan bog‘liq chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar mamlakatimizda davriy ishsizlikni keltirib chiqardi. Davriy ishsizlik paytida ko‘plab zavod va fabrikalar ishlashdan to‘xtaydi. Minglab odamlar qishloqdan shaharga ish qidirib boradilar. Narx-navoning oshishi, yashash sharoitlarining og‘irlashgani tufayli oldinlari ishlamasdan yurgan uy bekalari, nafaqaxo‘rlar va talabalar ham ish qidirib qoladilar. Natijada, ishchi kuchi bozoridagi muvozanat butun mamlakat miqyosida buziladi. Shu bois bunday ishsizlikning oldini olish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ishchi kuchi bozoridagi muvozanatni saqlab turish davlatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi kuchi resurslarining asosiy manbasi bo‘lgan aholini ishsizlik balosidan himoya qilish bo‘yicha muttasil ish olib boriladi.

Bu ish bilan mehnat birjalari shug‘ullanadi. *Mehnat birjasi* ish beruvchi korxonalar va ish qidirib yurgan kishilar o‘rtasida vositachilik qiladigan davlat tashkilotidir. Mehnat birjasi ishsizlarni ro‘yxatga oladi, korxonalardagi bo‘sh ish o‘rinlarini aniqlaydi va ish qidirib yurgan kishilarni bu korxonalarga ishga yollaydi. Mehnat birjasiga murojaat qilgan ishsizga, kasbi bo‘yicha ish topilmasa, “ishsiz” degan maqom beriladi va ma’lum vaqtgacha ishsizlik nafaqasi bilan ta’minlab turiladi.

Ba’zi hollarda, yollanma ishchilar va ish beruvchi korxonalar o‘rtasida oylik maosh miqdori, ishlash sharoitlari va mehnat xavfsizligini ta’minlash masalalarida nizolar kelib chiqadi. Yollanma ishchilar o‘z manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmalariga birlashadi. *Kasaba uyushmalari* nodavlat, jamoat tashkiloti bo‘lib, o‘z a’zolari manfaatlarini himoya qiladi.

Kasaba uyushmalarining maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Kasaba uyushmalari a’zolarining iqtisodiy, ijtimoiy, kasbiy maishiy talablarini himoya qilish. Ularning turmush daraja ko‘rsatkichlarini oshirish uchun kurashish.

2. Kasaba uyushmalari a’zolari nomidan boshqaruv organlari oldida vakillik funksiyalarini amalga oshirish.

3. Kasaba uyushmasi a’zosi bo‘lgan ishchilarning hayot sifati mezonlarini sezilarli ko‘tarishga intilish.

Bu maqsadlarga erishish uchun kasaba uyushmalari quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

1. Munosib va haqqoniy ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni ta’minlashga intilish.

2. Ishchi va xizmatchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida

turli darajadagi muzokaralarda qatnashish.

3. Mehnatkashlarning ta'lim va tibbiy xizmat olish kafolatlarini ta'minlashga harakat qilish.

4. Ish beruvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, farmon, qaror va boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

5. Kasaba uyushmalari a'zolarini noqonuniy ishdan bo'shatilishidan himoya qilish.

6. Fuqarolarning ish bilan ta'minlanganligi bo'yicha kuzatuv olib borish.

7. Ishdan bo'shaganlar bo'yicha barcha shartnomaviy kafolatlarga amal qilinishini ta'minlash.

8. Mehnatkashlarning ish joylarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablari ustidan nazorat o'rnatish.

Har qanday davlatda ishsizlik muammosi mavjud bo'lib, undan butunlay xalos bo'lishning iloji yo'q. Mamlakatda friksion va tarkibiy ishsizlik turlarining bo'lishi iqtisodiyotda katta o'zgarishlarga olib kelmaydi va jamiyat uchun qaysidir ma'noda tabiiy holat hisoblanadi. Mamlakatda faqat friksion va tarkibiy ishsizlik mavjud bo'lgan holat *to'la bandlik* deb ataladi. Bu holatdagi ishsizlik darajasi esa *tabiiy ishsizlik darajasi* deb yuritiladi. Bir hisobda, mamlakatda tabiiy ishsizlikning bo'lgani ma'qul. Chunki bunday ishsizlarning bo'lishi ish bilan band aholini yaxshiroq ishlashga undaydi. Ishsizlarni bekor yurmasdan, malakalarini oshirib, tezroq ish topishga majbur qiladi. Mamlakatdagi tabiiy ishsizlik darajasining 4—5 foiz bo'lishi me'yoriy holat hisoblanadi.

Tabiiy ishsizlik darajasi — mamlakatda faqat friksion va tarkibiy ishsizlik bo'lgan vaziyatdagi ishsizlik darajasi.

To'la bandlik — mamlakatda faqat tabiiy ishsizlik bo'lgan vaziyatdagi bandlik.

Mashq

Mamlakatda tabiiy ishsizlik darajasi 5 foizni, umumiy ishsizlik darajasi esa 10 foizni tashkil qiladi. Friksion va tarkibiy ishsizlik mamlakatning 1 million aholisini qamrab olgani ma'lum bo'lsa, qancha ishsiz borligini aniqlang.

Davlat ishchi kuchi bozorini tartibga solish va ishsizlikning oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni qo'llaydi:

— mamlakatda qancha ish o'rinlari bor, qancha odam ish bilan band,

http://eduportal.uz

qancha odam ishsiz, ishchi kuchi bozorida qanday o‘zgarishlar kutilmoqda kabi savollarga javob topadi;

— aholini ish bilan to‘laroq ta’minlash dasturlarini ishlab chiqadi, tadbirkorlikni qo‘llab, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratadi;

— aholini kasbga yo‘naltirish, ish o‘rinlari haqida ma’lumot yetkazish va targ‘ibot ishlari bilan shug‘ullanadi;

— iqtisodiyot uchun zarur mutaxassislar va ishchi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini amalga oshiradi;

— aholini ishga joylashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi;

— aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radi, ishsizlarni ro‘yxatga oladi va ishsizlik nafaqalarini beradi.

Ishchi kuchi birjasi — ish beruvchi korxonalar va ish qidirib yurgan kishilar o‘rtasida vositachilik qiladigan davlat tashkiloti.

Kasaba uyushmasi — yollanma ishchilar manfaatlarini ish beruvchilar va davlat oldida himoya qiluvchi nodavlat jamoat tashkiloti.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Ishsizlikning salbiy tomonlarini ayting.
2. Ishsizlikdan aholining qaysi toifalari ko‘proq jabr ko‘radi? Nega?
3. To‘la bandlik deganda nimani tushunasiz?
4. Tabiiy ishsizlik darajasi qanday o‘lchanadi?
5. Ishsizlik darajasini qisqartirishga qaratilgan tadbirlarga misollar keltiring.
6. Davlatning ishsizlikka qarshi chora-tadbirlarini ta’riflang.
7. Ishsiz degan maqomni olish shartlari nimalardan iborat?
8. Ishchi kuchi birjalarining faoliyatini tushuntirib bering.
9. Kasaba uyushmalari nima maqsadda tashkil qilinadi?

Buni yodda tuting!

- Mamlakatda faqat friksion va tarkibiy ishsizlik mavjud bo‘lgan holat to‘la bandlik deb ataladi.
- Tabiiy ishsizlik darajasining 4—5% bo‘lishi me’yoriy holat hisoblanadi.
- Ishsizlikning oldini olish masalalari bilan davlat shug‘ullanadi.
- Ishchi va xizmatchilarning manfaatlarini kasaba uyushmalari himoya qiladi.

http://eduportal.uz

V BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Inflatsiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Inflatsiyaning qanday turlari bor?
3. Inflatsiyaning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Ish haqi miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni sanang.
5. Ishsizlik va uning kelib chiqish sabablarini ayting.
6. Ishsizlik turlari bir-biridan qanday farqlanadi?
7. Ishsizlik oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Davlatning ijtimoiy himoya vositalarini sanab bering.
9. Kasaba uyushmalarining iqtisodiy munosabatlardagi o'rni qanday?

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Pulning massasi, 2. Pulning aylanish tezligi, 3. Inflatsiya,
4. Inflatsiya darajasi, 5. Ishsizlar, 6. Ishsizlik darajasi.
7. Ishchi kuchi resurslari, 8. Kasaba uyushmasi, 9. Giperinflatsiya.

TALQINLAR:

a) mamlakatdagi o'rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi;
b) mamlakatda o'rtacha narx-navoning haddan tashqari oshishi;
d) pulning bir yil davomida qo'ldan qo'lga o'tish soni;
e) ma'lum davrdagi narx-navo oshishining foizlardagi miqdori;
f) mamlakatning ishga layoqatli, muayyan ish haqi evaziga ishlashga rozi, lekin ish topa olmagan yoki ish qidirib yurgan fuqarolari;
g) mamlakatning jami mehnatga layoqatli aholisi;
h) ishchilar manfaatini himoya qiluvchi nodavlat jamoat tashkiloti;
i) mamlakatdagi ishsizlar sonining, mamlakat ishchi kuchining umumiy soniga nisbatan foiz miqdori;
j) mamlakatda muomalada bo'lgan barcha pul mablag'lari.

D. 113- bet V bob titulidagi rasmlar bo'yicha

Rasmlarning qaysilari bobdagi qaysi mavzuga taalluqli ekanligini ayting. Ushbu rasmlar asosida mavzularning mazmunini so'zlab bering.

http://eduportal.uz

E. TESTLAR

1. **Mamlakatda pulning aylanish tezligi va sotilgan tovarlar miqdori o‘zgarmadi, pul massasi esa ko‘paydi. Buning oqibatida...**
   A) narx-navo tushadi; B) narx-navo oshadi;
   D) narx-navo o‘zgarmaydi; E) inflatsiya darajasi pasayadi.
2. **Inflatsiya paytida ...**
   A) tovarlar narxi oshadi; B) tovarlar narxi tushadi;
   D) tovarlar narxi o‘zgarmaydi; E) javoblarning barchasi to‘g‘ri.
3. **Giperinflatsiya paytida o‘rtacha narx-navo yiliga necha baravar oshadi?**
   A) 50 baravar; B) 20 baravar;
   D) 30 baravar; E) 10 baravar.
4. **Ish beruvchilar va ishsizlar o‘rtasidagi vositachi tashkilot – bu ...**
   A) ishchidir; B) menejerdir;
   D) davlatdir; E) mehnat birjasidir.
5. **Tabiiy ishsizlik darajasi bu – ...**
   A) mamlakatda faqat friksion va tarkibiy ishsizlik bo‘lgan vaziyatdagi ishsizlik darajasi;
   B) mamlakatda faqat friksion va mavsumiy ishsizlik bo‘lgan vaziyatdagi ishsizlik darajasi;
   D) mamlakatda faqat davriy ishsizlik bo‘lgan vaziyatdagi ishsizlik darajasi;
   E) mamlakatda faqat friksion ishsizlik bo‘lgan vaziyatdagi ishsizlik darajasi.
6. **Nonga bo‘lgan yalpi talab oshsa ...**
   A) og‘ir sanoatda ishchi kuchiga talab oshadi;
   B) qishloq xo‘jaligida ishchi kuchiga talab oshadi;
   D) qishloq xo‘jaligida ishchi kuchiga talab kamayadi;
   E) qishloq xo‘jaligidagi ishchi kuchiga bo‘lgan talabga ta’sir qilmaydi.
7. **Kim ishsiz hisoblanadi?**
   A) Ish qidirib yurgan pensioner;
   B) Zaxiraga chiqqan va ish qidirib yurgan harbiy;
   D) Yosh bolasini parvarish qilayotgan uy bekasi;
   E) Hech qayerda ishlamaydigan, bank foizi hisobiga yashab yurgan fuqaro.
8. **Qishloq xo‘jaligida kam qo‘l mehnati talab qiluvchi texnologiyalarning qo‘llanishi nimaga olib kelishi mumkin?**
   A) Mavsumiy ishsizlik kamayishiga; B) Friksion ishsizlik kamayishiga;
   D) Tarkibiy ishsizlik ko‘payishiga; E) Davriy ishsizlik kamayishiga.
9. **Qaysi tadbirlar mamlakatda ishsizlik darajasining kamayishiga olib keladi?**
   A) Qo‘shimcha ish o‘rinlarini tashkil qilish;
   B) Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish;

http://eduportal.uz

D) Ishsizlarni yangi kasbga qayta tayyorlash;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

10. Ishchi kuchi bozorida sotuvchilardan biri bu – ...
A) davlat; B) korxona;
D) mehnatga layoqatli shaxs; E) ishchi kuchi birjasi.

11. Qaysi holda pul qadri ko'tariladi?
A) Inflatsiya davrida; B) Giperinflatsiya davrida;
D) Pul tezroq aylansa; E) Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi oshsa.

12. Noto'g'risini toping.
A) Muomaladagi pul miqdorining oshishi, odatda, narxlarning oshishiga olib keladi;
B) Muomaladagi pul miqdorining oshishi, odatda, narxlarning pasayishiga olib keladi;
D) Tovar narxi arzonlashsa, pulning qadri oshadi;
E) Inflatsiyani jilovlash davlatning muhim vazifasidir.

13. Kasaba uyushmalari kimning manfaatlarini himoya qiladi?
A) Davlatning; B) Ish beruvchilarning;
D) Yollanma ishchilarning; E) Ishlab chiqaruvchilarning.

14. Ishchi kuchi birjasi ...
A) ishsizlarni ish bilan ta'minlaydi;
B) ishchilarning manfaatlarini himoya qiladi;
D) ish beruvchilarning manfaatlarini himoya qiladi;
E) ish beruvchi va ish qidirib yurganlar o'rtasida vositachilik qiladi.

15. Davlatning ijtimoiy himoya chora-tadbirlariga nimalar kiradi?
A) Ishchi kuchi bozorini doimo tahlil qilib borish;
B) Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish;
D) Ishsizlarni ro'yxatga olish va nafaqa bilan ta'minlash;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

16. Ishsizlikning qaysi turi mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi?
A) Friksion ishsizlik; B) Mavsumiy ishsizlik;
D) Tarkibiy ishsizlik; E) Davriy ishsizlik.

17. Pulning aylanish tezligi qaysi formuladan topiladi?
A) $V=M/P\cdot Q$; B) $V=P\cdot Q/M$;
D) $V=P\cdot Q\cdot M$; E) $V=M\cdot Q/P$.

18. Ishsizlik darajasi nima?
A) Ishsizlar sonining ishchi kuchiga nisbatan foiz miqdori;
B) Bandlar sonining ishchi kuchiga nisbatan foiz miqdori;
D) Mehnatga layoqatli aholining ishchi kuchiga nisbatan foiz miqdori;
E) Ishsizlar sonining bandlar soniga nisbatan foiz miqdori.

http://eduportal.uz

Iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integrasiya qilish va eksportni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifadir.

Shavkat Mirziyoyev



VI bob. Jahon iqtisodiyoti

http://dunyo.uz

26- MAVZU XALQARO SAVDO

1

	Ishlab chiqarish xarajatlari (shartli pul birligida)	
	1litr meva sharbati	1 dona fotoapparat
1- mamlakatda	2000	16000
2- mamlakatda	2000	20000

2

	Fotoapparatning muqobil qiymati	
	Foto-apparat	Meva sharbati
1- mamlakatda	1 dona	
2- mamlakatda	1dona	

3

	Meva sharbatining muqobil qiymati	
	Meva sharbati	Fotoapparat (donada)
1- mamlakatda	1 litr	
2- mamlakatda	1 litr	

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Aytaylik, 1- mamlakatda bir litr meva sharbati ishlab chiqarish 2000 shartli pul birligiga, 2- mamlakatda ham 2000 shartli pul birligiga tushadi. 1- mamlakatda bitta fotoapparat ishlab chiqarish 16000 shartli pul birligiga, 2-mamlakatda esa 20000 shartli pul birligiga tushadi (1- jadval).

1. Har bir mamlakatda bitta fotoapparat va 1 litr meva sharbati ishlab chiqarishning muqobil qiymatini aniqlang va jadvallarni to‘ldiring.
2. Muqobil qiymatlar haqidagi bu jadvallar asosida har bir davlat qaysi mahsulot turini ishlab chiqarishi maqsadga muvofiqligini aniqlang.
3. Bunday ixtisoslashuvdan har qaysi davlat qanday manfaat ko‘radi?

Qadim zamonlardan beri mamlakatlar bir-birlari bilan o‘zaro savdo qilib keladi. Buni birgina mamlakatimiz hududidan o‘tgan Buyuk ipak yo‘li misolida ham ko‘rish mumkin. Jahon bozori to‘g‘risida gapirilganda, iqtisodiy munosabatlar bilan o‘zaro bog‘langan mamlakatlar o‘rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi tushuniladi. Jahon bozori dastlab kam sonli mamlakatlar bilan savdo-sotiq yo‘lga qo‘yilgan

http://eduportal.uz

davrlarda shakllana boshlagan. Hozirgi kunda esa jahon bozorida ishtirok etmaydigan mamlakatning o‘zi yo‘q hisob. Jahon bozori ta’sirida mamlakatlar o‘rtasida ixtisoslashuv jarayonlari o‘ta chuqurlashib ketdi. Jahon bozori ichida tovar, ishchi kuchi, kapital va valuta bozorlari shakllandi. Jahon bozorida rivojlangan mamlakatlar yetakchi o‘rin tutadi. Ular ko‘proq tayyor mahsulotlar va texnologiyalar bilan qatnashadilar. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa ko‘proq xom ashyo va ishchi kuchi bilan jahon bozorida qatnashadilar. Lekin so‘nggi yillarda Xitoy, Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning tayyor mahsulot va texnologiyalari ham yetakchi o‘rinlarni egallab bormoqda.

Bir davlatda neft konlari bor, ikkinchisida esa yo‘q. Ikkinchi davlatda temir konlari ko‘p, birinchisida esa yo‘q. Tabiiy resurslarning bunday notekis taqsimlanishi bu davlatlarni bir-biri bilan savdo-sotiq qilishga undab turadi.

Rossiyada o‘rmonlar ko‘p bo‘lib, yog‘ochsozlik sanoati taraqqiy etgan. O‘zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti paxta yetishtirishga juda qulay bo‘lib, respublikamizda paxtachilik juda rivojlangan. Paxtani Rossiyaning iqlimi issiqroq bo‘lgan janubiy hududlaridagina yetishtirish mumkin. Lekin hosildorlik juda kam bo‘ladi. O‘zbekistonda esa yangi o‘rmonlarni tashkil qilish juda qimmatga tushadi. Demak, O‘zbekiston paxta yetishtirishda, Rossiya yog‘ochsozlikda mutlaq ustunlikka ega. Shuning uchun Rossiya iqtisodiyoti yog‘ochsozlikka, O‘zbekiston iqtisodiyoti esa paxtachilikka ixtisoslashadi. Ya’ni har bir davlat nisbatan arzonga tushadigan mahsulot turini ishlab chiqaradi va bir-biri bilan ularni ayirboshlaydi. Bunday ixtisoslashuvdan har ikkala davlat ham manfaat ko‘radi va shu bois o‘zaro savdo-sotiq qiladi. Mutlaq ustunlik tamoyili asosida davlatlarning ixtisoslashuvi yer yuzidagi bor resurslardan tejamli va samarali foydalanishga olib keladi. Unga ko‘ra har bir davlat qaysi tovarni boshqa davlatlarga qaraganda kamroq resurslar sarflab ishlab chiqara olsa, o‘sha tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi lozim.

Mutlaq ustunlik nazariyasini Adam Smit aniq ifodalab bergan. Unga ko‘ra, mamlakatlar o‘zlarida boshqa mamlakatlardagiga nisbatan kamroq xarajat qilib ishlab chiqariladigan tovarlarni eksport qiladilar, boshqa mamlakatlarda o‘zlaridagiga nisbatan kamroq xarajat qilib ishlab chiqariladigan tovarlarni import qiladilar.

Mutlaq ustunlik — bir xil miqdordagi resurslarga ega bo‘lgan mamlakatlardan birining shu resurslar yordamida boshqalarga nisbatan ko‘p mahsulot ishlab chiqara olish imkoniyatiga ega ekanligi.

Ba’zi hollarda ikki davlatning biri qaralayotgan har ikki sohada ham mutlaq ustunlikka ega bo‘ladi. Quyidagi jadvalga e’tiborni qarataylik:

	Ishlab chiqarishga ketgan ishchi kuchi sarfi, soatda	
	1-mamlakatda	2-mamlakatda
Plastmassa idish	10	20
Elektr lampochkasi	30	40

Unga ko‘ra, 1- mamlakatda bir dona elektr lampochkasi va bir dona plastmassa idish ishlab chiqarish uchun 2- mamlakatdagiga qaraganda kam ish vaqti sarflanadi, ya’ni 1- mamlakat bu sohalarda mutlaq ustunlikka ega. Lekin 1- mamlakatda elektr lampochkasi ishlab chiqarishning muqobil qiymati 30 : 10 = 3 dona plastmassa idishni, 2- mamlakatda esa 40 : 20 = 2 dona plastmassa idishni tashkil qiladi. Demak, 2- mamlakat elekrt lampochkasi ishlab chiqarishda 1- mamlakatga nisbatan nisbiy ustunlikka ega. Ikkinchi tomondan, 1- mamlakat plastmassa idish ishlab chiqarishda 2-mamlakatga nisbatan nisbiy ustunlikka ega. Chunki bir dona plastmassa idishni ishlab chiqarishning muqobil qiymati 1- mamlakatda 10 : 30 = 1/3 ta elektr lampochkasini, 2- mamlakatda esa 20 : 40 = 1/2 ta elektr lampochkasini tashkil qiladi. Shu bois, agar 1- mamlakat plastmassa idish ishlab chiqarishni o‘zida tashkil qilib, 2- mamlakatga sotsa va elektr lampochkasini 2- mamlakatdan sotib olsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki elektr lampochkasi ishlab chiqarishning muqobil qiymati 1- mamlakatda 2- mamlakatga qaraganda yuqori. Xuddi shuningdek, 2- mamlakat elektr lampochkasini ishlab chiqarishni o‘zida tashkil qilib, 1- mamlakatga sotsa va plastmassa idishni 1- mamlakatdan sotib olsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak, har bir davlat muqobil qiymati boshqa davlatlardagiga nisbatan kam bo‘lgan tovarni ishlab chiqarib, chetga sotishi lozim. *Nisbiy ustunlik nazariyasi* buyuk ingliz iqtisodchi olimi David Rikardo tomonidan yaratilgan.

David Rikardo
(1772 – 1823)

Ingliz iqtisodchisi David Rikardoning shoh asari “Siyosiy iqtisod va soliq solish qoidalari” deb ataladi. Rikardoni iqtisodiyot olamida Adam Smitdan keyingi eng taniqli olim sifatida tan olishadi.

Rikardoning ilmiy izlanishlari xalqaro bozordagi savdo erkinligi masalalariga qaratilgandir. U hozirgi zamon iqtisodchilari nisbiy ustunlik qoidalari deb ataydigan konsepsiyani birinchi bo‘lib ilgari surdi.

Rikardo olim sifatida xalqaro savdoni tariflar va boshqa sun’iy to‘siqlardan iloji boricha xoli qilish mamlakatlar iqtisodiyoti uchun foydali ekanini asoslab bergan.

Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni chet mamlakatlarga sotish *eksport* deb ataladi. Tovar va xizmatlarni chet mamlakatlardan sotib olishga esa *import* deyiladi. Mamlakatning import va eksport qilgan tovar va xizmatlari qiymatlarining yig‘indisi *tashqi savdo* hajmini aniqlaydi. Tashqi savdo hajmi mamlakatning xalqaro savdo-sotiq jarayonida qanchalik ishtirok etayotganini bildiradi. Mamlakatning xalqaro savdo-sotiqdagi ishtirokining samaradorligini import va eksport hajmlarini taqqoslash yordamida aniqlash mumkin. Mamlakatning eksporti va importi hajmlari orasidagi farq *tashqi savdo balansi (saldosi)ni* aniqlaydi. Agar mamlakatning chetga sotayotgan eksport tovar va xizmatlari hajmi mamlakatga keltirilayotgan import tovar va xizmatlari hajmidan ko‘p bo‘lsa, tashqi savdo balansi (saldosi) musbat bo‘ladi. Aks holda esa tashqi savdo balansi (saldosi) manfiy bo‘lib, xalqaro savdo-sotiqda muammolar paydo bo‘ladi. Chunki tovarlarni chetga sotishdan tushgan chet el valutasi miqdori chetdan olib kelinayotgan tovarlarni sotib olishga yetmay qoladi. Natijada tashqi savdoda valuta tanqisligi vujudga keladi.

Eksport — mamlakatda ishlab chiqarilgan va chet mamlakatlarga sotilgan tovar va xizmatlar.

Import — chet mamlakatlardan sotib olingan tovar va xizmatlar.

Tashqi savdo hajmi — mamlakat import va eksportini tashkil etuvchi tovar va xizmatlarining jami qiymati.

Tashqi savdo balansi (saldosi) — mamlakatning eksport va import hajmlari orasidagi farq.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiqning ahamiyati nimada?
2. Mutlaq va nisbiy ustunlik tamoyillarining bir-biridan farqi nimada?
3. Mamlakatimiz qanday tovarlar ishlab chiqarish bo‘yicha MDH mamlakatlariga nisbatan mutlaq ustunlikka ega deb o‘ylaysiz?
4. Import va eksportning bir-biridan farqi nimada?
5. Mamlakatning tashqi savdo hajmi nimadan tashkil topadi?
6. Mamlakatning tashqi savdo saldosi qachon manfiy va qachon musbat bo‘ladi? Bularning qay biri mamlakat uchun foydali?

Buni yodda tuting!

- Barcha mamlakatlar jahon bozoridan foydalanishdan manfaatdor.
- Jahon bozorida mamlakatlarning ayrimlari boshqalaridan ustunlikka ega bo‘ladi.
- Mamlakat doimo o‘z eksportini importidan ko‘proq bo‘lishiga intiladi.

27 MAVZU XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

Xalqaro biznes markazda iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha o‘zbek-koreys yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yigi‘lish davomida tomonlar Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik jamg‘armasining 2018-2020- yillarga mo‘ljallangan kreditlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish haqida fikr almashdilar. Loyihalar dasturining umumiy miqdori 500 mln. dollarga teng.

Tomonlar Toshkentda Koreya ilg‘or texnologiyalar instituti bilan birgalikda o‘quv-amaliy to‘qimachilik texnoparkini tashkil qilish loyihasini o‘z vaqtida amalga oshirish, o‘zbek-koreys biznes markazini tashkil qilish bo‘yicha masalararni muhokama qildilar.

Shuningdek, tomonlar bolalar ko‘p tarmoqli tibbiy markazini yaratish loyihasini ko‘rib chiqdilar.

Majlisda yana O‘zbekistonda Koreys madaniyati va san’at uyini tashkil qilish masalasini ham muhokama qildilar.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Koreya Respublikasi O‘zbekistonda yuqorida keltirilgan loyihalarni amalga oshirishdan qanday manfaat topadi, deb o‘ylaysiz?
2. O‘zbekiston Respublikasi bu loyihalarni qanday maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirmoqda?
3. Kichik biznes subyektlari darajasidagi o‘zaro aloqalarning qanday o‘ziga xos afzalliklari bor?
4. Yuqorida keltirilgan munosabatlar xalqaro o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarga misol bo‘la oladimi? Javobingizni asoslang.

5. Yuqoridagi rasmlar asosida O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar haqida matn tayyorlang.

Hozirgi globallashgan dunyoda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yo‘lga qo‘ymasdan taraqqiyotga erishishning iloji yo‘q. Jahonda globallashuv darajasi ortib borar ekan xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ahamiyati ham ortib boraveradi. Mamlakatdan mamlakatga nafaqat tovarlar, balki ishchi kuchi, kapital va texnologiyalar oqib o‘tishi tobora kuchayib bormoqda. Yirik kompaniyalarga bitta mamlakat hududi torlik qilib qolmoqda va ular transmilliy korporatsiyalarga aylanmoqda.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni o‘z vaqtida va oqilona yo‘lga qo‘yib olish har qanday mamlakat uchun eng kuchli zaruratga aylanib qoldi.

O‘zbekistonda ham jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar bilan ikki taraflama va ko‘p taraflama iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizga katta hajmdagi investitsiyalar kirib kelishiga, yangi zavod, fabrika va yirik inshootlar qurilishiga imkoniyat yaratmoqda.

Umuman olganda, jahon bozorlari ham davlatlardagi ichki bozorlar kabi hamma uchun ochiq raqobat bozori bo‘lishi lozim. Lekin, afsuski, amalda jahon bozorlarida ahvol boshqacha. Ba’zi davlatlar o‘z ichki bozorlarini, o‘z ishlab chiqaruvchilarini chet el firmalari bilan bo‘ladigan raqobatdan himoya qilish maqsadida tashqi savdo-sotiqqa to‘siqlar, cheklashlarni joriy etadi. Bunday savdo to‘siqlariga quyidagilar kiradi:

1. Tariflar (bojxona boji) — mamlakat chegarasini kesib o‘tayotganda olib kirilayotgan tovar uchun to‘lash lozim bo‘lgan soliq to‘lovi. Bojxona boji import tovarlari narxining oshishiga olib keladi. Davlat tariflar yordamida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladi. Davlat bojxona bojidan budjetini to‘ldirish uchun ham foydalanadi.

2. Kvota — mamlakat ichki bozoriga chetdan keltirilayotgan yoki undan olib chiqib ketilayotgan tovar va xizmatlar hajmiga davlat tomonidan o‘rnatilgan yuqori chegara. Agar kvota muayyan tovar importiga qo‘yilgan bo‘lsa, mamlakatga mazkur tovardan undan ko‘p olib kirish mumkin emas.

3. Tashqi savdo litsenziyasi va boshqa to‘siqlar — mamlakatga maxsus ruxsatnoma — litsenziyasiz yoki umuman olib kirish va olib chiqib ketish taqiqlanadigan tovar va xizmatlar ro‘yxatini joriy etish kabi to‘siqlar. Masalan, Buyuk Britaniyaga ko‘mirni eksport qilishi mumkin emas. Chet el valutalarini erkin almashtirishni cheklash ham chet el firmalarining ichki bozorga kirib kelishini cheklaydi.

Davlat milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, imtiyozli qarz va soliq imtiyozlari berib, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning chetdan keltirilgan mahsulotlardan arzon bo‘lishini ta’minlashi mumkin. Davlat tomonidan o‘rnatiladigan bunday cheklashlar va chora-tadbirlar *proteksionizm* deb ataladi. Bunday siyosat, iqtisodiyotning tanazzuldan so‘ng tiklanayotgan paytlarda, vaqtinchalik majburiy chora sifatida qo‘llanishi mumkin. Lekin keyingi paytlarda, tashqi savdoga bir davlat qo‘ygan to‘siqqa javoban boshqa davlatlar ham qarshi choralarni qo‘llash hollari tez-tez uchrab turibdi. Masalan, 2018- yili AQSH po‘lat ishlab chiqaruvchi mahalliy kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, po‘lat importi bojini 25% belgiladi. Bunga javoban, Rossiya yo‘l-qurilish texnikasi, neft-gaz uskunalari va optik tola importiga 25-40% boj belgiladi. *Tashqi savdoni erkinlashtirish* deganda unga qo‘yilgan cheklovlarni yengillashtirib borib, umuman olib tashlash tushuniladi. Ayni paytda, respublikamiz tashqi savdoni erkinlashtirish yo‘lidan bormoqda.

Tashqi savdoni cheklash bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi “janglar”dan ravshanki, har ikkala tomon ham yutqazadi. Shunday ekan, davlatlar jahon bozorini hamjihatlikda, kelishgan holda boshqarib turishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu maqsadda, 23 davlat tomonidan 1947- yili GATT — Savdo va tariflar to‘g‘risidagi bosh kelishuv imzolandi.

Bu kelishuvga qo‘shilgan davlatlar o‘zaro teng sharoitlarda savdo qilishga, import kvotalarini bekor qilishga, bojlarni kamaytirishga kelishib olishdi.

!

Tarif (bojxona boji) — mamlakat chegarasini kesib o‘tayotganda olib kirilayotgan tovar uchun to‘lash lozim bo‘lgan soliq to‘lovi.

Kvota — mamlakatga chetdan keltirilayotgan yoki chetga olib chiqib ketilayotgan tovar va xizmatlar hajmiga o‘rnatilgan yuqori chegara.

Tashqi savdo litsenziyasi — tovar va xizmatlarni mamlakatga olib kirish yoki undan olib chiqib ketish uchun beriladigan maxsus ruxsatnoma.

Proteksionizm — davlat tomonidan tashqi savdoni cheklashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Tashqi savdoni erkinlashtirish — unga qo‘yilgan cheklovlarni yengillashtirish yoki umuman olib tashlash.

Hozirda bu kelishuv 130 dan ortiq davlatlar tomonidan imzolangan. Endilikda bu kelishuv a’zolari WTO — Butunjahon savdo tashkilotiga

http://eduportal.uz

birlashishgan. XX asrda xalqaro savdo-sotiqning rivojlanishi qator davlatlar iqtisodiyotining keskin o‘sishiga olib keldi. Shu tufayli Yevropa davlatlari Yevropa Ittifoqini tuzishdi. Hozirda Yevropa Ittifoqiga ko‘pchilik Yevropa davlatlari a’zo bo‘lib, ular o‘rtasidagi barcha savdo to‘siqlari olib tashlangan. 2002- yil yanvaridan boshlab, bu davlatlarda umumiy pul birligi — yevro muomalaga kiritildi. Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ACEAN) ham iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bo‘lib, unga Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand va Bruney davlatlari kiradi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Mamlakatlar tashqi savdoni nima sababdan cheklashga majbur bo‘ladilar?
2. Tashqi savdoni qanday usullar bilan cheklash mumkin?
3. Tashqi savdoni cheklashga qaratilgan har bir chora-tadbirning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiling.
4. Tashqi savdoni cheklashdan kim zarar va kim foyda ko‘radi?
5. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar nima maqsadda tuziladi?
6. Qanday xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni bilasiz?

Topshiriq

Taxminan bir xil sifatdagi tovar birinchi mamlakatda 1000 AQSH dollari, ikkinchi mamlakatda esa 800 AQSH dollari tannarxida ishlab chiqarilsin.

1. birinchi mamlakat va ikkinchi mamlakat o‘rtasidagi erkin savdo-sotiqdan: a) ikkinchi mamlakat fuqarolari; b) birinchi mamlakat hukumati; d) ikkinchi mamlakat ishlab chiqarish kompaniyalari; e) birinchi mamlakat ishlab chiqarish kompaniyalaridan qaysi biri ko‘proq manfaatdor bo‘ladi? Nega?
2. birinchi mamlakat hukumati bu sharoitda, sizningcha, qanday chora-tadbirlarni ko‘rishi lozim?
3. Faraz qilaylik, birinchi mamlakat hukumati ikkinchi mamlakatning har bir tovariga 300 AQSH dollari soliq belgiladi. birinchi mamlakat bozorida qanday o‘zgarishlar yuz berishi mumkin? Bu qarordan: a) birinchi mamlakat iste’molchilari; b) birinchi mamlakat hukumati; d) birinchi mamlakat ishlab chiqarish kompaniyalari; e) ikkinchi mamlakat ishlab chiqarish kompaniyalaridan qaysi biri ko‘proq zarar ko‘radi? Javobingizni asoslang.

http://eduportal.uz

28- MAVZU VALUTA KURSI

XORIJIY DAVLATLAR VALUTALARI KURSI 2019- yil 7- iyul		
Xorijiy valuta nomi	Sotib olish, so‘mda	Sotish, so‘mda
1 AQSH dollari	**8550**	**8600**
1 YEVRO	**9660**	**9840**
1 ingliz funt sterlingi	**10780**	**10990**
1 rossiya rubli	**108**	**136**

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Aytaylik, tadbirkor Yevropa davlatlari bo‘ylab xizmat safariga otlandi. Albatta, unga safar xarajatlari uchun xorijiy davlat valutasi — yevro kerak bo‘ladi. Tadbirkor O‘zbekiston so‘mini yevroga almashtirish uchun Milliy bankning valuta ayirboshlash shoxobchalaridan biriga bordi va devorga osig‘liq turgan, yuqorida tasvirlangan jadvalga ko‘zi tushdi.

1. Agar u yigirma million so‘mni: a) yevroga; b) AQSH dollariga; d) ingliz funt sterlingiga almashtirmoqchi bo‘lsa, unga qancha chet el valutasini berishadi?
2. Agar u safardan qaytib kelib, ortib qolgan 200 yevroni so‘mga almashtirmoqchi bo‘lsa, unga bankda qancha so‘m berishadi?

Har bir davlat ichki bozorida savdo-sotiqni amalga oshirish uchun muomalaga o‘z pul birligi — milliy valutasini chiqaradi. Davlat hududida milliy valutada savdo-sotiq qilinadi. O‘zbekistonga Germaniyadan asbob-uskunalarni sotib olish uchun yevro kerak. Germaniyaga O‘zbekistondan paxta tolasi sotib olish uchun esa o‘zbek so‘mi kerak bo‘ladi. Demak, xalqaro bozorda savdo-sotiqni turli xil davlatlarning valutalarida olib borishga to‘g‘ri keladi. Natijada bir davlat valutasini ikkinchi davlat valutasiga almashtirishga ehtiyoj tug‘iladi.

Bir davlat pul birligining boshqa davlat pul birligidagi narxi *valutaning ayirboshlov kursi* deb ataladi. O‘zbekistonda chet el valutasining ayirboshlov kursi — uning bir birligini sotib olish uchun to‘lash lozim bo‘lgan so‘m miqdoriga teng bo‘ladi. Masalan, Xalq bankida 2019- yill 5- fevralda 1 AQSH dollarining sotib olish kursi 8380 so‘mni, yevroning kursi 8800 so‘mni tashkil qilgan. Odatda, bir davlat valutasining kursi ikkinchi davlat valutasining kursi bilan taqqoslanayotganda, bu valutalarning AQSH dollariga nisbatan kursidan ham foydalaniladi.

http://eduportal.uz

Valuta — davlatlar pul birliklarining umumlashgan nomi.

Bilasizmi?

Turli davlatlar pul birliklarining dunyo bo‘yicha tan olingan belgilari bor. Ulardan ba’zilarini keltiramiz:

£ — ingliz funt sterlingi; $ — AQSH dollari; € — yevro;

₽— rossiya rubli ¥ — yapon iyenasi;

Valutaning ayirboshlov kursi — bir davlat valutasining boshqa davlat pul birligida ifodalangan narxi.

Konvertatsiya — bir davlat valutasini boshqa davlat valutasiga almashtirish.

Ikki davlat bir-biri bilan import—eksport savdo-sotiq aloqalarini olib borar ekan, birinchi davlatning ikkinchi davlat valutasiga, ikkinchi davlatning birinchi davlat valutasiga ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bu esa har bir davlat valutasiga nisbatan, xuddi tovarlarga bo‘lganidek, talab va taklifini keltirib chiqaradi. Davlat valutasining kursi unga bo‘lgan talab va taklifga nisbatan shakllanadi. Davlatdan eksport qilinadigan tovarlar hajmiga qarab, davlat valutasiga bo‘lgan talab shakllanadi. Davlatdan ko‘p tovar eksport qilinsa, davlatning valutasiga bo‘lgan talab ham oshadi. Davlat valutasining taklifi esa bu davlatning boshqa davlatdan sotib olmoqchi bo‘lgan import tovarlarining hajmidan kelib chiqib shakllanadi. Davlat uchun qancha ko‘p import tovarlari kerak bo‘lsa, davlat valutasining taklifi ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

Bilasizmi?

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy valutalarning so‘mga nisbatan kursini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilab beradi. Tijorat banklari esa Markaziy bank belgilagan kursdan kelib chiqib jismoniy yoki yuridik shaxslardan valutani sotib olish va sotish kursini belgilashadi. Shuning uchun ham turli tijorat banklardagi valutani sotib olish yoki sotish kurslari farqlanishi mumkin. Masalan, 2019- yil 7- iyul kuni Turonbank 1 AQSH dollarini 8430 so‘mdan sotib olib, 8480 so‘mdan sotsa, Uzkomstroybank 8560 so‘mdan sotib olib, 8600 so‘mdan sotgan.

Valuta kursining o‘zgarishiga, odatda, unga bo‘lgan talab va taklifning o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Agar Rossiyaning O‘zbekiston tovarlariga bo‘lgan talabi O‘zbekistonning Rossiya tovarlariga bo‘lgan talabidan kamaysa, Rossiya rublining O‘zbekiston so‘miga nisbatan kursi ko‘tariladi. Ya’ni

http://eduportal.uz

bir rubl oldin 100 so‘m turgan bo‘lsa, endi 102 so‘m bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, rublning kursi tushadi. Ba’zida davlat tashqi savdoni tartibga solish, mamlakat ichki bozorini himoya qilish maqsadida, valuta kurslarini rasmiy ravishda oshirishi yoki kamaytirishi ham mumkin. Bunga muomaladagi milliy valutani ko‘proq chiqarish yoki kamaytirish orqali ham erishish mumkin. Masalan, muomalaga ko‘p miqdorda milliy valuta chiqarilsa, uning chet el valutasiga nisbatan hajmi ko‘payib, milliy valuta kursi tushadi. Chet el valutasining kursi esa ko‘tariladi. Ba’zida davlat milliy valuta kursini ko‘tarish maqsadida, markaziy bank zaxirasidagi chet el valutasini ko‘p miqdorda ichki bozorga chiqaradi. Bu holda, bozorda bir birlik milliy valutaga mos kelgan chet el valutasining miqdori oshadi, ya’ni chet el valutasining kursi tushadi. Demak, xuddi tovarlar kabi bozorda chet el valutasi ko‘paysa, uning narxi, ya’ni kursi tushar ekan. Davlat milliy valutasining kursi, mamlakat iqtisodiyotining ko‘zgusi hisoblanadi. Uning bir tekis, asta-sekin o‘zgarishi mamlakat iqtisodiyotining sog‘lom rivojlanayotganligidan darak beradi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Valuta bozori nima sababdan kerak?
2. Valutaning ayirboshlov kursi nima va u qanday omillar ta’sirida shakllanadi?
3. Milliy valutaning kursi oshadigan va kamayadigan vaziyatlarga ikkitadan misol keltiring.
4. Milliy valutaning ayirboshlov kursini davlat qanday yo‘llar bilan boshqarishi mumkin?
5. Milliy valutaning ayirboshlov kursiga mamlakatdagi inflatsiya qanday ta’sir ko‘rsatadi?
6. Chet el valutasi kursining o‘zgarishi import va eksport hajmiga qanday ta’sir qiladi?
7. Quyidagi berilgan omillar ta’sirida milliy valutamizning kursi qanday o‘zgaradi?
   a) O‘zbekistonda turizm rivojlanib ketdi;
   b) oylik maoshlar ko‘paytirildi;
   d) chet el valutasidagi omonatlar uchun beriladigan bank foiz stavkalari oshirildi;
   e) tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berish hajmi oshdi;
   f) chet ellarda ishlayotgan o‘zbek mutaxassislarining soni oshdi.
8. Agar AQSH dollarining so‘mga nisbatan kursi oshsa, mamlakatimiz uchun eksport qilish yaxshimi yoki importmi? Javobingizni asoslang.

http://eduportal.uz

9. Faraz qilaylik, kecha Amerika banki 14 mln yevroni 16 mln AQSH dollarga, bugun esa 20 mln AQSH dollarni 18 mln yevroga almashtirdi. Buning natijasida, dollarning yevroga nisbatan kursi bugun kechagiga qaraganda oshdimi yoki kamaydimi? Qanchaga?
10. Kriptovaluta nima? Bitkoin-chi?

Bilasizmi?

So‘nggi yillarda bitkoin atamasi tez-tez quloqqa chalinadigan bo‘lib qoldi. Bitkoinning kursi, ya’ni har xil valutalardagi (ayniqsa, AQSH dollaridagi) kursining so‘nggi yillardagi o‘zgarishini butun dunyo kuzatib turdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bitkoin – bu kriptovaluta deb atalmish o‘ziga hos valutaning bir turi. Xo‘sh, kriptovaluta o‘zi nima? Bu sodda qilib aytganda, raqamli puldir. O‘z mohiyatiga ko‘ra kriptovaluta Internet orqali turli kompyuterlarga maxsus uslub va qoidalar asosida taqsimlangan ma’lumotlar bloki(to‘plami)dir.

Kriptovalutaning dunyoning boshqa valutalari bilan asosiy o‘xshashligi uning ishlash tamoyillaridadir. U orqali sotib olish, sotish, saqlash va o‘tkazish mumkin. Faqat va faqat Internet tarmog‘i orqali.

Kriptovalutani mutaxassislar yaqindagina – bir necha yil oldin o‘ylab topishgan va u hali hayotimizda o‘zining aniq o‘rnini egallab olganicha yo‘q.

Hozirgi paytda dunyoda kriptovalutaning yuzlab turlari mavjud bo‘lib, ulardan eng dastlabkisi va eng mashhuri bitkoindir. Bitkoin 2009- yilda ixtiro qilinganligiga qaramasdan, o‘tgan o‘n yil ichida o‘z qiymatini bir necha marta oshirishga va tushirishga ulgurdi. Ya’ni uning tebranuvchanlik xususiyati juda ham yuqori.

Bitkoindan tashqari yana quyidagi kriptovalutalar nomlarini keltirsak bo‘ladi: Efirium, Ripl, Yota, Laytkoin, Neo, Nem, Dash va boshqalar.

Buni yodda tuting!

- Xalqaro savdo bir davlat pul birligini ikkinchi davlat pul birligiga ayirboshlashni taqozo etadi.
- Valuta kursining o‘zgarishi xalqaro savdoga va mamlakatlar iqtisodiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.
- Kriptovaluta bu - raqamli texnologiyalarga asoslangan pul bo‘lib, u internet tarmog‘i orqali muomalaga kiritiladi.

29- MAVZU JAHON IQTISODIYOTI MUAMMOLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Siz yana qanday jahon iqtisodiyoti muammolarini bilasiz?
2. Bu muammolarning kelib chiqish sabablari nimada deb oylaysiz?
3. Bu muammolarni hal qilish sizga bog‘liq bo‘lganida siz qanday yo‘llarni taklif qilgan bo‘lar edingiz?

Shunday iqtisodiy muammolar borki, ular barcha davlatlarga tegishli. Yer yuzida tinchlikni saqlash insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biridir. Bir qarashda siyosiy masaladek bo‘lib ko‘ringan bu muammo bevosita iqtisodiyot bilan ham bog‘liqdir. Har qanday urush iqtisodiyot rivojini o‘nlab yillar orqaga suradi. Hozirda Yer yuzida har kuni milliardlab dollar mablag‘ harbiy maqsadlar uchun sarflanmoqda. Shu bilan bir paytda, dunyoning turli burchaklarida har sakkiz kishidan biri och-nahor kun kechirmoqda. Insoniyat insofga kelib, harbiy xarajatlarni tinchlik maqsadlarida ishlatsa, bundan hamma manfaatdor bo‘lishi mumkin. Afsuski, muammoning yechimi bunchalik sodda emas. Bu masalada harbiy xarajatlarga juda kam mablag‘ sarflab, iqtisodiy

rivojlanishda oldingi o‘rinlarga chiqib olgan Yaponiya, Shvetsiya, Norvegiya kabi davlatlar yo‘lidan borish yagona yechim hisoblanadi.

Olimlarning fikricha, insoniyatning iqtisodiy faoliyati natijasida atrof-muhitning haddan tashqari ifloslanib borishi har qanday urushdan ham battarroq oqibatlarga olib kelishi mumkin. Havo va suv havzalarining ifloslanishi, tuproq tarkibining o‘zgarishi natijasida katta yer maydonlarining foydalanishga yaroqsizlanib borishi oxir-oqibat insonning tirikligini ham xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Tabiat, uning faqat 1 foiz qismiga inson tomonidan ziyon yetkazilgandagina o‘zini-o‘zi davolab, tiklay olishi mumkin. Lekin hozirdanoq inson tabiatga 10 baravar ko‘p ozor bermoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha eng yirik xalqaro huquqiy hujjat bu – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan qabul qilingan Iqlim o‘zgarishiga qarshi *Parij Kelishuvidir*. Kelishuv 2015- yilda tuzilgan bo‘lib, uni 175 ta mamlakat imzolagan. Kelishuvning asosiy maqsadi bu – global o‘rtacha haroratning isishini industriyalashtirishgacha bo‘lgan davrdagiga nisbatan 1,5-2°C chegarasida ushlab turishdir. Chunki, olimlarning fikricha, harorat undan ko‘ra ko‘proq ko‘tarilishi sayyoramiz ekologiyasi uchun qaytarilmas zararga olib kelar ekan.

Ma’lumki, Yer yuzida tabiiy resurslar miqdori cheklangan bo‘lib, ular nihoyat darajada notekis taqsimlangan. Natijada million yillar davomida to‘plangan yer osti boyliklari insoniyatning XX—XXI asrlardagi ikki yuz yillik iqtisodiy faoliyati tufayli tugatilishi mumkin. Asosiy energiya manbalari hisoblanmish neft, gaz va ko‘mir zaxiralari XXI asrdayoq tugashi taxmin qilinmoqda. Agar XXI asrda boshqa energiya manbalari kashf qilinmasa, insoniyat og‘ir iqtisodiy tanglikka duch kelishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar kabi mamlakatimizda ham muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha faol amaliy ishlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganining sababi ham aynan mana shudir. Jumladan, quyosh, shamol energiyalaridan foydalaniladigan elektrostansiyalar qurilishlari olib borilayotganligi, atom elektrostansiyasi qurilishining tamal toshi qo‘yilganligi kelajakda muqobil energiyaning ahamiyati oshishi e’tiborga olinayotganidan darak beradi.

Dunyo bo‘yicha har yili yaratilayotgan iqtisodiy boylik, moddiy ne’matlarning 85 foizi Yer yuzi aholisining 17 foizi istiqomat qilayotgan 25 ta davlat aholisi tomonidan iste’mol qilinmoqda. Davlatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi o‘rtasidagi farq kun sayin kattalashmoqda. Bu holat jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida yanada keskinlashmoqda. Dunyo o‘ta boy va kambag‘al davlatlardan tashkil topgan ikki qutbga

ajralib bormoqda. Ayrim xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, insoniyatning kambag'alroq yarim qismi besh yil ichida 1 trillion AQSH dollariga qashshoqlashgan. Shuning bilan birga jahonning eng boy 1% aholisi qolgan 99% insonlar bilan teng daromadga ega. Bu o'z navbatida kelajakda dunyo miqyosidagi ijtimoiy nizo, siyosiy va iqtisodiy tanglikni keltirib chiqarishi mumkin.

Oziq-ovqat tanqisligi muammosi hozirgacha dunyoda o'ta dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Afsuski, ocharchilik – bu kechagi kun emas, bugungi kunning voqeligidir. Bizning kunlarimizda ham Afrikada, Osiyo va Lotin Amerikasining ayrim hududlarida odamlarning ocharchilikdan vafot etishi holatlari qayd etilmoqda. Bugungi kunda 1 milliardga yaqin odam to'yib ovqat yeyish imkoniyatiga ega emaslar. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, bolalar o'limining 54%iga to'yib ovqatlanmaslik sababdir. Ochlikning asosiy sababi mablag' yetishmasligi. Lekin bu yolg'iz sabab emas. Shuningdek, tabiiy sharoitlar, qurg'oqchilik, qum bosishi, harbiy mojaro kabilar ham ocharchilikni keltirib chiqarmoqda.

Yuqorida sanalgan jahon miqyosidagi iqtisodiy muammolarni barcha davlatlar hamjihat bo'lib birlashib, jahon iqtisodiyotini oqilona boshqargan taqdirdagina hal qilish mumkin.

Bilasizmi?

Ingliz ruhoniysi Robert Maltus o'zining jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti haqidagi qora bashoratlari bilan dunyoga tanilgan. Uning fikricha, Yer yuzi aholisi geometrik, oziq-ovqat yetishtirish esa arifmetik progressiya tarzida o'sadi. Geometrik progressiya arifmetik progressiyaga qaraganda ancha tez o'sganligi uchun, odamzod nima qilmasin, baribir ochlik balosiga giriftor bo'laveradi. Bu fikrdan kelib chiqib, Maltus dunyo bo'yicha o'lim darajasining oshishiga olib keladigan omillarni, urushlar va epidemiyalarni insonning kelajagini ta'minlovchi ijobiy omillar deb baholagan.

Ocharchilik muammosi, albatta, aholi daromadlari pastligi, ya'ni, qashshoqlik muammosi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bugungi kunda dunyoda 1,2 milliarddan ortiq odam bir kunda 1 AQSH dollaridan kam pulga hayot kechiradi. Mana shu ko'rsatkich bo'yicha BMT ma'lumotlariga ko'ra, qashshoqlik eng yuqori bo'lgan mamlakatlar – bu Madagaskar, Sierra-Leone, Mozambik, Nigeriya, Markaziy Afrika Respublikasi va Zambiya kabi Afrika qit'asi mamlakatlaridir. Lekin

http://eduportal.uz

mamlakatlarning qashshoqlik darajasini hisobga olish bo‘yicha milliy me’yorlar ham borki, bu me’yorlarga ko‘ra, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham qashshoqlik muammosi bordek tuyuladi. Masalan, AQSH yaqin yillargacha 46 milliondan ortiq aholisi kambag‘al deb hisoblangan. Bu esa aholing 15% dan ortiq qismini tashkil qiladi. Lekin AQSHning Aholini hisobga olish byurosi to‘rt kishidan ortiq oilaning yillik daromadi 22 314 AQSH dollaridan kam bo‘lsa, bunday oilani kambag‘al oila deb hisoblaydi.

Bu qashshoqlik darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar o‘ta nisbiyligini namoyish qiladi. Ya’ni ayrim rivojlangan mamlakatlarda kambag‘al hisoblangan aholi qatlamlari, rivojlanayotgan davlatlar aholisining boy deb hisoblanayotgan qatlamlaridan ko‘ra ko‘proq daromad hisobiga kun kechiradi. Bu jahonning yana bir global muammosi – daromadlarning notekis taqsimlanishi muammosi bilan hamohangdir.

Jahon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyoti sharoitida turli inqirozlarga duchor bo‘lib turadi. Bu holat bozor iqtisodiyotining bu xil illatlarning oldini olishga nochorligidan kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyotining bu nuqsoni oqibatida vaqti-vaqti bilan turli mamlakatlarda har xil inqirozlar bo‘lib turadi. Bu inqirozlar chuqurlashib ketib, boshqa davlatlarga ham o‘tib, dunyo miqyosiga ko‘chsa, jahon inqirozi ro‘y beradi. Jahon inqiroziga 2008- yilda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozini misol qilib keltirish mumkin. Bu haqida biz keyingi mavzuda batafsil to‘xtalamiz

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Yer yuzida tinchlikni saqlashning ahamiyati haqida so‘zlab bering.
2. Iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi ziddiyatning sababi nimada?
4. Oziq-ovqat tanqisligi muammosi qanday asnoda hal etilishi kerak?
5. Energiya tanqisligi muammosini qanday yechish mumkin?
6. Iqtisodiyotning turli mamlakatlardagi rivojlanishining notekisligi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
7. Jahon iqtisodiyotining turli inqirozlarga moyilligining sababi nimada?

Buni yodda tuting!

- Jahon iqtisodiyotining borgan sari rivojlanib borishi insoniyat oldida talaygina muammolarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.
- Bu muammolarni dunyo hamjamiyati hal qilmas ekan, kelajakda insoniyat og‘ir iqtisodiy tanglikka duch kelishi mumkin.

http://eduportal.uz

30- MAVZU JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI

2004-2007 yillarda jahon savdosining o‘sishi o‘rtacha sur’atlarda 8,74% ga teng bo‘lgan edi. 2008- yilda bu sur’at 2,95% ga tushib qoldi, 2009- yilda esa jahon savdosi birdaniga 11,89% ga pasaydi. 2009- yili jahon yalpi ichki mahsuloti ham Ikkinchi jahon urishidan keyingi yillarda birinchi marta 2,3% ga pasaydi. 2009- yil fevralida inflatsiya darajasi rekord ko‘rsatkichga yetdi. Buning oqibatida valutalarga ishonch yo‘qoldi va neft, oltin kabi tovarlar narxi keskin ko‘tarilib ketdi.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizning fikringizcha, jahon savdosining keskin kamayishi bilan jahon YaIMning pasayishi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. O‘sha 2009- yilda jahon YaIM kamaygan, O‘zbekistonda esa YaIMning 8% ga o‘sganligi elon qilindi. Jahon iqtisodiyoti bilan O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘rtasida bu darajada keskin farq bo‘lishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
3. Jahon savdosining pasayishi har bir alohida olingan mamlakat ichki bozoriga qanday ta’sir qilishi mumkin? Bu hol mamlakat iqtisodiyoti uchun qanday muammolar keltirib chiqarishi mumkin? Savollarga javob izlayotganingizda aksariyat mamlakatlarning ichki bozori global bozorga – jahon bozoriga bog‘langanligini e’tiborga oling.
4. Jahon YaIMining keskin pasayishi nimadan darak beradi? Bu pasayish alohida olingan mamlakatlar YaIM hajmida qanday aks etadi?
5. Neft, oltin kabi tovarlarning narxi oshishi bilan jahon bozoridagi inqiroziy vaziyat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi AQSH ipotekali kreditlash tizimida 2008- yilda ro‘y bergan tanglikdan boshlandi. AQSH banklarining bir necha yillar davomida pul bilan ta’minlanmagan ipoteka kreditlarini berishi oqibatida, kreditga berilgan pullarning ancha qismi bankka qaytib kelmagan. Natijada bu banklarning to‘lov qobiliyatlari zaiflashib, bankrot darajasiga kelib qoldi. Ishlab chiqarish korxonalari bankdan kredit ololmaganliklari sababli o‘z ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirishga majbur bo‘ldi. Bu o‘z navbatida, ishsizlar sonining oshishiga olib keldi. Bunday tanglik mamlakat miqyosiga ko‘tarildi va AQSH iqtisodiyoti bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lgan dunyoning qator mamlakatlari iqtisodiyotiga ta’sir qildi. Oxir-oqibat, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga keldi.

2008- yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini ko‘lami bo‘yicha faqat 1930- yillarda ro‘y bergan Buyuk depressiya bilangina taqqoslash mumkin. Bu safargi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi 2013- yilgacha davom etdi va tarixdagi eng davomli inqiroz bo‘ldi. Bu inqiroz har bir alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti va butun jahon iqtisodiyoti uchun juda ayanchli oqibatlarga olib keldi.

Tarixga nazar

Bozor iqtisodiyotining ikki yuz yildan oshiqroq tarixi davomida, XIX asrdayoq ko‘pgina rivojlangan davlatlar iqtisodiy inqirozga duch kelgan. Bunday vaziyatlarda nafaqat bir nechta alohida olingan tovarlar bozorida, balki butun mamlakat miqyosida iqtisodiy faoliyatning pasayishi kuzatilgan. Masalan, XX asrning 30- yillarida AQSH da yuz bergan, “Buyuk depressiya” deb atalgan iqtisodiy inqiroz davrida YaMM hajmi 31% ga tushgan, tovarlar narxlari 40% ga oshgan, ishsizlik darajasi esa 8 marta oshib, mehnatga yaroqli aholining 25 %ni qamrab olgan. Bu inqirozdan AQSH XX asrning 40- yillarida II jahon urushi davrida ittifoqdosh davlatlarga qurol-aslaha yetkazib berish orqali chiqib olgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida 2008—2009- yillarda AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Ukraina va boshqa qator mamlakatlarda g‘oyat tashvishli holat vujudga keldi. Bu mamlakatlarda ko‘plab kompaniyalar, korxona va firmalar bankrot bo‘ldi. 2008- yil natijalariga ko‘ra, AQSH YaIM hajmi 3,8% ga tushib ketdi, ishsizlar soni esa 2,2 mln kishiga ko‘paydi. Yaponiyada esa YaIM hajmi 3,1% ga pasaydi, ishsizlik darajasi esa 4,4% ga yetgan. Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlarda sanoat ishlab chiqarishi 12% ga tushib ketgan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon global iqtisodiyotiga yetarli darajada integratsiyalashmaganligi ham bunda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ya’ni mamlakat iqtisodiyoti o‘sha davrda bir qadar “yopiq” iqtisodiyotlar sarasiga kirar edi. Mamlakatimizda chet el investitsiyalari hajmi judayam kichik, O‘zbekiston jahon moliya bozorida deyarli faoliyat yuritmas, valutaning erkin konvertatsiyasi yo‘lga qo‘yilmagan, milliy valutamiz xalqaro valuta bozorida faol ishtirokchilar qatorida emas edi. Bularning barchasi mamlakatimiz iqtisodiyotining global bozordagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan bir qadar chetda qolishining sabablari bo‘ldi.

Lekin jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi, chunki respublikamiz xalqaro hamjamiyatning va jahon moliyaviy-iqtisodiy bozorining qaysidir darajadagi qatnashchisi hisoblanar edi.

Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O‘zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib ketdi. Bu esa o‘z navbatida, korxonalar foydasining kamayishiga olib keldi. Ishlab chiqarishning pasayishi, oxir-oqibat, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarimizning o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotimiz jahon iqtisodiyotiga faol ravishda integratsiya qilina boshlandi. Yurtimizga turli mamlakatlardan yirik kompaniyalar o‘z kapitali bilan kirib kela boshladi. Chet el investitsiyalari jalb qilinishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti yakkalashish, alohidalashish maqomini tark etmoqda. Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar borgan sari jahon bozorida xaridorgir bo‘lib, O‘zbekiston brendi dunyo mamlakatlariga tanilib bormoqda. Xalqaro moliya bozorida ham keyingi yillarda O‘zbekiston sezilarli bitimlarni amalga oshirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘z faoliyatida keng tatbiq etayotgan milliy bozor infratuzilmalari xalqaro bozor infratuzilmalari bilan tobora uyg‘unlashib bormoqda.

Aytilganlarning barchasi, albatta, O‘zbekiston iqtisodiyotining shiddat bilan rivojlanishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Lekin shuning bilan bir paytda milliy iqtisodiyotimizning global iqtisodiyot bilan uzviy va chambarchas bog‘liqligi kelajakda jahon iqtisodiyotida har xil inqirozlar yuz beradigan bo‘lsa, buning mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta’siri xavfini ham keskin oshiradi. Shuning uchun ham yangi sharoit respublikamiz iqtisodiyoti oldiga bo‘lg‘usi, ehtimoliy inqirozlar paytida muhofazalanishga tayyor bo‘lish talabini qo‘ymoqda.

Yurtimizda iqtisodiy sohada olib borilayotgan qator tizimli ishlarning mazmun-mohiyati ham shunda. Ya’ni, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, uning turli tebranishlar va inqirozlarga chidamliligini oshirish so‘nggi yillardagi keskin iqtisodiy islohotlarning maqsadlaridan biridir.

So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan milliy iqtisodiyotimiz barpo qilinmoqda:

– innovatsiyalarni tarkib topdiruvchi va ularni tatbiq qiluvchi;
– xalqaro mehnat taqsimotida o‘z o‘rniga ega.

Bunda iqtisodiyotning quyidagi ustunlariga tayaniladi:

– xususiy mulkning himoya qilinishi;

– tadbirkorlikning yuqori samaradorlikda yuritilishiga asoslar mavjudligi;

– yuqori darajadagi raqobat muhitining mavjudligi;

– ixtisoslashuv va ko‘lam samarasidan foydalanish;

– moliya resurslarining yetarliligi.

Tom ma’noda rivojlangan iqtisodiyotni barpo qilish uchun mamlakatimizda quyidagi tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda:

– pul muomalasi va valuta munosabatlarini isloh qilish;

– soliq islohotlari;

– bank islohotlari;

– tashqi savdoni isloh qilish;

– Ma’muriy islohotlar.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishiga nima sabab bo‘ldi?
2. Nima sababdan ushbu inqiroz dunyo bo‘yicha global muammoga aylandi?
3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy jihatlarini sanab bering.
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yurtimiz iqtisodiyotiga ta’siri qanday bo‘ldi?
5. Mamlakatimizda inqirozning oldini olish va bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rilmoqda?
6. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozlardan himoyalanish masalasi qanday hal qilinmoqda?

Buni yodda tuting!

- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayrim mamlakatlar iqtisodiyotida vaqti-vaqti bilan tanglik yuzaga kelib turadi.
- Bunday tanglik ko‘lami kengayishi va boshqa mamlakatlarga tarqalishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga olib kelishi mumkin.
- O‘zbekiston iqtisodiyotini moliyaviy-iqtisodiy inqirozlardan himoyalash so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mobaynida e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan eng muhim masalalardan biridir.

VI BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Respublikamizning tashqi savdosi haqida nimalarni bilasiz?
2. Xalqaro savdoga nisbatan qanday qarashlar bor?
3. Tashqi savdoni cheklashning oqibatlarini tushuntirib bering.
4. Xalqaro savdo tashkilotlarining vazifalari nimadan iborat?
5. Valuta bozorining mohiyatini tushuntiring.
6. Valuta kursining o‘zgarishiga nimalar sabab bo‘lishi mumkin?
7. Jahon iqtisodiyoti muammolarining qanday salbiy oqibatlari bor?
8. Jahon iqtisodiyoti muammolarining oldini olish mumkinmi?
9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga nimalar sabab bo‘ladi?

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Tashqi savdo hajmi.
2. Tarif (bojxona boji).
3. Eksport.
4. Import.
5. Kvota.
6. Valuta kursi.

TALQINLAR:

a) chet mamlakatlardan sotib olingan tovar va xizmatlar;
b) mamlakat chegarasini kesib o‘tayotganda olib kirilayotgan tovar uchun to‘lash lozim bo‘lgan soliq to‘lovi;
d) mamlakatga chetdan keltirilayotgan yoki chetga olib chiqib ketilayotgan tovar va xizmatlar hajmiga o‘rnatilgan yuqori chegara;
f) mamlakat import va eksportini tashkil etuvchi tovar va xizmatlarning jami qiymati;
g) bir davlat valutasini boshqa davlat valutasidagi narxi;
h) mamlakatda ishlab chiqarilgan va chet mamlakatlarga sotilgan tovar va xizmatlar.

D. 133- bet VI bob titulidagi rasmlar bo‘yicha

Rasmlarning qaysilari bobdagi qaysi mavzuga taalluqli ekanligini ayting. Ushbu rasmlar asosida mavzularning mazmunini so‘zlab bering.

E. TESTLAR

1. Import boji oshsa, ...

A) davlat budjetining daromadi kamayadi;
B) mahalliy tovarlar sifati oshadi;
D) import hajmi oshadi;
E) import hajmi kamayadi.

2. Import kvotasi ...

A) tovarlar eksportini oshiradi;
B) tovarlar importini oshiradi;
D) import hajmiga qo‘yilgan yuqori chegara;
E) import hajmiga qo‘yilgan quyi chegara.

3. Mamlakatning import hajmi 350 million dollarni, eksport hajmi esa 400 million dollarni tashkil qildi. Bu holatda ...

A) tashqi savdo saldosi manfiy;
B) chet el valutasi kamaydi;
D) tashqi savdo saldosi musbat;
E) tashqi qarz ko‘paydi.

4. Tashqi savdoga qo‘yilgan to‘siqlardan kim ko‘proq ziyon ko‘radi?

A) Davlat;
B) Mahalliy ishlab chiqaruvchilar;
D) Chet el iste’molchilari;
E) Xorijiy ishlab chiqaruvchilar.

5. Davlatning qaysi chora-tadbirlari tashqi savdoni cheklashga qaratilmagan?

A) Import bojining o‘rnatilishi;
B) Import kvotasining belgilanishi;
D) Tashqi savdo litsenziyalarining joriy etilishi;
E) Mamlakat ichida ishlab chiqarishning rag‘batlantirilishi.

6. Milliy valutamiz kursi qay holatda oshadi?

A) Maoshlar oshirilsa;
B) Chet elga sayohat qiluvchilar soni oshsa;
D) Chet elda ishlaydigan vatandoshlarimiz soni oshsa;
E) Tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berish ko‘paysa.

7. Tashqi savdo hajmini nima aniqlaydi?

A) Import;
B) Eksport;
D) Import va eksport yig‘indisi;
E) Import va eksport farqi.

8. Quyidagilarning qaysi biri iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hisoblanadi?

A) Yevropa Ittifoqi;
B) WTO;
D) ACEAN;
E) Barchasi to‘g‘ri.

9- SINFDA O‘TILGANLARNI TAKRORLASH UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Tadbirkorlik ... faoliyatdir.
A) bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan;
B) aralash iqtisodiyot sharoitida mavjud bo‘la olmaydigan;
D) tadbirkor uchun zarur, davlat uchun muhim bo‘lmagan;
E) ishlab chiqarishgagina xos bo‘lgan.

2. Tadbirkorlik ... boshlanadi.
A) hisob-kitobdan;
B) biznes rejadan;
D) biznes g‘oya va biznes rejadan;
E) bank krediti olishdan.

3. Quyidagilar tadbirkorlik faoliyati turlariga kiradi:
A) davlat moliya muassasalaridagi xizmat, tijorat, sug‘urta;
B) ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy tadbirkorlik, sug‘urta;
D) tijorat, ishlab chiqarish, harbiy xizmat, sug‘urta;
E) sug‘urta, talabalik, ishlab chiqarish, tijorat.

4. Tovarning ishlab chiqarish narxi 500 so‘m bo‘lib, iste’molchiga yetguncha 2 ta ulgurji va bitta chakana savdo firmasidan o‘tdi. Agar har bir olib sotuvchi tovarning xarid narxiga 20 % ustama haq qo‘ygan bo‘lsa, tovarning oxirgi chakana narxi necha so‘m?
A) 864 so‘m;
B) 800 so‘m;
D) 1036 so‘m;
E) 720 so‘m.

5. Tovar tannarxi nima?
A) Chakana savdo do‘konining sotuv narxi;
B) Bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar;
D) Ulgurji savdo firmasining sotuv narxi;
E) Tovarning bozor narxi.

6. Firmada nimalar boshqarilishi talab qilinadi?
A) Mehnat jamoasi tarkibi;
B) Moliyaviy mablag‘lar;
D) Xom ashyo zaxirasi;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

7. Qaysi javobda faqat ishlab chiqarish vositalari keltirilgan?
A) Ko‘mir, dastgoh, bino, televizor;
B) Yuk mashinasi, asbob-uskuna, inshoot;
D) Mebel, ko‘mir, elektr energiyasi;
E) Benzin, daryo suvi, hovli.

8. Qaysi javobda foydani hisoblash formulasi to‘g‘ri yozilgan?

A) $P_r = TR - TC$; B) $P_r = TR + TC$;
D) $P_r = TR : TC$; E) $P_r = TR \times TC$.

9. Tovarning ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan sotilish narxi ... deb nomlanadi?

A) Ulgurji narx; B) Chakana narx;
D) Ishlab chiqaruvchi narxi; E) Qat'iy narx.

10. Bozor taqdim eta olmaydigan, davlat tomonidan yetkazib beriladigan va mamlakat aholisi tomonidan birgalikda, jamoaviy asosda iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar ... deb ataladi.

A) moddiy boyliklar; B) iste'mol tovarlari;
D) ijtimoiy ne'matlar; E) tekin ne'matlar.

11. Davlatning iqtisodiy vazifalariga nimalar kiradi?

A) Mamlakatning iqtisodiy asoslarini saqlash;
B) Raqobatni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
D) Daromad va boylikni qayta taqsimlash va qo'shimcha tashqi ta'sirlarni tartibga solish;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

12. Davlat budjeti ...

A) kamomadli bo'lishi mumkin;
B) faqat rivojlangan mamlakatlarda kamomadli bo'lmaydi;
D) faqat qashshoq mamlakatlarda kamomadlik bo'ladi;
E) kamomadi qo'shimcha soliqlar hisobidan qoplanadi.

13. Quyidagilardan qaysi biri davlatning bozor noqobilligi oqibatlarining oldini olish vazifasiga kirmaydi?

A) Bozorning monopollashishiga qarshi kurashish;
B) Ijtimoiy tovarlar va xizmatlar yaratish;
D) Daromad va mulkni soliqqa tortish;
E) Qo'shimcha tashqi ta'sirlarni tartibga solish va nazorat qilish.

14. Davlatning daromad va boylikni qayta taqsimlash vazifasi qaysi tadbirlar orqali amalga oshiriladi?

A) Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish;
B) Ko'p daromadli fuqarolarning daromadidan mos soliq undirish;
D) Talabalarga stipendiya berish;
E) Yuqoridagilarning barchasi.

15. Agar 1000000 so'm pul 24 foiz yillik foiz stavkasi bilan bankka qo'yilgan bo'lsa, yarim yildan so'ng qancha bo'ladi?

A) 120000 so'm; B) 1120000 so'm;

D) 12400000 so‘m; E) 880000 so‘m.

16. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi ... hisoblanadi.

A) davlat tomonidan jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lov;
B) daromad solig‘i obyekti;
D) soliq imtiyoziga ega daromad;
E) ish haqi.

17. Mol-mulk solig‘i ...

A) jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladi;
B) faqat jismoniy shaxslardan undiriladi;
D) faqat yuridik shaxslardan undiriladi;
E) to‘g‘ri javob yo‘q.

18. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan ... yer solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadilar.

A) jismoniy shaxslar; B) jismoniy va yuridik shaxslar;
D) yuridik shaxslar; E) davlat muassasalari.

19. Aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i ...

A) jismoniy shaxslardan undiriladi;
B) bevosita soliqlar turiga mansubdir;
D) bilvosita soliqlar turiga mansubdir;
E) mahalliy soliqlar sirasiga kiradi.

20. Mamlakat hududida yil mobaynida ishlab chiqarilgan, tugal ko‘rinishdagi tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi umumiy qiymati ... deb ataladi.

A) yalpi milliy mahsulot; B) sof ichki mahsulot;
D) milliy daromad; E) yalpi ichki mahsulot.

21. Iqtisodiy ko‘rsatkichning real qiymati — ...

A) bu uning joriy narxlarda hisoblangan qiymati;
B) bu uning biror asos qilib olingan yildagi narxlarga nisbatan hisoblangan qiymati;
D) bu uning bozor narxlaridagi qiymati;
E) bu uning qat’iy narxlarda hisoblangan qiymati.

22. Mamlakatdagi o‘rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi ... deb ataladi.

A) deflatsiya; B) pul taqchilligi;
D) giperinflatsiya; E) inflatsiya.

S32 Sariqov Ergashvoy Sotvoldiyevich.
Iqtisodiy bilim asoslari: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/E.S.Sariqov, B.Q.Xaydarov. — T.: 2019. — 160 b.

ISBN 978-9943-5874-1-0

UO‘K 37.015.6(075)
BBK 65.01ya7
S-32

Ergashvoy Sotvoldiyevich Sariqov,
Bahodir Qayumovich Xaydarov

IQTISODIY BILIM ASOSLARI

9-sinf uchun darslik

O‘zbek tilida

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti, 2019,
Toshkent sh, Jumamasjid ko‘chasi 6-uy.

Muharrir	Sh. Dadasheva
Texnik muharrir	A. Umarova
Bosh dizayner	"H&J" jamoasi
Sahifalovchi	D. Iskandarbekov

Litsenziya AI 022, 27.10.2018 yil.

Bosishga ruxsat etildi 10.07.2019 y. Bichimi $70\times90^{1}/_{16}$. «Tayms» garniturasi. Kegli 11. Ofset usulida bosildi. Shartli tabog‘i 11,7. Bosma tabog‘i 10,94.
Adadi 494 082 nusxa. 19-22 sonli buyurtma.
Shartnoma 21/01

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti matbaa bo‘limida tayyorlandi.
Toshkent, Yunusobod 6, Jumamasjid ko‘chasi.
Guvohnoma 10-2750, 13.06.2017 yil

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.